

---

*Boqiy satrlar*

---

***Boborahim Mashrab***

# **DILIM DARYOI NURDUR**

*Tanlangan she'rlar*



G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi  
Toshkent — 2004

84 (5U)I  
M34

Tahrir hay'ati: **Aziz Qayumov, Abduqodir Hayitmetov,  
Najmiddin Komilov, Abdurashid Abdug'afurov, Vahob  
Rahmonov**

To'plovchilar: **Abdurashid Abdug'afurov, Jonibek Subhon**

Izohlar tuzuvchisi: **Erkin Rahmonov**

Mas'ul muharrir: **Vahob Rahmonov**

Mashrab, Boborahim.

M34 Dilim daryoi nurdur: Tanlangan she'rlar [Boborahim  
Mashrab; [So'zboshi Abdurashid Abdug'afurovniki]. – T.:  
G'afir G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi. –  
2004. – 232 b.

Boborahim Mashrab o'z ijodi bilan o'zbek adabiyotida xalqchillik, ijtimoiylik va dunyoviylikning chuqurlashuvida, jaholat va bid'atga qarshi kurash g'oyalarning kuchayishida, she'riyat mundarijasini kengayishi va shakllarining takomillashuvi hamda badiiyatning kamolga erishuvida katta o'rin tutgan so'z ustalaridan biridir.

Mashrab faqat otashzabon ijodkor sifatidagina emas, balki ayni zamonda, adolatsizlik, zo'rvonlik, qabohat va jaholat bilan aslo kelisha olmaydigan dovyurak shaxs sifatida ham dong taratgan.

BBK 84 (5U) I

M  $\frac{4702620102 - 72}{M 352 (04) - 2004}$  – 2004

ISBN 5-635-02274-X

© G'. G'ulom nomidagi  
nashriyot-matbaa ijodiy  
uyi, 2004-y.

## DEBOCHA

*Boborahim Mulla Vali o'g'li Mashrab mumtoz adabiyotimiz buyuk namoyandalarning ilg'or an'analari zaminida yirik shoir bo'lib shakllandi, kamolga yetdi.*

*Shoir ijodidagi ijtimoiy mazmundorlik va kuchli tanqidiy yo'nalish uning ilg'or dunyoqarashi, xalqchil falsafasi, zamonasidagi salbiy voqea-hodisalarga, hayotdagi illatlarga aniq tanqidiy munosabatidan shakllangan.*

*Mashrab qoldingan ijodiy merosda hayotiylik, shaxs va uning insoniy kechinmalarini ifodalash, xislat-fazilatlarini ta'riflash, orzu-umidlari, shodlik-quvonchlari va g'am-tashvishlarini haqqoniy va ta'sirchan tasvirlash katta o'rin tutadi. Bu mavzu, asosan, hayotiy ishq-muhabbatni ulug'lash, go'zal yorni — ma'shuqa husnu latofatini madh etish, oshiqning sevgi-sadoqatini, yor vasliga intilishini ishonchli ifodalash jarayonida tahlil etiladi. Mashrab Sharq she'riyatining g'azal, mustazod, murabba' va muxammas, shuningdek, musaddas va musabba' turlarida badiiy yetuk namunalarini yaratdi. Uning ishqiy lirikasi hayotiy mazmuni va jo'shqinligi, nihoyatda ravon va o'ynoqiligi, xalq qo'shiqlari kabi soada va samimiyligi bilan o'quvchilarni maftun etadi. U she'riyatda jozibador va dildor mashrabona uslub yaratdi. Sho'x vazn va jarangdor radif-qofiyalar, xalq jonli tilidan unumli foydalanish, har bir misraga sur'at va jo'shqinlik baxsh etish mashrabona uslubning xos fazilatlarini tashkil etadi.*

*Tabiiy g'urur bilan faxriya ruhida:*

*... Shuhrati she'r bobida, Mashrabo, mo'tabar o'zum!*

*... Mashrabo har bir so'zungdur gavhari qimmatbaho! —*

*misralarini bitgan shoirning badiiy barkamol asarlari xalqimiz ma'naviy mulkining muqaddas bir qismiga aylangan.*

*Abdurashid Abdug'afurov*



---



## G'AZALLAR

\* \* \*

Tushdi savdoi muhabbat boshima,  
Or etar mardum<sup>1</sup> kelurg'a qoshima.

Ko'b muhabbat ko'yida qon yig'ladim,  
Yetti iqlim<sup>2</sup> g'arq bo'ldi yoshima.

Sajda aylar zohid ul mehrob arb,  
Men qilurman sajda egma qoshima.

Qil hazar, albatta, jonon, qahrdin,  
Uzru zorim senga — bag'ri toshima.

Muhtasib<sup>3</sup> to'kturdi soqiy bodasin,  
Yetmadi aqli aning sirdoshima.

Kunda yuz ming jabr qilsang, o'rgulay,  
Qo'y qarab g'am yukini bardoshima.

Mashrabi devonani hayron etib,  
Ne sababdin kelmading bir qoshima.



---

<sup>1</sup>Mardum — odamlar; <sup>2</sup>iqlim — qit'asimon, jug'rofiy tushuncha;  
<sup>3</sup>muhtasib — shariat nazoratchisi.

\* \* \*

Men nola qilay shomu sahar dod eshigingda,  
Jonimni beray, sho'xi parizod, eshigingda.

Ul lolayu rayhonu suman, toza qizil gul,  
Chun sarv qadin bukladi shamshod eshigingda.

Xo'boni<sup>1</sup> jahon bo'lsa taqi Yusufi Kan'on,  
Sulton amir, bandayu ozod eshigingda.

Zulfung seni bu jonima yuz domi<sup>2</sup> balodur,  
Jonim qushi sayd o'ldi chu sayyod eshigingda.

Olam borisi lazzati husnungni topibdur,  
Giryonu fig'on, nolayu faryod eshigingda.

Savdoi muhabbatga tushubman seni izlab,  
O'ldurdi g'aming, ko'zlari jallod, eshigingda.

Ashkim<sup>3</sup> to kubon hajru g'amingda kecha-kunduz,  
Vayrona vatan — manzili obod eshigingda.

Ul husnu jamoling o'ti Mashrabg'a tushubdur,  
Parvona sifat kuydi parizod eshigingda.



<sup>1</sup>X o' b o n — go'zallar; <sup>2</sup>d o m — tuzoq; <sup>3</sup>a s h k — ko'z yoshi.



\* \* \*

Devonadurman sham'i shararjilva sanamg'a,  
Qurbon bo'lay otashkadayi shu'la adamg'a.

Zebo sanamim boda ichib, yuzini ochib,  
O't qo'ydi parizod gulistonni Eramg'a.

Bir «hu»<sup>1</sup> bila men Laylini majnun qilayozdim,  
Devonalig'im shona urur zulfi sanamg'a.

Yuz jonim agar bo'lsa anga hech ayamasman,  
Men talpinibon jon berayin qoshi qalamg'a.

Zohidki, agar ichsa edi bodayi ma'shuq,  
Sarmast bo'lubon bormas edi Makka – haramg'a!

Mashrab, ne balodur shikani<sup>2</sup> turrayi<sup>3</sup> kokul,  
Barbod o'ladur kishvaridin ushbu hashamg'a.



---

<sup>1</sup> "Hu" – (ya'ni Oллоh); <sup>2</sup>sh i k a n i – halqa-halqa; <sup>3</sup>t u r r a – soch o'rimi.

\* \* \*

Sanam yuzini ko'rsatur oshiqi mubtalosig'a,  
G'ami bila o'lg'on ado Majnuni benavosig'a.

Tolibi ishq o'lay desang himmati Adhami kerak,  
Zarra qachon yetar, vale, vasli sanam arosig'a.

Yor yuzini ko'ray desang, vasli bila bo'lay desang,  
Rizo kerak qazosig'a<sup>1</sup>, sabr kerak balosig'a.

O'tti jahondin avliyo, murshidu orif, anbiyo,  
Bo'lmadilar firiftasi<sup>2</sup> dunyoni mojarosig'a.

Vosili Haq bo'lay desang, ishqu muhabbat hosil et,  
O'rta havoyu kibr uyin sham'i yuzin ziyosig'a.

Kuysa muhabbat o'tig'a tisqu fujur gunohlarini.  
Xilvat etib kelur o'zi ko'ngulning xonaqosig'a.

Mashrabi benavodurman, arzi dilimni aytayin,  
Tarahhum<sup>3</sup> ayla, ey pari, ishqingni bu gadosig'a.



<sup>1</sup>Q a z o - qismat; <sup>2</sup>f i r i f t a - aldangan; <sup>3</sup>t a r a h h u m - rahm.



\* \* \*

Sensan sevarim, xoh inon, xoh inonma,  
Qondur jigarim, xoh inon, xoh inonma.

G'am shomi firoqingda kabob etti falakni,  
Ohi saharim, xoh inon, xoh inonma.

Nogah sari zulfung sori bo'ldum senga moyil,  
Ey toji sarim, xoh inon, xoh inonma.

La'ling g'amidin ko'nglum erur g'uncha kabi qon,  
Gulbargi tarim, xoh inon, xoh inonma.

Zahri g'ami hajring meni o'ldurg'ali yetti,  
Ey lab shakarim, xoh inon, xoh inonma.

Mashrab bo'lubon ko'yingga chun barqi<sup>1</sup> tajalli,<sup>2</sup>  
Qolmay asarim, xoh inon, xoh inonma.



---

<sup>1</sup>B a r q — chaqmoq; <sup>2</sup>t a j a l l i — jilvalanish.



\* \* \*

Arzimni aytay bodi sabog'a,  
Bizdin duo deb ul dilrabog'a.

Ko'zlari Cho'lpon, sarvi xiromon,  
Zulfi parishon, qoshi qarog'a.

Qomati larzon<sup>1</sup>, va'dasi yolg'on,  
Turmadi hargiz ahdu vafog'a.

Uchdi ko'zimdin ul pari yanglig',  
Tashladi-ketdi turluk balog'a.

Shohi mukarram, shohi muazzam,  
Qilmadi shafqat mendek gadog'a.

Qilduk ikovlon bir ahdu paymon,  
Har kim yomondur solduk xudog'a.

Dardi firoqing ayladi bemor,  
Qayda borayin emdi davog'a.

Hajringda tinmay qildim fig'onlar,  
Yetti bu nolam arzu<sup>2</sup> samog'a.

Qilg'il tarahhum, ey yori xushxo',  
Loyiq emasman jabru jafog'a.

Dardu alamdin bolu par<sup>3</sup> aylab  
Shahboz<sup>4</sup> ko'nglum uchdi havog'a.

<sup>1</sup>Larzon — titraydigan, dirillaydigan; <sup>2</sup>arzu — yer; <sup>3</sup>bolu par — qanot va pat; <sup>4</sup>shahboz — lochin.

Yo'l bermadilar menga raqiblar,  
Chiqdim bosh olib bul Karbalog'a.

Ey yori badahd<sup>1</sup>, bemehr ekansan,  
Rahm aylamaysan men muhtalog'a.

Dardu g'am ichra sarg'aydi yuzum,  
Rang bergusidur ul kahrabog'a.

Ey jonajonim, ko'rsam jamoling,  
Jonim tasadduq sen xush adog'a.

Ishqingda kuydum, ey sarvinozim,  
Bir marhamat qil men benavog'a.

Shavqingda jonim bo'ldi barahna<sup>2</sup>,  
Ayb etmagin sen men norasog'a.

Yurdum yo'lungda men kecha-kunduz,  
Faryod etibon yig'lab xudog'a.

Bechora hayron, besaru somon,  
Suvsab qolibman bul Karbalog'a.

Ey bag'ri toshim, hajringda kuydum,  
Topshurdim oxir qodir xudog'a.

Dilxasta Mashrab qilmasmu faryod,  
Ko'zlari jallod olsa arog'a.



---

<sup>1</sup>B a d a h d — va'dasi yolg'on; <sup>2</sup>b a r a h n a — yalang'och.

---

\* \* \*

Ko'nglumni berdim sen bevafoġ'a,  
Kuydi yuragim jabru jafog'a.

Ey nozananim, rahm ayla manga,  
Qoldim seni deb yuz ming balog'a.

Mehnat chekarman rohat ko'ray deb,  
Qilsang jafolar yig'lay xudog'a.

Bemori ishqing bo'ldum netarman,  
Sobir<sup>1</sup> — balog'a, rozi — qazog'a.

Mujgoning<sup>2</sup> o'qi o'tti yurakdin,  
Nogah sovuq so'z tushdi arog'a.

Mashrab, seni deb kechdi jahondin,  
Rahm aylamaysan muflis<sup>3</sup> gadog'a.



---

<sup>1</sup>S o b i r — sabrli; <sup>2</sup>m u j g o n — kiprik; <sup>3</sup>m u f l i s — qashshoq.



\* \* \*

Ko'rsat jamoling mastonalarg'a,  
Ishqingda kuygan parvonalar'ga.

Mendin duodur, sendin ijobat,  
Jonim tasadduq jononalarg'a.

Ey ko'ngli qattig', rahm aylamaysan,  
Qilg'il nazora bechoralar'ga.

Kuygan g'aribman, shafqat qil oxir,  
Ko'yingda yurgan devonalarg'a.

Mashrab seni deb kechti jahondin,  
Boshini qo'ydi ostonalarg'a.



\* \* \*

Ey sabo, g'ambodadurman, bistarimni<sup>1</sup> kavlama,  
Chun shafaq oludaman<sup>2</sup>, xokistarimni<sup>3</sup> kavlama.

Har zamone Laylidan manga kitobatlar<sup>4</sup> kelur,  
Senki Majnun bo'lmasang, sardaftarimni kavlama.

Xonavayronlar bilur aftodalarning holini,  
Eyki, mahram bo'lmasang, chashmi tarimni kavlama.

To kishiga dard tegmay, bo'lmadi bag'ri kabob,  
Dilda darding bo'lmasa, dardi sarimni kavlama.

Hajr toshidin sarofat<sup>5</sup> boshig'a yetgan o'zum,  
Kishti<sup>6</sup> motamdadurman, langarimni kavlama.

Yetti do'zax o'rtanur aftodalarning ohidin,  
Otashi hajrida kuygan mijmarimni<sup>7</sup> kavlama.

Lomakonning shahrini bir «hu» bila sayr ayladim,  
Jabrail, borg'il nari, bolu parimni kavlama.

Bahri rahmatga kirib qildim vujudimni adam,  
Ma'rifatdin<sup>8</sup> bexabarsan, daftarimni kavlama.

Durri daryoi maoniy<sup>9</sup> bo'ldi chun Mashrab, vale  
Diydabiyno<sup>10</sup> bo'lmasang, ko'z gavharimni kavlama.

---

<sup>1</sup>Bistar – ko'rpa; <sup>2</sup>oluda – belangan; <sup>3</sup>xokistar – kul; <sup>4</sup>kitobalar – maktublar; <sup>5</sup>sarofat – hoy-havas; <sup>6</sup>kishti – kema; <sup>7</sup>mijmar – otashdon; <sup>8</sup>ma'rifat – Oллоh mohiyati haqidagi bilimlar majmui; <sup>9</sup>maoniy – ma'nolar; <sup>10</sup>diydabiyno – ko'zi ochiq.



\* \* \*

Netay, ey do'stlar, bo'lmay yuzi sham'ig'a parvona,  
Tuman<sup>1</sup> ming ishva birla ko'nglum oldi sho'xi jonona.

Nasimi yetsa ko'yidin bo'lur gulzor sahrolar,  
Tushar olamg'a ohim o'tidin bir ra'di<sup>2</sup> barqona<sup>3</sup>.

Bo'lubdur man hamadin — hur bo'lsun yo pari bo'lsun,  
Jami'i mahliqolardin aning ishqida begona.

Ne tong, rahmi kelib bersa meni maxmuri hayrong'a,  
O'shal husn ahli shohi ishq mayidin qatra paymona<sup>4</sup>.

Erur zuhd ahli xursand, soyai qaddida arjumand,  
Muhabbat ahli ishq sahrosida majruh devona.

Tilab Haqdin kecha-kunduz boshimni sajdadin olmam,  
Murodim ishq eli xoni tanimdin qilsa paymona.

Tariyqi ishq aro noyob agar, Mashrabki, bir joning,  
Yo'lida, bo'lsa ming joning, fido qil sheri mardona.



<sup>1</sup>T u m a n — o'n ming; <sup>2</sup>r a' d — momaqaldiroq; <sup>3</sup>b a r q o n a — yashin;  
<sup>4</sup>p a y m o n a — qadah.



\* \* \*

Dil ani derlarki, hargiz mojarosi bo'lmasa,  
Ko'r ani derlarki, bas, chashmi binosi<sup>1</sup> bo'lmasa,

Jannat ul-firdavsni muft<sup>2</sup> bersa yo'lda izlama,  
Xayr ani derlarki, arzandek<sup>3</sup>, riyosi bo'lmasa.

Xobgohim<sup>4</sup> arsh edi, munda g'alat tushtum, darig',  
Nur bo'lur erdimki, nafsim ajdahosi bo'lmasa.

Dedi payg'ambar bu so'zni, Mashrabo, bo sidq eshit:  
«Do'zaxi derlar ani tarsi<sup>5</sup> xudosi bo'lmasa».



---

<sup>1</sup>Ch a s h m i b i n o s i — ko'radigan ko'zi; <sup>2</sup>m u f t — tekin; <sup>3</sup>a r z a n -  
d e k — tariqcha; <sup>4</sup>x o b g o h i m — yotoqxonam; <sup>5</sup>t a r s — qo'rqmoq.



\* \* \*

Borurman ostoniga sahar ohista-ohista,  
Surarman ko'zlarimga xoki dar<sup>1</sup> ohista-ohista.

O'tar bir-bir bosib ul sho'x, boqmas bevafoqlikdin,  
Erur andoq vafosiz umr o'tar ohista-ohista.

Kichiklikda, nigorim, achchig' aytsa ayb ermasdur  
Ki, faslida bo'lur shirin samar<sup>2</sup> ohista-ohista.

Jamoling barkamol o'ldi, bo'lur bir-bir xating<sup>3</sup> paydo.  
Bahor o'lsa o'sarlar sabzalar ohista-ohista.

Borur miskin bu Mashrab gul yuzungni ko'rgali, ammo  
Ko'rolmay gul yuzung yig'lab turar ohista-ohista.



---

<sup>1</sup>X o k i d a r – eshik tuprog'i; <sup>2</sup>s a m a r – meva; <sup>3</sup>x a t – lab uzra mayin tuklar.





\* \* \*

Ey falak, qilding meni ul mehribonimdin judo,  
Bulbuli sho'rida<sup>1</sup> yanglig' gulistonimdin judo.

Naylayin, qilding meni oxir g'aribu notavon,  
Mubtaloi g'am qilib ko'ksumda jonimdin judo.

Qumri yanglig' bandalik<sup>2</sup> tavqini<sup>3</sup> bo'ynumg'a solib,  
Termulub hayron edim sarvi ravonimdin judo.


Oh urub qon yig'lasam ayb aylamang, ey do'stlar,  
Men bo'lubman to'tii shirin zabonimdin judo.

Ko'h ba ko'h<sup>4</sup>, sahro ba sahro, Mashrabo, yurmoq nadur,  
Chug'zi<sup>5</sup> bevayronadurman oshyonimdin judo.



---

<sup>1</sup>Sh o' r i d a – g'ulg'ulali; <sup>2</sup>b a n d a l i k – qullik; <sup>3</sup>t a v q i n i – bo'yinbog'ini; <sup>4</sup>k o' h b a r o' h – tog'ma-tog'; <sup>5</sup>c h u g' z i – ukki, boyo'g'li.





\* \* \*

Bulbul erdim qildi g'am oxir gulistondin judo,  
Har so<sup>1</sup> motam birla yurdum shakkaristondin judo.

Siyna chok ettim, mening aybimni qilmang, do'stlar,  
Qildi Ya'qubni falak xurshidi Kan'ondin judo.

Necha savdolarni ko'rdi bu mening g'amlik sarim<sup>2</sup>,  
Bo'lmadim bir soate zulfi parishondin judo.

Norasoning dastiga, yorab, bu gavhar tushmasun,  
Qadr topmas ul nigin<sup>3</sup> dasti<sup>4</sup> Sulaymondin judo.

Shodmoni<sup>5</sup> izladim, boshimg'a g'am keldi hama,  
Bir zamone bo'lmadim bu ohu afg'ondin judo.

Mashrabo, o'lguncha dargohida maqsuding budur,  
Xotiringni qilmag'il mundoq pushaymondin judo.



---

<sup>1</sup>S o' - tomon; <sup>2</sup>s a r i m - boshim; <sup>3</sup>n i g i n - uzuk; <sup>4</sup>d a s t - qo'l;  
<sup>5</sup>sh o d m o n - shodlik.



\* \* \*

Zihi rasvolig'im olamg'a soldi sho'ru shar<sup>1</sup> tanho,  
Nahangi no'h<sup>2</sup> falak daryosi bo'ldi, alhazar, tanho.

Bihisht ayvoniyu toqu ravogin orzu qilmay,  
Nigorim birla men bir pirahanda<sup>3</sup> xalqi bar tanho.

Olurg'a dinu dunyoning matoin orzu qilmay,  
Qalandarman, jahonni sayr etib qildim safar tanho.

Bori Rumu Xito boju xirojin orzu qilmay,  
Chu Semurg'iki, parvoz aylaram bebolu par<sup>4</sup> tanho.

Shohi ro'yi zaminu<sup>5</sup> taxtu tojin orzu qilmay,  
Gadoyi faqr bo'ldum, sayr etarman bahru bar<sup>6</sup> tanho.

Dili tig'i sitamdin pora bo'lg'on xalqni ko'rdum,  
Zulm tug'yonidini haryon yururlar darbadar tanho.

Nazar to qutbi olam<sup>7</sup> qilmag'uncha, begumon, bilgil,  
Nechuk olg'ay javohir bahrdin sohib nazar tanho.

Balo dashti agarchi, purxatardur, yonmag'il zinhor,  
Qadam bu vodiyg'a qo'yg'il bamisli sheri nar tanho.

Muhabbatdin nasimi subhi sodiq bo'yi gul istar,  
Qani bu bultuli sho'ridadin ohi sahar tanho.

Seni ko'rguncha to, ey nozanin, Tangriga topshurdum,  
Meni mundog' musofir ayladi davri qamar<sup>8</sup> tanho.

Tilarsan, Mashrabo, jon kulbasinda suhbatu ma'shuq,  
Kishi mahram bo'lolmas yorig'a, bo'lmas agar tanho.

<sup>1</sup>Sh a r - g'avg'o, to'polon; <sup>2</sup>n o' h - to'qqiz; <sup>3</sup>p i r a h a n d a - ko'ylakda;  
<sup>4</sup>b e b o l u p a r - pat-qanotsiz; <sup>5</sup>r o' y i z a m i n - yer yuzi; <sup>6</sup>b a h r u b a r -  
dengiz va quruqlik; <sup>7</sup>q u t b i o l a m - ulug' shayx; <sup>8</sup>q a m a r - oy.



\* \* \*

Ul sho'xi parivash bila gar boda' ichayno,  
Saxush bo'lubon shishai sog'arni<sup>2</sup> chekayno.

Mahv o'ldi bu ko'ngulki, aningdek baham o'lmas,  
Solg'il nazaring mengaki, qurboning o'layno.

Oluda<sup>3</sup> bo'lub bosh-ayog'im jo'shi gunohdin,  
Rahm aylaki, vahmi g'azabingdin titirayno.

Pomoli<sup>4</sup> chaman sabza sifat bo'ldi vujudum,  
Tashrifi qudumi qadaming fathi etayno.

Mashrab, turushung misli nasimdur bu jahonda,  
Bir damda kelib sayr qilib zud<sup>5</sup> ketayno.



---

<sup>1</sup>Boda - may; <sup>2</sup>sog'ar - may; <sup>3</sup>oluda - bulg'anib; <sup>4</sup>pomoli - oyoqosti;  
<sup>5</sup>zud - tez.



\* \* \*

Setor ila savti navo aylaganing xo‘b,  
Xo‘blar ichida masnadi joh<sup>1</sup> aylaganing xo‘b.

Bir bokiraye huru pari husnig‘a tarjih<sup>2</sup>,  
Ishrat samanig‘a minibon haydaganing xo‘b.

Pargor<sup>3</sup> to‘lub gavhari daryoyi muhabbat,  
Bir nuqtaga jon gavharini bog‘laganing xo‘b.

Gar bod<sup>4</sup> misol charx urub, Mashrabi miskin,  
Mastona qaro ko‘zga nigoh chekmaganing xo‘b.



---

<sup>1</sup>Masnadi joh — amal oromkursisi; <sup>2</sup>tarjih — ustun, afzal; <sup>3</sup>pargor — sirkul; <sup>4</sup>bod — shamol.

---

\* \* \*

G'am biyobonida qoldim, yig'ladim ko'p yor deb,  
Oh urub, faryod etib, bulbuldayin gulzor deb.

Kechayu kunduz kuyarman ishq o'tig'a doimo,  
Darbadar izlab yururman sohibi asror<sup>1</sup> deb.

Lashkari g'am ham sinuq ko'nglumni afor ayladi,  
To davosiz dardga qoldim, ojizu bemor deb.

Garchi osiyman, emasman rahmatingdin noumid,  
Har na qilsa erki bor ul, bandasi nochor deb.

Ma'rifatlik bir egam deb bo'lma g'ofil, Mashrabo,  
Garchi g'ofirdurki<sup>2</sup>, yo'qdur mehribon jabbor<sup>3</sup> deb.



---

<sup>1</sup>A s r o r — sirlar; <sup>2</sup>g' o f i r — kechiruvchi; <sup>3</sup>j a b b o r — jabr qiluvchi.

\* \* \*

Doimo yoding bila yurdum chu sargardon bo'lub,  
Ohu faryod aylabon hajringda chu jo'yon<sup>1</sup> bo'lub.

Har qayon yurdum so'rog'ing topmadim, ey gul'uzor,  
Aylanib keldim yana g'am uyiga hayron bo'lub.

Tinmayin qon yig'ladim ko'yida rahm etgaymu deb,  
Iltifote qilmay o'tti ul pari javlon bo'lub.

Dog'i hajring kuydurub bag'rimni, ey nomehribon,  
Jola<sup>2</sup> yanglig<sup>4</sup> ko'zlarimdin oqti qon boron<sup>3</sup> bo'lub.

Arzi holim kimga aytay, mehribonim yo'q mening,  
Kim quloq solib eshitkay holima giryon<sup>4</sup> bo'lub.

Za'farondek sarg'ayib qoldum firoqing cho'lida,  
O'lgum emdi poymoli<sup>5</sup> lashkari hijron bo'lub.

Kipriking novaklari<sup>6</sup> ko'ksumni aylab yoralar,  
G'amzalik qilg'on nigohing o'tti bir paykon<sup>7</sup> bo'lub.

Bo'lma g'ofil, Mashrabo, emdi yarog'ing to'g'rila,  
Dam-badam vaqti safardur, qolma boarmon bo'lub.



<sup>1</sup>J o ' y o n — izlab; <sup>2</sup>j o l a — jala; <sup>3</sup>b o r o n — yomg'ir; <sup>4</sup>g i r y o n — yig'loqi; <sup>5</sup>p o y m o l — oyoqosti; <sup>6</sup>n o v a k — o'q; <sup>7</sup>p a y k o n — kamon o'qi uchidagi temir parche.

\* \* \*

Shuhrat aylab kim alardek xudnamolarni<sup>1</sup> ko'ring,  
Zohiri suvratparast nooshnolarni ko'ring.

Yo'lni bilmas ummilarning ko'ziga orif<sup>2</sup> bo'lub,  
O'zi manzilga yetolmay nobinolarni<sup>3</sup> ko'ring.

Barchaga aylar nasihat o'zini dono etib,  
Yo'lda qolg'an bekasu berahnamolarni<sup>4</sup> ko'ring.

Kufri iymonni bilolmaslar, karomat aylabon,  
Toatu taqvo bilan sohibriyolarni<sup>5</sup> ko'ring.

O'zini aybin yopib, xalq aybini ifsho qilib,  
Zohiru botinda mundog' norasolarni ko'ring.

Har kishi so'rsa nasabdin<sup>6</sup> dam urarlar nafs uchun,  
Botini-fir'avnu, zohir-avliyolarni ko'ring.

Lof urarlar orifi yakdilaman deb xalq aro,  
Xalqni gumroh qilib, yuzi qarolarni ko'ring.

Zohirida so'fiyman deb tarki dunyo aylagan,  
Botini dunyoga moyil baxt qarolarni ko'ring.

Xalqning ko'ziga har dam suvratin digar<sup>7</sup> qilib,  
Nafs uchun shayton bilan yurgan gadolarni ko'ring.

O'zining avlodini xalq ichida ifsho qilib,  
Tanda yo'q ma'no, quruq nomi sarolarni ko'ring.

Shuhratim ofat bo'lur deb Mashrabiing qo'l olmadi,  
Ko'zda yoshim qatراسi durri baqolarni ko'ring.

<sup>1</sup>Xudnamolarni — o'zini ko'rsatuvchilarni; <sup>2</sup>orif — ma'rifati; <sup>3</sup>no-  
bino — so'qir, ko'r; <sup>4</sup>berahnamo — yo'lbo'shchisiz; <sup>5</sup>sohibriyolarni —  
riyokorlarni; <sup>6</sup>nasab — ota-bobolarga tegishli ulug' fazilatlar; <sup>7</sup>digar — o'zga, boshqa.



\* \* \*

To kiydi qizil, o'zini zebo qiloyin deb,  
O't yoqdi jahon mulkida g'avg'o qiloyin deb.

Mashshota<sup>1</sup> bila jilvada ko'rguzdi qadini,  
Mendek necha devonani shaydo qiloyin deb.

Zebo sanamim gul yuzidin parda ko'tardi,  
Olam hama ko'z bo'ldi tamosho qiloyin deb.

Zulfini tarab qosh uchurub, jilvalar etti,  
Oshubi<sup>2</sup> balo, fitnani barpo qiloyin deb.

To ayladin oldig'a borib arzi niyozim<sup>3</sup>,  
Chin soldi<sup>4</sup> jabinig'a<sup>5</sup> tamanno qiloyin deb.

Mastona samand sekrata keldi shahi xunrez,  
Shamshiri jafoni yana burro<sup>6</sup> qiloyin deb.

Ko'p yilki bu qul xizmatini qilmadi barjo<sup>7</sup>,  
Keldiki g'azab birla chu sazo qiloyin deb.

Boshimni kesib olg'ilu xushhol bo'lub ket,  
Qonimni meni lolai sahro qiloyin deb.

Xanjar qo'lida Mashrabin o'ldurg'ali keldi,  
G'avg'oi qiyomatni huvaydo<sup>8</sup> qiloyin deb.



<sup>1</sup>M a s h s h o t a — qiz-kelinlarni bezatuvchi ayol; <sup>2</sup>o s h u b — g'avg'o;  
<sup>3</sup>n i y o z — muhtojlik; <sup>4</sup>c h i n s o l d i — chimirmoq; <sup>5</sup>j a b i n — manglay;  
<sup>6</sup>b u r r o — keskir; <sup>7</sup>b a r j o — o'rnatmoq; <sup>8</sup>h u v a y d o — ko'rsatmoq.



\* \* \*

Ofati jonim, ul sanam, qoshi qarosini ko'ring,  
Ikki yuzig'a chulg'onur zulfi siyosini<sup>1</sup> ko'ring.

Goho qizil qabo<sup>2</sup> kiyib, qirmizi sochbog'in solib,  
Nozu karashmalar qilib, ahdi vafosini ko'ring.

Huru paridin tozadur, shamsu qamar<sup>3</sup> xijil erur  
Kim oni ko'rsa bandadur, husni rasosini ko'ring.

Gohi qoshini yo etib, kirpik o'qi birla otib,  
Jodu ko'zini o'ynotib, makru balosini ko'ring.

Mashrabi benavoduram, vasling uchun gadoduram,  
Hajr o'tig'a kuyoduram, yor jafosini ko'ring.



---

<sup>1</sup>S i y o – qora; <sup>2</sup>q a b o – ustki kiyim; <sup>3</sup>s h a m s u q a m a r – quyoshu oy.



\* \* \*

Hech kima ma'lum emas holi parishonim mening,  
Osmonni tiyra<sup>1</sup> qildi ohu afg'onim mening.

Men nechuk shod etmayinkim xasta ko'nglum bir dame,  
Keldi holimni so'rab jon ichra jononim mening.

Ey sitamgar, kelgilu emdi shahid etgil meni,  
Mavj ursun Karbalo dashtida bu qonim mening.

Chun seningdek nozanin jam'i mulkda<sup>2</sup> yo'q turur,  
Bu jahonda ko'rmadim, ey ko'zi Cho'lponim mening.

Nozu istig'no bila kelib meni holimni so'r,  
Termulub doim yo'lungda chashmi giryonim<sup>3</sup> mening.

Tobakay<sup>4</sup> jabru sitam aylab yurursan, ey rafiq,  
Chiqdi, Mashrab, ushbu g'amdin bu aziz jonim mening.



---

<sup>1</sup>Tiyr a – qorong'i zulmat; <sup>2</sup>m ul k d a – mamlakatda; <sup>3</sup>g i r y o n – yig'loqi;  
<sup>4</sup>t o b a k a y – qachongacha.

\* \* \*

Oxirimni dardu g'amga oshno qildi bu dard,  
Yig'lamay naylayki, ro'zimni siyo<sup>1</sup> qildi bu dard.

Kiyibon egnima qon yig'layki motamlik libos,  
Ne dilovarlarni<sup>2</sup> yer ichra fano qildi bu dard.

Baxt qarolig' mundin o'tmas — tole'im bo'ldi zabun<sup>3</sup>,  
Men vafo qildim tama<sup>4</sup>, qaytib jafu qildi bu dard.

Yog'durub boshimga har soat lahadning gardini,  
Notavonu g'amzada<sup>5</sup>, baxti qaro qildi bu dard.

Hamnafaslardin judo aylab musibat shahrida,  
Oshnolarni manga nooshno qildi bu dard.

Qayg'uluk boshimga har dam ko'hi<sup>6</sup> g'amni ortturub,  
Misli Adhamdek jahondin mosuvo<sup>7</sup> qildi bu dard.

Ichkanim zahroba bo'ldi, kiyganim bo'ldi kafan,  
Boshima to'qquz falakni osiyo<sup>8</sup> qildi bu dard.

G'ussadin o'rtandi Mashrab, so'rmading ahvolini,  
Do'stu dushmanga mani angushtnamo<sup>9</sup> qildi bu dard.

<sup>1</sup>Siyo — qora; <sup>2</sup>dilovarlarni — bahodirlarni; <sup>3</sup>zabun — zaif; <sup>4</sup>tama' —  
umid; <sup>5</sup>g'amzada — g'am adoyi tamom qilgan; <sup>6</sup>ko'hi — tog'i; <sup>7</sup>mosuvo —  
hamma narsadan mahrum; <sup>8</sup>osiyo — tegirmon; <sup>9</sup>angushtnamo — barmoq  
bilan ko'rsatiladigan, ta'naga uchragan.



\* \* \*

Bir boqib menga qaro ko'z uchidin jonon qiz,  
Aylanib, yuz o'gurub qildi yurakni qon qiz.

Kunda ming dard o'qini otti hazin jonimg'a,  
Birig'a aylamadi lablaridin darmon qiz.

Yuziga parda tutub sham' uza fonus kabi,  
Yuz tuman zuhd elini ayladi sargardon qiz.

Zolimu qotilu xunxor erur, beshafqat,  
Bori ag'yorimni oldida bo'lur xo'bon qiz.

Ishqida ohim o'ti uchqunidur oy ila kun,  
Kim degay bu sharari<sup>1</sup> ko'zlaridur Cho'lpon qiz.

Bu falak xoni<sup>2</sup> uza qilma gumon axtar<sup>3</sup> deb,  
Sadqai husniga to'ldurdi duru marjon qiz.

Kuydurur jannatu rizvon eshigin otashi ishq,  
Hurlar xizmatiga bog'ladi bel chandon qiz.

Vasl gulzori aro bulbuli nolon Mashrab,  
Shakkarin xanda ila to'tiyi Hindiston qiz.



---

<sup>1</sup>Sh a r a r – uchqun; <sup>2</sup>x o n – dasturxon; <sup>3</sup>a x t a r – yulduz.



\* \* \*

Kokuling anbar durur, jon ichida jonon qiz,  
Ko'zlaring axtar durur, yuzi mohi tobon<sup>1</sup> qiz.

Lablaring erur la'ldek, yuzlaring qizil guldek,  
Barcha sengakim quldek, xizmatiga qurbon, qiz.

Orazing ochilgan gul, sochlaring erur sunbul,  
Tishlaring misoli durr, lablaringda pinhon qiz.

Bir ko'rub seni, zolim, qolmadi mening holim,  
Tang bo'lubdur ahvolim, bilmadingki, nodon qiz.

Kokulungni o'rganda, burqa<sup>2</sup> boshga qo'yganda,  
Jonim o'rtanur tanda, oftobi davron qiz.

Oy yuzungni ko'rganda, lablaringni so'rganda,  
Mashrabiing qilur xanda, la'li shakkarafshon<sup>3</sup> qiz.



---

<sup>1</sup>T o b o n — porloq; <sup>2</sup>b u r q a<sup>1</sup> — chimmat; <sup>3</sup>sh a k k a r a f s h o n — shakarsochar.

\* \* \*

Jahonda topmadim hamdard, qoldum notavon yolg'uz,  
Saropo<sup>1</sup> g'am savodi<sup>2</sup> ichra qolmishman nihon yolg'uz,

Ko'zung yag'mo<sup>3</sup> qilur bekas<sup>4</sup> ko'ngulni, hech ajab ermas,  
Qaroqchi qo'rqutur har yerda topsa korvon yolg'uz.

Necha mendekni gardun muhtaloi dardu g'am qildi,  
Demam muncha jafoni manga qildi osmon yolg'uz.

Sening ta'rifingga har band-bandim nolalar qilmish,  
Qachon asrori ishqi ayta olg'oy har zabon<sup>5</sup> yolg'uz.

Otarlar har tarafdin sho'xlar mujgonlaridin o'q,  
Qilibturlar mening ko'ksumni har yondin nishon yolg'uz.

Bu kun, do'stlar, matoi sabru oromimni oldurdum,  
Qilolmas hizf<sup>6</sup> mahzun bo'lsa roviy doston yolg'uz.

Men, ey Mashrab, sening ko'yung sorig'a bormag'im mushkul,  
Ne bo'lg'ay gar o'zung kulbamg'a kelsang mehmon yolg'uz.



<sup>1</sup>S a r o p o — boshdan-oyoq; <sup>2</sup>s a v o d i — zulmati; <sup>3</sup>y a g' m o — talon-  
toroj; <sup>4</sup>b e k a s — kimsasiz; <sup>5</sup>z a b o n — til; <sup>6</sup>h i z f — yod olmoq.

\* \* \*

Barchalar yondi<sup>1</sup> gunohdin, menki yonmasman hanuz,  
Xobi g'aflatdin uyondi, men uyonmasman hanuz.

Tavbai tavfiq bilan yig'lab turarlar zor-zor,  
Oxirat a'molin aytib men qutulmasman hanuz.

Bandalarkim, lutfinga har dam suyanib o'lturur,  
Bedavo nafsinni izlab men suyanmasman hanuz.

Orifu sodiq hama pandu nasihat oldilar,  
Barcha panding oldilar, pandingni olmasman hanuz.

Bandalik qilsang takabbur qilma, shayton fe'lidur,  
Men takabburdin zamone xoliy ermasman hanuz.

Bandalik qilmay Azozil bo'ldi sarkash<sup>2</sup> amriga,  
Rondai<sup>3</sup> dargoh bo'ldi, menki yonmasman hanuz.

Dunyoni ko'p yig'di Qorun ketti ul yer qa'rig'a,  
Dunyodin bir dam zamon ko'ngul uzolmasman hanuz.

Banda bo'lsang, Mashrabo, kechkil havoyi hirsdin,  
Kechdi barcha hirsdin, hargiz kecholmasman hanuz.



<sup>1</sup>Yo n d i — qaytdi; <sup>2</sup>s a r k a sh — bosh tortmoq; <sup>3</sup>r o n d a — quvilgan, rad etilgan.



\* \* \*

Men nechuk yurgum bu g'urbatxonada dildorsiz,  
Umr emas oshiqqa gar bir lahza bo'lsa yorsiz.

Mehnatu rohatga «xo»<sup>1</sup> qilgan kishilardin so'rang,  
Hech ilme siynaga jo bo'lmadi takrorsiz.

Darbadar bo'ldum, jahonni ko'p tamosho ayladim,  
Hech gulni ko'rmadim olamda bo'lgay xorsiz.

Ko'ngul oldurigan kishilardin biling dil rozini,  
Buki — har kim ko'ngul oldi ul emas ozorsiz.

Kavlama bag'rimni, ko'nglumni parishon aylama,  
Telmurub qoldi ko'zum yo'lida ul diydorsiz.

Munda o'rtanغان ko'ngul oxir yetar maqsudig'a,  
Hech bulbul bo'lmag'ay olam aro gulzorsiz.

Kimyoni tolibi bo'lgan kishi jondin kechar,  
Hech ganje<sup>2</sup> ko'rmadim olamda bo'lgay morsiz<sup>3</sup>.

Uchramay keti o'shal mahvashga<sup>4</sup> rozi dil desam,  
Topmadim dildorimi yolg'uz dame ag'yorsiz.

Mashrabo, vaqti nadomatdur birodarlar qani?  
Istiqomat qilma dunyoda pariruxsorsiz.



<sup>1</sup>X o' — o'rgangan, odatlangan; <sup>2</sup>g a n j — xazina; <sup>3</sup>m o r s i z — ilonsiz;  
<sup>4</sup>m a h v a s h g a — oyday go'zalga.



\* \* \*

Jafo qilding bu jonimg'a, vafoni ko'rmadim hargiz,  
Bu olamda o'zumdek muhtaloni ko'rmadim hargiz.

Muhabbat yo'liga qo'ydum qadam, holim zabun<sup>1</sup> bo'ldi,  
Ba g'ayr az mehnatu<sup>2</sup> dardu baloni ko'rmadim hargiz.

Tabibo, muddate bo'ldiki, men dardiga hamdamman,  
Uzuldi rishtai<sup>3</sup> jonim, davoni ko'rmadim hargiz.

Hama suratparast bo'ldi fashu dastorig'a<sup>4</sup> mag'rur  
Ki, zohid ichra mutlaq beriyoni ko'rmadim hargiz.

Musibat selining barbodi bo'ldum ko'hna dunyoda,  
Qo'lumni tutgudek bir oshnoni ko'rmadim hargiz.

Yetushdi bastalik koring'a, bilmamdur ilojini,  
Talab vaqtida bir sohibduoni ko'rmadim hargiz.

Yozildi taxtai iqbolima sardaftari g'urbat,  
Adashgan yerda so'rgan rahnamoni ko'rmadim hargiz.

Jarohatli dilimning zaxmini har kimga ko'rsattim,  
Ajab tole' zabundurman, shifoni ko'rmadim hargiz.

Buzulgan xotirim hargiz jahonda ko'rmadi shodi<sup>5</sup>,  
Jahon ayvonida g'ayr az jafoni ko'rmadim hargiz.

Jahonni tark qildim, Mashrabo Ibrohim Adhamdek,  
Saropo dard ko'rdum, muddaoni ko'rmadim hargiz.

---

<sup>1</sup>Z a b u n — xarob; <sup>2</sup>b a g' a y r a z m e h n a t — mashaqqatdan o'zga;  
<sup>3</sup>r i s h t a — ip; <sup>4</sup>d a s t o r — salla; <sup>5</sup>s h o d i — shodlik.



\* \* \*

Ko'rundi ko'z qarosiga magar xayli<sup>1</sup> parizode,  
Shafaq tutti jahonni, keldi yo bir qaddi shamshode.

Charog'on bo'ldi dunyo yo magar keldi mening yorim, —  
Biyobon bo'ldi bog'u bo'stoni xurramobode<sup>2</sup>.

Hujumi g'am qilib barbod keldi bir nasimi xush,  
Magar ozoda yorim, do'stlar, ishq qildi bunyode.

Agar ul shohi xoqon qatlima lashkar chekib kelsa,  
Yurokim chok etib aylay ani oldida ham dode.

Bahoriston bo'ldi, rang-barang gullar bo'lub paydo,  
Xazon etmak uchun, do'stlar, iloho, kelmagay bode<sup>3</sup>.

Necha yillar yotibmen qor, yomg'ur ostida g'am yeb,  
Parizodim, malikam qilmadi lekin meni yode.

Arig'<sup>4</sup> yo'lg'a o'zingni olki, Mashrab, o'tti umrung, lek,  
Murodu maqsadig'a yetmagay hargiz xarobotiy<sup>5</sup>.



<sup>1</sup>Xayli — guruh; <sup>2</sup>xurramobod — gurkirab yashnagan;  
<sup>3</sup>bod — shamol; <sup>4</sup>arig' — toza, to'g'ri, pok; <sup>5</sup>xarobotiy — so'fiy.

---

\* \* \*

Ming sho'ru fig'on birla, hay-hay, ne balo keldi,  
Jon qichquradur qo'y deb, xanjarni olo keldi.

Qo'lig'a olib fo'lod, qoshimg'a kelur jallod,  
Qildi meni bebunyod, tig'i guzaro<sup>1</sup> keldi.

Ketsam bu alam birlan, yuz kohishi g'am birlan,  
Savg'oi sanam birlan, xush davri safo keldi.

Rozi bo'loyin o'lsam, jon bergucha bir ko'rsam,  
Mundog' ne balo birlan shiddatli qazo keldi.

Zahmatga qazo yondosh, bo'ldi hammasi yo'ldosh,  
Ul javru jafu podosh<sup>2</sup>, tiklab yuguro keldi.

Devonai Mashrabsan, qo'rqub nega yig'larsan,  
Oshiq kishiga o'lmoq ayni muddao keldi.



---

<sup>1</sup>G u z a r o — o'tkir, keskir; <sup>2</sup> p o d o s h — jazo, mukofot, evaz.

\* \* \*

Kecha bazmingdin yiroq ishq ahli chandon yig'ladi,  
Kuydi ham parvona, ham sham'i shabiston<sup>1</sup> yig'ladi.

Sog'inib Yusufni Ya'qub yig'ladi shomu sahar,  
To musofir bo'ldi Yusuf ahli Kan'on yig'ladi.

Soqiyo, sun bir surohiy<sup>2</sup>, dam-badam faryod etib,  
Ahli majlis oldida yosh o'rnig'a qon yig'ladi.

Hajr shomi kuyganimg'a kuydi, o'rtandi chu barq<sup>3</sup>,  
Ham meni dardi dilimg'a charxi gardon<sup>4</sup> yig'ladi.

Har tikan g'am dashtida sanchib ayog'im qildi chok,  
Menga yor rahm aylamas, xori mug'ilon<sup>5</sup> yig'ladi.

Bo'lmasun ogah kishi holi dilimdin xalq aro,  
Garchi kuldi og'zimiz, ammo dilu jon yig'ladi.

Mashrabo, gar jon yaqosin chok-chok etsam, ne ayb  
Kim, falak jabridin ul sarvi xiromon yig'ladi.



---

<sup>1</sup>Shabiston — yotoqxona; <sup>2</sup>surohiy — qadah; <sup>3</sup>barq — yashin;  
<sup>4</sup>gardon — aylanuvchi; <sup>5</sup>mug'ilon — tikanakli daraxt, akatsiya.

\* \* \*

Tushti ishqing, ey pari, aqlimni hayron ayladi,  
Hajring o'ti kuydurub, bag'rimni biron<sup>1</sup> ayladi.

Ey nigoro, orzuyi orazing vasling tilab,  
G'unchadek la'ling g'ami ashkim to'la qon ayladi.

Goh-goho rahm etib, bandang sari qilg'il nazar,  
Oshiqing jondin kechib, o'zini qurbon ayladi.

Doimo ishqingda yig'larman sening, ey nozanin,  
Gar bugun kim yig'lar ersa, tongla xandon ayladi.

Qatrayi vahdat<sup>2</sup> mayidin lutf ila qildi karam,  
Zavqu shavqidin berib olamda sulton ayladi.

Ey birodarlarki, mendin ofiyat<sup>3</sup> ko'z tutmangiz,  
Bir pari aqlim olib ko'yida nolon ayladi.

Soqiyi piri mug'on<sup>4</sup> sundi sharobi antahur<sup>5</sup>,  
Mosuvo<sup>6</sup> aylar hamadin — mushkil oson ayladi.

Bir masaldur — dunyoning osoyishi kofirg'amish,  
Bu jahonni oshiqig'a chohi zindon ayladi.

Xalqi olam, ey parivash, oshno bo'lg'ach senga,  
Mashrablingni boshig'a ko'p tiyrboron<sup>7</sup> ayladi.

---

<sup>1</sup>B i r y o n — qovurgan; <sup>2</sup>v a h d a t — yakka-yagonalik; olamda Oллоhdan boshqa narsa yo'qligi haqidagi tushuncha; <sup>3</sup>o f i y a t — xotirjamlik; <sup>4</sup>m u g' o n — mug'lar, otashparastlar rohibi; <sup>5</sup>a n t a h u r — pok sharob, janna' ahli ichadigan sharbat; <sup>6</sup>m o s u v o — hech narsasiz; <sup>7</sup>t i y r - b o r o n — o'q yomg'iri.



\* \* \*

Namangon shahridin, do'stlar, mening yoronlarim keldi,  
Otam birla onamni bilguchi mehmonlarim keldi.

Shijoat bobida har qaysisi bir Rustamu Suhrob,  
Adolat taxtig'a mingan bu kun sultonlarim keldi.

Inoyatli, diyonatli yana ham murshidi komil,  
Hama orif, hama sodiq, hama irfonlarim keldi.

Alarning xoki poyi ko'zlarimga to'tiyo, Mashrab,  
Charog'imni munavvar qilg'uchi xoqonlarim keldi.



\* \* \*

Men kimga aytay, do'stlarim, devona qildi ishq meni,  
Sadpora<sup>1</sup> qildi yurakim, devona qildi ishq meni.

Tun-kechalar dod aylasam, har dam seni yod aylasam,  
Ishqingda faryod aylasam, devona qildi ishq meni.

Shomu sahar giryon bo'lay, yo'lungda sargardon bo'lay,  
Oxir senga qurbon bo'lay, devona qildi ishq meni.

Hamdam bo'lay mayxonag'a, sokin bo'lay butxonag'a,  
Boshim qo'yay ostonag'a, devona qildi ishq meni.

Ishq ahlig'a hamdam bo'lay, haq yo'lig'a mahkam bo'lay,  
Dargohig'a mahram bo'lay, devona qildi ishq meni.

Devonai shaydo bo'lay, men tolibi mavlo bo'lay,  
Xalq oldida rasvo bo'lay, devona qildi ishq meni.

Mashrabga qil lufu karam, vahdat sharobin dam-badam,  
Ey sohibi Lavhu Qalam<sup>2</sup>, devona qildi ishq meni.



<sup>1</sup>S a d p o r a – yuz bo'lak; <sup>2</sup>L a v h u Q a l a m – Oллоh dargohiga yaqin manzil nomi.





\* \* \*

Bul g'ariblig' mehnati ko'nglumg'a ko'b kor ayladi,  
Qildi bag'rim poralar, jonimni afgor ayladi.

Yordi ko'ksim, ezdi bag'rim, oh, bu dardi firoq,  
O'rtadi miskin tanim, yer birla hamvor<sup>1</sup> ayladi.

Jomi g'urbatdir ichib, qildim g'ariblik ixtiyor,  
Ne jafolar jonirna ul chashmi xummor ayladi!

Telba bo'ldum, harza gardum, bilmadim nuqsonimi,  
Oqibat ishqing mani rasvoi bozor ayladi.

Har qayondin dardu g'am tegdi dili afgorima,  
Bu mani jismim da dardu g'amdin anbor ayladi.

Doimo chektim riyozat kunu tun tinmay, vale<sup>2</sup>,  
Bul taalluqdin<sup>3</sup> mani ko'nglumni bezor ayladi.

Noumid bo'lma, agarchi, osiysan, ey Mashrabo,  
Bahri rahmat osiy qullarg'a sazovor ayladi.



<sup>1</sup>H a m v o r — teng, tekis; <sup>2</sup>v a l e — biroq; <sup>3</sup>t a a l l u q — kishini dunyoga bog'laydigan narsalar: oila, mol-dunyo.



\* \* \*

Oshiq uldur to dilida saqlasa asromi,  
Barham ursa yo'lig'a olamda yo'qu borni.

To o'zungga dard tegmay, aylanib kelmas davo,  
Bas bu ma'nodin hakimlar ko'p so'rar bemorni.

Garchi osiyman aning dargohidin navmid emam<sup>1</sup>,  
Bir gul uchun suv berurlar sad hazoron<sup>2</sup> xorni.

Oxiri manzilga yetmasdur kuduratlik ko'ngul,  
Dilga jo bermoq na hojat dushmani g'addorni.

To dilingga ma'rifatdin nuri imon bo'lmasa,  
Sufiyalar, bir «hu»<sup>3</sup> g'a almashlang fashu dastorni.

Xotiri pokingni mashg'ul qilma hargiz dunyog'a.  
Dil g'uboroluda bo'ldi ul ko'rolmas yorni.

Avliyolardek muazzam<sup>4</sup> bo'layin desang, vale,  
Mashrabo, hech kanda qilma dildin istig'forni<sup>5</sup>.



---

<sup>1</sup>E m a m — noumid emasman; <sup>2</sup>s a d h a z o r o n — yuz minglab; <sup>3</sup>h u — u, ya'ni Olloh; <sup>4</sup>m u a z z a m — buyuk; <sup>5</sup>i s t i g' f o r — tavba.

---

\* \* \*

Ma'rifat bozorining devonasi,  
Bul haqiqat ishqining<sup>1</sup> mayxonasi.

Oh urub chiqsa jahonni kuydurur  
Oshiq ahlin ziynatu sarmoyasi.

Ikki dunyoni ko'zimg'a ilmadim,  
Menki ul diydorning hayronasi.

Ayladi ko'ngulning uyin xarob,  
Bul erur tan mulkining vayronasi.

Mosuvoni<sup>2</sup> tark qildim ishqida,  
Bul jahonu ul jahon begonasi.

Mashrabi devonani hayron etib,  
Qaddi mavzun<sup>3</sup>, egma qoshing qorasi.



---

<sup>1</sup>H a q i q a t i s h q i — insonning Ollohga bo'lgan ishq; <sup>2</sup>m o s u v o — narsa, lash-lush; <sup>3</sup>m a v z u n — xushbichim.



\* \* \*

Oq yuzungda xolu xat ko'z ko'rmag'aydi koshki,  
Ko'ngluma yuz dog'i g'amni qo'ymag'aydi koshki.

Ishq bir oh aylagach, ketti futur din uyidin,  
Bodani beg'ash' ko'rubon sunmag'aydi koshki.

Chun Namangan shahridin parvoz aylab murg'i ruh,  
Donai xolin ko'rubon qo'nmag'aydi koshki.

Yor jilva birla boqti, ruhu jon bo'ldi kabob,  
Ushbu hodisni boshimg'a solmag'aydi koshki.

Ayriliqning dardidin jonim kuyadur yo magar,  
Dog'i hasratdin bu jonim kuymag'aydi koshki.

Koshki jonimni olsa, dog'i hasrat qo'ymasa,  
Ushbu dog'i ayrilig'ni ko'rmag'aydi koshki.

Mashrabo, yor xizmatini ayla jonu dil bila,  
Ushbu davron ham g'animat o'lmag'aydi koshki.



---

'B e g' a sh — quyqasiz, sof.

---

\* \* \*

Nogoh ko'runub ko'zlari shahlo boqa qoldi,  
Parda ko'tarib, qoshini ul dam qoqa qoldi.

Oshiq ekanimni bilibon dilbari ra'no,  
Aqlimni olib, jonima o'tlar yoqa qoldi.

Ruhum eritib yoshini<sup>1</sup>, vah-vah, yuzi otash,  
Ishq chaqmoqini jonima ul dam chaqa qoldi.

Tarsobachani ko'rdumu din ketti qo'lumdin,  
Qil sajda debon bo'ynuma zunnor toqa qoldi.

Men oni uchun kechayu kunduz yugururman,  
Yorim kelibon birgina holim so'ra qoldi.

Aydi: «Ne tilarsan?» Dedim men:  
«Sham'i jamoling!»  
Ko'rsatti yuzin, maqsud hosil eta qoldi.

Mashrab yurubon olam aro topmadi maqsud,  
Yuz shukrki, oning bila ulfat bo'la qoldi.



---

<sup>1</sup>Y o s h i n - yashin.



\* \* \*

Ey sanam, hajring o'tig'a diyda<sup>1</sup> giryon<sup>2</sup> bo'lg'usi,  
Ko'rmasam bir dam yuzungni tarki imon bo'lg'usi.

Mardumoni<sup>3</sup> ko'zlaring bir kofiri berahm erur,  
Garchi kofirni ko'rub tarso musulmon bo'lg'usi.

Gar chiqib har yong'a boqsang yor zulfingni tarab,  
Sham' o'lub kuygan ko'ngul bir dam parishon bo'lg'usi.

Qomatingni ko'rsalar mahsharda gar insu malak,  
Huru g'ilmonlar «Bu kim» deb barcha hayron bo'lg'usi.

Qatrai suv tomsa gar sho'rida ko'zdin, Mashrabo,  
Tashnalik vaqtida boqsang rohati jon bo'lg'usi.



---

<sup>1</sup>D i y d a — ko'z; <sup>2</sup>g i r y o n — yig'loqi; <sup>3</sup>m a r d u m o n i — qorachig'lari.



\* \* \*

Meni davron bu kun dardu alamg'a muftalo qildi, —  
Jafojo' nozaninlar birla yoru oshno qildi.

«Alif»dek «jon» arosida niholi qomatin asrab,  
G'amidin oqibat qaddimni «nun» yanglig' duto<sup>1</sup> qildi.

Birodar, sen bukun mendin umidi ofiyat qilma,  
Yurak-bag'rim eqib ko'zdin, ajal yuzini vo<sup>2</sup> qildi.

Kishiga aytayolmay boshga tushgan tab'i holimni,  
Bu hasrat bora-tora o'zini bag'ringa jo qildi.

Bu holimg'a tarahhum qilg'udek bir mehribonim yo'q,  
Meni bechora qildi, zor qildi, benavo qildi.

Bu beshafqat falak soldi mening boshimg'a savdolar,  
Chu andin neki keldi — bori taqdiri xudo qildi.

Xaloyiq duni<sup>3</sup> bo'lsam ham jahon ichra g'animatman,  
Bu kun yo tongla ayturlarki, Mashrab ham qazo qildi.



<sup>1</sup>D u t o — bukilgan; <sup>2</sup>v o — ochdi; <sup>3</sup>d u n i — tuban.



\* \* \*

Kel, ey dilbar, yuzung ochg'il, tasadduqdur bu jon emdi,  
Firoqing o'tig'a kuydum, kuyar bu ustuxon emdi.

Nechuk aylay, ayo do'stlar, bo'lubman zoru sargardon,  
Davosiz dardga uchrabman, o'larman begumon emdi.

Jahonda hech kishi bormu judolig'din xarob bo'lg'on,  
Yetibdur halquma jonim, menga yo'q mehribon emdi.

Tushubdur ko'ngluma darding, kima aytay, kima yig'lay,  
Lahad ichra ketar bo'ldum, yurokim to'la qon emdi.

Ketibon mehribon dilbar yurak-bag'rim kabob etti,  
Yetolmasman nigoringa, qilay ko'ksun nishon emdi.

Kel, ey Mashrab, judolig'din nega muncha xarob bo'ldung,  
Yetubdur senga bu navbat, ketar yaxshi-yomon emdi.





\* \* \*

Kimga aytib yig'layin nozuk adoning dardini,  
Xonavayron aylagan nooshning dardini.

Dilni berdim anga men g'ayr az jafoni<sup>1</sup> ko'rmadim,  
Aytib-aytib yig'layin ul bevafoining dardini.

Umrum oxir bo'ldi yetmay domanini<sup>2</sup> gardig'a,  
Kimga aytib, kimga yig'lay dilraboning dardini.

Darbadar avvoraman, kuydi dilim axgar<sup>3</sup> sifat,  
Baxti qaro yaxshi bilur baxti qaroning dardini.

Osmon besar<sup>4</sup> bo'lur aytsam alamlik doston,  
Har kishiga ayta bilmam rahnamoning dardini.

Dashtu sahrolar kuyar Majnunning tortgan ohiga,  
Besarupolar bilur sohib azoning<sup>5</sup> dardini.

Norasolarg'a suxan<sup>6</sup> qilmoq xatodur, Mashrabo,  
Bilsa har kim choryori bosafoning dardini.



<sup>1</sup>G'ayr az jafoni — jafodan o'zгани; <sup>2</sup>doman — etak;  
<sup>3</sup>axgar — cho'g'; <sup>4</sup>besar — notinch; <sup>5</sup>sohib azo — azali; <sup>6</sup>suxan — so'z.

---

\* \* \*

Kel, ey dilbar, bayon aylay senga bir-bir judolig'ni  
Ki shoyad rahm etib solsang o'zungga oshnolig'ni.

Tamomi xonumonimdin kechibon bir seni derman,  
O'zungdin o'zga bilmaydur, o'zung bilg'il fidolig'ni.

Chu sendin o'zgani demam, qasam Olloh: qabul etg'il,  
Ki zulmung manga aylab, o'zgaga berg'il safolig'ni.

Sulaymon taxti-yu Jamshidning jomig'a bermasman,  
Qo'lumga kosai cho'bin olib qilsam gadolig'ni.

Ayo, ey toshyurak bedil, jafajo', zulmgar, bedod,  
Nigoro, kimdin o'rganding muningdek bevafolig'ni?

Sen, ey zohid, nasihatni borib mehrob aro aytg'il,  
Jahonda ko'rmadim hargiz kishi sendek riyolig'ni.

Zalolatpeshalig'ni ahli dunlar sendin o'rgangay,  
Munofiq badaslik ham tama'gir ro'siyolig'ni.

Riyo toat qilib, kunduzlari o'zni debon murshid,  
Kechadan tong qadar qilg'ung o'zungdek yuz qarolig'ni.

Ayo Mashrab, — dedi zohid, — gunohing behisob ermish,  
Agar avj aylasa Sattor<sup>1</sup> kechar sonsiz gunolig'ni.



---

<sup>1</sup>S a t t o r — ayblarni berkituvchi; Olloh.



\* \* \*

Bu tani xokiyniyu ruhi ravonni na qilay?!  
Bo'lmasa qoshimda jonona<sup>1</sup>, bu jonni na qilay?!

Yorsiz ham bodasiz Makkaga bormoq ne kerak?!  
Ibrohimdin qolg'on ul eski do'konni na qilay?!

Urayinmu boshima sakkiz bihishtu do'zaxin?!  
Bo'lmasa vasli menga ikki jahonni na qilay?!

Zarra nuri quyoshdek bu jahon ichra tamom  
Oshkoro bo'lmasa, sirri nihonni na qilay?!

Arshning kungurasin ustig'a qo'y dum oyog'im,  
Lomakondin joy olibman — bu makonni na qilay?!

Bir Xudodin o'zgasi barcha g'alatdur, Mashrabo,  
Gul agar bo'lmasa qo'lumda tikonni na qilay?!



---

<sup>1</sup> J o n o n a — O'lo'oh (sufiy istilohida shunday talqin qilinadi).



\* \* \*

Dilbar ko'yida «Vashshamsu» «vazzuho»<sup>1</sup> o'quy,  
Maqbul bo'lsa hamdinga «lahni ulo» o'quy.

Majnunsifat firoq dashtida zor yig'ladim,  
Dardu g'aming, Laylivashim, laylu<sup>2</sup> nahor<sup>3</sup> o'quy.

Qoshu ko'zungni hajrida, ey mehri<sup>4</sup> mohjabin<sup>5</sup>,  
Ashkim suvini oqizib fayzi bahor o'quy.

Shavqi muhabbatingda kezib Balx shahrini,  
Xatti shahidlikni ko'rub oshkor o'quy.

Firoq qissasi Mashrab fikrida erur,  
Mastona Balx shahrida beixtiyor o'quy.



---

<sup>1</sup> «V a s h s h a m s u» «v a z z u h o» — «Qur'on»dagi oyatlarga ishora;  
<sup>2</sup> l a y l i — tun, kecha; <sup>3</sup> n a h o r — tong; <sup>4</sup> m e h r — quyosh; <sup>5</sup> m o h j a b i n —  
oymanglay.



\* \* \*

Murodingga yetay desang qalandar bo'l, qalandar bo'l,  
Sitam ahlin yutay desang, qalandar bo'l, qalandar bo'l.

Og'izdin dur sochay desang, sharobi ishq ichay desang,  
Yomonlardin qochay desang, qalandar bo'l, qalandar bo'l.

Fasod ahlin quvay desang, ketiga bir uray desang,  
Bu dargohdin suray desang, qalandar bo'l, qalandar bo'l.

Riyozatsiz bo'lay desang, tanim ozod yuray desang,  
Jahonni sayr etay desang, qalandar bo'l, qalandar bo'l.

Razolat kuyduray desang, zalolat o'lduray desang,  
Hammasin supuray desang, qalandar bo'l, qalandar bo'l.

Bu taqvodin kechay desang, xonaqohdin qochay desang,  
Haqiqatni yechay desang, qalandar bo'l, qalandar bo'l.

Guharrezlik qilay desang, hammani kulduray desang,  
Bu Mashrabdek bo'lay desang, qalandar bo'l, qalandar bo'l.





\* \* \*

Yorni ko'yida men javlon qilay,  
Itlarini sonida afg'on qilay.

Koshki, bu kulbai ahzon<sup>1</sup> aro  
Itlarini bir kuni mehmon qilay.

Yor qilg'on zaxm bitmas, ey tabib,  
Dema menga dardinga darmon qilay.

Oqizib ko'zdan sirishkim beaded,  
Xaymai aflokni<sup>2</sup> vayron qilay.

Kes boshimni xanjari nozing bilan,  
Sendin o'zga kimg'a sargardon qilay?!

Zulfi mushking tasavvur aylabon,  
Bu varaqni safhai rayhon qilay.

Ishq kuydursa bu oshiq ko'nglini,  
Siyna ichra o't nechuk pinhon qilay?!

Gul yuzin ko'rsatti — o'ldurdi meni,  
Yorni jism orasinda jon qilay.

Mashrabo, bir qatra totdim jomi may,  
O'zimi ishq ahlig'a sulton qilay.



<sup>1</sup>Kulbai ahzon — g'amxona; <sup>2</sup>xaymai aflok — falak chodiri.

\* \* \*

Onqadar<sup>1</sup> nurga to'libman osmonga sig'madim,  
Toqi Arshu Kursiyu Lavhu jinonga sig'madim.

Kimga soyam tushsa bir nuri yaqin bo'ldi u ham,  
Daftari ruhi qudsdurman, zabonga sig'madim.

Jannatu kavsar manam, ham do'zaxu saqar<sup>2</sup> manam,  
Bir o'zumdurman bu dam, haft<sup>3</sup> osmonga sig'madim.

Soyai Odamg'a<sup>4</sup> keldim, nuri ma'ni izladim,  
Jannat ul-firdavsdek oliy makonga sig'madim.

Bor edim Nuh vaqtida, g'arq etmadi to'foni ham,  
Hamrahi Muso bo'lub Turi Sinonga sig'madim.

Ellik yil Iso bilan yurdum o'lukni tirguzub,  
Boisi bir nuktadin<sup>5</sup> Mashrab zamonga sig'madim.



---

<sup>1</sup>O n q a d a r – shunchalik; <sup>2</sup>s a q a r – do'zaxning bir qismi;  
<sup>3</sup>h a f t – yetti; <sup>4</sup>O d a m – Odam Ato; <sup>5</sup>n u k t a d i n – fikriy kashfiyot (shoir  
«anal-haq»ni nazarda tutgan).



\* \* \*

Bu olamda o'zumdek siynasi afgor topmadim  
Ki, rozim aytg'ali bir mahrami asror<sup>1</sup> topmadim.

Firoq dashtida tashna yurub zoru sargardon,  
Labing zilolidin bir paymonai sarshor<sup>2</sup> topmadim.

Ki, ishqi g'aming meni oxir yurokim ayladi sad<sup>3</sup> chok,  
Visol zavqini bir lahzaye, bir bor topmadim.

Tamomi rozi dilim demakka izladim mahram.  
Bu dashti Xo'tan kezibon bir dili hushyor topmadim.

Biyobon bulbulidek, Mashrabo, hech yo'qtur oromim,  
Qo'nay desam chamanda bir guli bexor topmadim.



---

<sup>1</sup>M a h r a m i a s r o r – sirdosh; <sup>2</sup>p a y m o n a i s a r s h o r – limmo-  
lim qadah; <sup>3</sup>s a d – yuz (miqdor).





\* \* \*

Qalandar Mashrabingman, ikki olamni tepib o'ttum,  
Bihishtu huru g'ilmoning puchak pulg'a sotib o'ttum.

Na aylay obi kavsarni nigorim bo'lmasa soqiy,  
Xarobot ichra bordum, qatra may ondin totib o'ttum.

Ayo do'zax, meni kuydur, xaloyiq kuymasun hargiz!  
Tamug'din<sup>1</sup> ishq o'ti purzo'r<sup>2</sup>, aning zahrin yutib o'ttum.

Ki jon olg'uchini ko'rdum, dedim: «Olg'il bu jonimni»  
Ajal qochdi, urub-quvlab men oni qo'rqitib o'ttum.

Solib bozori ishqingga matoi jismu jonimni,  
Xaridor so'rmadi hargiz bu jonimdin kechib o'ttum.

Visol ayyomi bo'lg'onda, ko'rung, baxti siyohimni,  
Boshimg'a kelsa yorim — men yotib uxlab, bo'kib o'ttum.

Kuyub o'tg'on meni — devona Mashrabni so'rar bo'lsang,  
Na yerda ahli dard topdim, ko'zum yoshin sepib o'ttum.



<sup>1</sup>T a m u g' d i n — do'zaxdan; <sup>2</sup>p u r z o' r — kuchli.

\* \* \*

Ishq vodisidin bir kecha men hay-halab o'ttum,  
Zuhhod<sup>1</sup> elini mamlakatini talab o'ttum.

Ottim fashu misvokni<sup>2</sup> devonalig' aylab,  
Parvona sifat jonimi o'tqa qalab o'ttum.

Dunyo yasanib jilva qilib oldima keldi,  
«Borg'il nari» deb, ketig'a bir shattalab o'ttum.

Ofoqni<sup>3</sup> bir lahzada kezdim, na ajabdur,  
Mino tog'idin hakka sifat hakkalab o'ttum.

Ko'rdimki vafosi yo'q ekan ushbu jahonni,  
Mindim ajal otini men qamchilab o'ttum.

Bildimki oni dushmani makkorai ayyor,  
Lo<sup>4</sup> tirnog'i birla yuzini tirmalab o'ttum.

Mardoni xudo deydiki: «Dunyo mayi achchig'»,  
Achchig'lig'ini bilmak uchun bir yalab o'ttum.

Nafs kofiri birla tunu kun tinmay urushdum,  
Tanho qilichi birla urub qiymalab o'ttum.

Xomush pichoqini oni bo'ynig'a qo'ydim,  
Cho'g' nayzasi birla ko'zini nayzalab o'ttum.

Devonai Mashrab, bu so'zung dardga davodur,  
Oshiq elini ko'nglig'a bir o't qalab o'ttum.

---

<sup>1</sup>Z u h h o d — zohidlar; <sup>2</sup>m i s v o k — tish tozalagich;  
<sup>3</sup>o f o q — jahon; <sup>4</sup>l o — yo'q.

\* \* \*

Jamoling ko'rgali keldim, ayo, ey mehribon onam,  
Mening uchun ado bo'lg'an yuragu bag'ri qon, onam.

Xo'tan dashtiga tushtum bul falakning gardishi birlan,  
Eshitkil arzi holimni, men aytay senga, jon onam.

Ajoyib mehribonimsan, meni oromi jonimsan,  
Murodi du<sup>1</sup> jahonimsan, bihishti jovidon<sup>2</sup>, onam.

Meni bir jodu ko'zluk bul jahon ichra xarob etti,  
Qadi sarvu sanavbar, qoshlari misli kamon, onam.

Boshimga tushti bul savdo, bo'lubman bulbuli shaydo,  
Shabistoni jahonda qumridek shakkarfishon, onam.

Bu ishq o'ti xarob etti, yurak-bag'rim kabob etti,  
Meni xoku turob<sup>3</sup> etti, yuzi mohi tobon<sup>4</sup>, onam.

Seni ko'p intizor ettim firoq o'tiga, ey Ka'bam,  
Tavofi Ka'bai maqsuda keldim dilkashon, onam.

Iloho, afv qilg'aysan, bu Mashrabning gunohini,  
Tufayli onai zorim, g'aribu notavon, onam.



<sup>1</sup>D u — ikki; <sup>2</sup>j o v i d o n — abadiy; <sup>3</sup>t u r o b — chang. gard, to'zon;  
<sup>4</sup>t o b o n — porloq oy.

---

\* \* \*

Ishq o'tiga o'rtanib devona bo'lgan o'zginam,  
Kuya-kuya kul bo'lub biryona<sup>1</sup> bo'lgan o'zginam.

Oshiqi diydorman, ey yor, bilmassan magar,  
Mansuri Hallojdek dorga osilgan o'zginam.

Kuya-kuya kul bo'lub dunyodin o'tkan bormukin,  
Ishq yo'lida ming o'lub, ming bor tirilgan o'zginam.

Chok siynamni qilib mahsharda aylarman fig'on,  
Ul kuni diydor deb mahsharni buzgan o'zginam.

Ul sirot ul-mustaqim<sup>2</sup> oldida barcha yig'lashur,  
Ishqim rahbar qilibon andin o'tkan o'zginam.



---

<sup>1</sup>Biryona — qovurilgan; <sup>2</sup>sirot ul-mustaqim — sirot ko'prigi.



\* \* \*

O'shal kun senga, ey sho'xi sitamgar, oshno bo'ldum,  
Jamolingni ko'ray deb, orzu birlan ado bo'ldum.

Ba bozori muhabbat gavhari qimmatbaho erdim,  
Raqiblar oldida misli sadafdek kambaho bo'ldum.

Qalandarvor hajringda navoyu nolalar qildim,  
Sening dardi g'amingdin, ey pari paykar, ado bo'ldum.

O'shal kun sanga paymon ayladim, ey sho'xi beparvo,  
Tamomi hamnishinu hamnafaslardin judo bo'ldum.

Muhabbat o'ti kuydurdi yurak-bag'rimni, ey Mashrab,  
Kuyub kul bo'ldi jismim, nest bo'ldum, zeri po' bo'ldum.



\* \* \*

Tomosha aylamakka go'shayedin anjuman keldim,  
Surudi<sup>1</sup> bulbuli sho'ridadek<sup>2</sup> so'i chaman keldim.

Agar Ya'qubdek qon yig'lasam, ayb aylamang zinhor,  
Firoqi dardi Yusufni chekib baytul hazan<sup>3</sup> keldim.

Shahidoni Xo'tanni tavg' etarga, ey musulmonlar,  
Chu lola domani sahro tutub dashti Xo'tan keldim.

Jahon shayxu kibori, olimu, muftiyu qozisi—  
Hama kom topti dunyoda, barahna, bewatan keldim.

Qadah maxmuridurman to'ldurub kelturg'il, ey soqiy,  
Sharobi qirmizi no'sh etgali xushki dahan<sup>4</sup> keldim.

Mayi vahdat to'la berg'il mani Mashrabg'a, ey soqiy,  
Sivo mulkida<sup>5</sup> sayde manki, gulgun pirahan keldim.



<sup>1</sup>S u r u d — qo'shiq; <sup>2</sup>sh o' r i d a d e k — chirqirayotgan; <sup>3</sup>h a z a n — g'amxona; <sup>4</sup>x u s h k i d a h a n — quruq og'iz; <sup>5</sup>s i v o m u l k i d a — o'zga yurtda.

\* \* \*

To olami zohirg'a kelib man guzar ettim,  
Tark ayladimu jumlanı qat'i nazar<sup>1</sup> ettim.

Ahvoli dilim aytg'ali bir mahrame<sup>2</sup> topmay,  
Zulmingni qarindoshu g'amingni padar ettim.

Bir qushki cho'loq sen sori parvoz etayin deb,  
Hajr o'qlarini jonga suqub bolu par<sup>3</sup> ettim.

Dushmanga chu harb etmak uchun chora topolmay,  
Do'stum qo'lini tuttimu tig'u tabar<sup>4</sup> ettim.

G'am shomida qalbing'a guzor etti xayoling,  
Ko'z yosh, yurak qoni bilan mohazar<sup>5</sup> ettim.

Savdoi sari zulfung uchun necha mahaldur,  
Jon kishvarini buzdimu zeru zabar<sup>6</sup> ettim.

Bir martabada turmas emish shoh ila darvesh,  
Bas, jandani kiydim, o'zimi darbadar ettim.

Ko'tah nazar el bilmasa deb xasta bu Mashrab,  
Ming ma'nini bir nukta<sup>7</sup> bila muxtasar<sup>8</sup> ettim.



<sup>1</sup>Q a t' i n a z a r — nazardan soqit qilmoq; <sup>2</sup>m a h r a m — sirdosh;  
<sup>3</sup>b o l u p a r — pat va qanot; <sup>4</sup>t a b a r — bolta; <sup>5</sup>m o h a z a r — tayyor yegulik;  
<sup>6</sup>z a b a r — ostin-ustun; <sup>7</sup>n u k t a — muhim fikr; <sup>8</sup>m u x t a s a r — qisqa.

\* \* \*

Yetti, daryog'a qo'shuldi obi chashmi<sup>1</sup> himmatim,  
Necha Majnug'a sabaq berdi dilimda hayratim.

Domanipdin<sup>2</sup> tortti, dunyoni ko'rung duni<sup>3</sup> dag'al,  
Varna arshning ustida erdi kamoli minnatim.

Xuni g'arq birla ado qildim, base, Mansurman,  
Ohi sardim<sup>4</sup> bo'ldi savmim<sup>5</sup>, ham fig'onim-toatim.

Garchi zohir xushk<sup>6</sup> xoku bebizoatman<sup>7</sup> bukun,  
Musoyu Isoni davronig'a bordur nisbatim.

Ey safobaxsh, nafsi fir'avning'a bir shamshir ur,  
Toki hamrohi Muso bo'lsun meni bu xislatim.

Umr azal dorul baqo<sup>8</sup>, dayri fanog'a<sup>9</sup> turg'ali,  
Loladek bir soati yo'qdur mening hech fursatim.

Pokbozam, xoriji dunyou uqbodin judo,  
Suvratim garchi bashar keldi, malakdur siyratim.

Necha Mansur o'ldi irshodmand<sup>10</sup> muhabbat yo'lida,  
Menga ham dori qurulg'onda yetar bu qismatim.

Hech bilolmayman o'zumni qaysi qavmiyman bukun,  
Lekin arsh ustida Jibrildur mening hamsuhbatim.

Mashrabo, oxir senga yuz ming biyobon tay urub<sup>11</sup>,  
Bo'lmadi bir pashshai log'archa<sup>12</sup> aknun<sup>13</sup> xizmatim.

<sup>1</sup>O b i c h a s h m i — ko'z yosh; <sup>2</sup>d o m a n i m d i n — etagimdan; <sup>3</sup>d u n j i — pastkash; <sup>4</sup>s a r d — sovuq; <sup>5</sup>s a v m i m — ro'zam; <sup>6</sup>x u s h k — quruq; <sup>7</sup>b e b i z o a t — boylaksiz; <sup>8</sup>d o r u l b a q o — u dunyo; <sup>9</sup>d a y r i f a n o — bu dunyo; <sup>10</sup>i r s h o d m a n d — to'g'ri yo'l ko'rsatuvchi pir; <sup>11</sup>t a y u r u b — yo'l bosib; <sup>12</sup>l o g ' a r c h a — kichkina; <sup>13</sup>a k n u n — endi.





\* \* \*

Yaraydur menga hijron ilkidin faryodlar qilsam,  
Borib Haq oldida dasti falakdin dodlar qilsam.

Agarchi dodirna yetsa chaqibon ishq chaqmoqin,  
Falakning uyiga o'tlar qo'yub barbodlar qilsam.

Meni bir dam xalos et, ey birodar, g'ussayu g'amdin,  
Oning yodi bilan har dam ko'ngulni shodlar qilsam.

Mening holim agar ishq ahli ko'rsa, zor yig'laydur,  
Agar dardu g'amimdin zarraye bunyodlar qilsam.

O'shalkim g'arqi daryoi muhabbat birla Mashrabman,  
Dilu jonim bilan har dam agar faryodlar qilsam.



\* \* \*

O'shal ro'zeki<sup>1</sup> men sendin judolig' birla zor ettim,  
Chiqib sahrog'a Majnunlig' shiorin oshkor ettim.

Qaro qilsa falak baxtim bila bul ro'zgorimni,  
Sening dardu g'aming siynam ichinda e'tibor ettim.

Men aftodayu bedil<sup>2</sup>, g'aribi dog'i hijronman,  
O'zulg'a ofarin derman, seni ko'rmay qaror ettim.

Mening, jono, g'amingdin o'zga hech kim – munisim yo'qdur,  
Kim aylar iltifote – men diyoringga guzor ettim.

O'yulsun ko'z jamolingdin digar yuzga nigoh etsa,  
Kuyub qolsun yurak-bag'rimki, sendin o'zga yor ettim.

Jamoling sog'inib ko'zlarda zarra nur qolg'on yo'q,  
Ajab yo'q, zor qolg'on kiprikimni ashkbor<sup>3</sup> ettim.

Erurman oshiqing, xalqi jahon derlar meni Mashrab,  
Nechukkim, manzilimni soyai parvardigor ettim.



<sup>1</sup>R o' z – kun; <sup>2</sup>b e d i l – maftun, shaydo; <sup>3</sup>a s h k b o r – ko'z yoshi yog'diradigan.



\* \* \*

Setorim torig'a jon rishtasidin<sup>1</sup> tor eshib cholsam,  
Aning xush nolasidin bevafoining ko'nglini olsam.

Maqom olib maqom uzra maqomin dilg'a jo qilsam,  
Muhabbat sozig'a sozlab men oning oldida cholsam.

Maqomlarning atosini «Husayniy» u «Ajam» derlar,  
Bulardin ham yuqori pardaida «Chorgoh» cholsam.

«Bayod» dilbarimni yodida cholsam payopaykim<sup>2</sup>  
Ki, ko'ngul benavo bo'lg'onidin aylab «Navo» cholsam.

Arolab cholsam «Ushshoq»u<sup>3</sup> g'azal<sup>4</sup>i soza yetkursam,  
Saharlarda qo'pub mashshoqlardin purziyo cholsam.

Kel, ey Mashrab, qadah sung'il, bo'loyin mast-mustag'raq,  
Bir ilkg'a<sup>4</sup> kosai tanbur, birig'a jomni olsam.



---

<sup>1</sup>R i s h t a — ip; <sup>2</sup>p a y o p a y — izma-iz; tinimsiz; <sup>3</sup>u s h s h o q — oshiqlar; <sup>4</sup>i l k — qo'l.



\* \* \*

Men erdim bulbuli go'yo<sup>1</sup>, fig'on birla chaman keldim,  
Yurakda dard ko'pdur, guluzori yosuman keldim.

Mening oshufta<sup>2</sup> ko'nglum g'unchadek hargiz ochilmaydur,  
Yurakdin g'am ketar deb, bu sababdin men Xo'tan keldim.

Yurakdin oh tortar barcha toliblar ham armonda,  
Muyassar bo'lmadi maqsud, yana qaytib vatan keldim.

Bu Mashrab so'zini durdonayi qimmatbaho derlar,  
Jamii xalq aro so'z bobida sohib suxan<sup>3</sup> keldim.



<sup>1</sup>Bulbulig o'yo — gapiradigan; <sup>2</sup>oshufta — parishon; <sup>3</sup>sohib suxan — so'zamol.

\* \* \*

Bazmi sham'ingdin zamona ichra bir giryon o'zum,  
Doimo parvonadek sham' o'tig'a so'zon o'zum.

Kahrabo<sup>1</sup> ermish jahon davrida afg'on aylagan,  
Chun faloxun<sup>2</sup> doimo sargashtai davron o'zum.

Shohlik birla gadolik, bil, barobardur manga,  
Gohi hajringda gado, vaslingda goh sulton o'zum.

Chin aro ko'rgach xadangi<sup>3</sup> novaki<sup>4</sup> qosh yosini,  
Siynachok o'lg'on shahidi tiyri<sup>5</sup> bepaykon<sup>6</sup> o'zum.

Dargahi vasling tilab, ayb etma, afg'on aylasam,  
Mashrabi sargashtai g'amdidai<sup>7</sup> hijron o'zum.



<sup>1</sup>K a h r a b o — sariq tosh, «kahrabo» — aynan; somon tortar.  
<sup>2</sup>f a l o x u n — palaxmon; <sup>3</sup>x a d a n g i — kamon o'qi; <sup>4</sup>n o v a k i — kamonning  
kichik o'qi; <sup>5</sup>t i y r — o'q; <sup>6</sup>b e p a y k o n — uchida temir parchasisiz; <sup>7</sup>g' a m-  
d i d a — g'am ko'rgan.



\* \* \*

Angla bu soʻzni, ey sanam, oshiqi muddao oʻzum  
Asli dilida dardi koʻp, dunyoda bedavo oʻzum.

Elni sazoyi qilmagʻil, yolgʻuz oʻzumni aylagil,  
Yurdumu koʻrdum hamani, dunyoda purgunoh<sup>1</sup> oʻzum.

Dunyogʻa barcha maxluqing bir kelibon bir ketadur,  
Kunda meni ming oʻldurur, purshoʻru<sup>2</sup> purjafo oʻzum.

Zohid eliga fosiqu gumrahu osiy, purgunoh,  
Haqning qoshida martabam – ummati Mustafo oʻzum.

Oshiq erursan, ey rafiq, qoʻrqmaki joning vahmidin,  
Qilsa madad oʻzi, vale, dardima ham shifo oʻzum.

Qatrai may toturmasang ol bu jonimni, ey sanam,  
Sensiz bu dunyo ichida oʻlmakima rizo oʻzum.

Parda koʻtargil, ey sanam, rozi dilimni aytayin,  
Barcha oshiqlar oldida avvali dodxoh oʻzum.

Yostonib eshikin pirim, soldi bozori koʻyiga,  
Soʻrmading bu nechuk faqir Mashrabi xokipo<sup>3</sup> oʻzum.



<sup>1</sup>P u r g u n o h – gunohi koʻp; <sup>2</sup>p u r s h oʻ r – sergʻovgʻa;  
<sup>3</sup>x o k i p o – oyoq osti tuprogʻi.



\* \* \*

Dunyoga kelib loyiga bilmay bota qoldim,  
Darmon yo'qidin zahri balosin yuta qoldim.

Ko'rdum men oni dushmani ruhu tan ekandur,  
Lo<sup>1</sup> o'qi bilan ikki ko'ziga ota qoldim.

Mayxonaga kirdim, bila qoldim kuyarimni,  
Masjidga kirib zohidi yaxdek qota qoldim.

Zohid, menga bir shishada may, senga — namozing,  
Ming taqvini<sup>2</sup> bir kosai mayga sota qoldim.

Vahdat<sup>3</sup> mayini piri mug'on<sup>4</sup> ilgidin ichtim,  
Mansur kabi boshimi dorg'a tuta qoldim.

To telbalig'im shuhrati olamni tutubdur,  
Bir jilvasig'a ikki jahondin o'ta qoldim.

Ayb etmangiz bu Mashrabi bexudni yoronlar,  
Naylayki, bu g'urbat ko'chasin o'ta qoldim.



---

<sup>1</sup>L o — yo'q; <sup>2</sup>t a q v i — xudojo'ylik; <sup>3</sup>v a h d a t — Oллоhning yagonaligi haqidagi ta'limot; <sup>4</sup>p i r i m u g' o n — otashparastlar rohibi (ramziy: pir).



\* \* \*

Meni devona qildi ul pari raftor qomat ham,  
Bu kun kelmam o'zumg'a, balki, fardoi' qiyomat ham.

Mening holi tabohimni<sup>2</sup> muhabbat ahli ko'rganda,  
Pushaymonlar qilib ishqdin, yana aylar nadomat<sup>3</sup> ham.

Meni g'am birla o'ldurdung firoqing o'tig'a tashlab,  
Ne bo'lg'ay emdi men o'lsam, chun sen bo'lg'il salomat ham.

Ayo, dilbar, raqibim ul haramg'a aylama mahram,  
Mening holimg'a rahm aylab, karam qilg'il, karomat ham.

So'romas, Mashrabo, hech kim seni, ore, ajab ermas,  
Yuzumni bosti bori<sup>4</sup> mehnatu gardi malomat ham.



<sup>1</sup>F a r d o — tongla; <sup>2</sup>t a b o h — ayanchli; <sup>3</sup>n a d o m a t — afsus;  
<sup>4</sup>b o r i — yuki.





\* \* \*

Suzuk ko'z luk, sarig' sadbarg<sup>1</sup> yuzungni, dilrabo, ko'rsam,  
Yuzungdin yuz o'gurmasman, agar yuz ming balo ko'rsam.

Meni oshiqu ma'shuq derlar ushbu olamda,  
Nasib o'lmish menga davlat firoqing o'tida kuysam.

Chunonam ko'ngli qattiqsan, biram holimni so'rmassan,  
Jamolingga to'yolmasman boshingdin yuz ming o'rgulsam.

Nechuk bedodlig<sup>2</sup> ish o'ldikim, men sendin judo bo'ldum,  
Jafolarniki men tortib, na mushkildur qarab qolsam.

Sadafsiz durr, tikansiz gul, mashaqqatsiz hunar yo'qdur,  
Toparmanmu visolingni jahonni istabon yursam?

Labing la'lu xating<sup>3</sup> Xizru yuzung monandi Yusufdur,  
Zulayxodek kuyub-yonib bu ishq ichra ado bo'lsam.

O'shal Majnuni shaydodek biyobonlar aro men ham,  
Ko'yingda dam-badam yonib, «Qani Laylo?» — deb oh ursam.

Kel, ey Mashrab, ko'zung yo'llarda qoldi termulub, naylay,  
Qani ul xoki poying ko'zlarimg'a to'tiyo qilsam.



<sup>1</sup>S a d b a r g — atirgul; <sup>2</sup>b e d o d l i g' — adolatsizlik; <sup>3</sup>l a b i n g l a' l u x a t i n g — lab uzra mayin tuklar.



\* \* \*

Bataqdiri xudo birla o'shal yorimni men ko'rsam,  
Latofat bog'ida bitgan qizil norimni<sup>1</sup> men ko'rsam.

Yuzidin nurlar tomg'ay o'shal xurshidi tobonning<sup>2</sup>,  
Tilarman ushbu olamda vafodorumni men ko'rsam.

Jamoli oydek to'lg'on, meni devonalar qilg'on,  
Ki, ul aqlu hushum olg'onki, dildorumni men ko'rsam.

Gah qayg'u boshg'a soldurg'on, ko'ngulni g'amg'a to'ldurg'on,  
Gah nozi birla o'ldurg'onki, ayyorumni men ko'rsam.

Chu Mashrab aytur: «Ey yoron, ko'zum yo'llardadur giryon,  
Buzug' ko'nglumni bir so'rg'on xaridorimni men ko'rsam».



---

<sup>1</sup>N o r – anor; <sup>2</sup>t o b o n – porloq.

\* \* \*

Shohi jahonim, ishqingda o'ldum,  
Oromi jonim, ishqingda o'ldum.

Muncha jafoni kimdin o'rganding,  
Ey nuktadonim<sup>1</sup>, ishqingda o'ldum.

To qoba qavsayn<sup>2</sup> sharhi qoshingdur,  
Abru<sup>3</sup> kamonim, ishqingda o'ldum.

Qaqnug'a o'xshab nola qilurman,  
O'rtandi jonim, ishqingda o'ldum.

Bir rahm qilg'il, holimni so'rg'il,  
Nomehribonim, ishqingda o'ldum.

Yorim, senga men chokar<sup>4</sup> bo'loyin,  
Sohibqironim, ishqingda o'ldum.

Mashrabga bir boq, jon labga yetti,  
Ruhi ravonim<sup>5</sup>, ishqingda o'ldum.



---

<sup>1</sup>N u k t a d o n — oqila; <sup>2</sup>q a v s a y n — ikki yoy orasi;  
<sup>3</sup>a b r u — qosh; <sup>4</sup>ch o k a r — xizmatkor; <sup>5</sup>r u h i r a v o n i m — jonim.

---

\* \* \*

Seni ko'rdum hama elni unuttum,  
Jahon lazzatidin ko'nglum sovuttum.

Senga berdim dilu jonimni ul dam,  
Bihishti jovidon<sup>1</sup> tarkini tuttum.

Visolingda labingdin el may ichti,  
Firoqing birla men xunoba<sup>2</sup> yuttum.

Ne qattiq kun edi, ey rohati jon,  
Seningdek ofati jong'a yo'luqtum.

Kecha-kunduz mudom andisha qildim,  
Sening misling yo'q ekonin o'quttum.

Tanimsan ham aziz jonim erursan,  
Izing har yerdadur — yuzumni surttum.

Qabul qil, xoh qilma, hasratingdin  
Kezib cho'llarni so'ngokim churuttum.

G'aming — ko'nglumga, fikring — jonima qut,  
Hayot istab xayoling zahrin yuttum.

Tilimda yo dilimda o'zga kim bor?!  
Qasamyod ayladim o'zga quruttum!

---

<sup>1</sup>Jovidon — mangulik; <sup>2</sup>xunoba — zardob.

Gahi vasling visoli bo'lmag'anda  
Xayoling birla ko'nglumni ovuttum.

Seni ham ko'rmagan, ham topmagan so'ng,  
G'aming birla ikovlon go'sha tuttum.

Qachon ko'rdum qizil guldek yuzungni,  
Vujudim kuydurub kulin sovurttum.

O'tun yanglig' kuyub ishqing o'tida,  
Adam bo'ldum, borin bahridin o'ttum.

Bu Mashrabg'a chu ishqing jovidondur,  
Kechani ishq-la kunduzdek yoruttum.





\* \* \*

Ishqing o'tig'a kuyg'oli keldim,  
Oydek yuzungni ko'rg'oli keldim.

Savdoi zulfung tushdi boshimg'a,  
Sendin davosin so'rg'oli keldim.

Bahringga kirdim g'avvos bo'lay deb,  
Bir durri maqsud olg'oli keldim.

Ey gul'uzorim, oy yuzli yorim,  
Mahvi jamoling bo'lg'oli keldim.

Qofila' ketti, manzilg'a yetti,  
Men ham taraddud ko'rg'oli keldim.

Soqiy, qadahni qilg'il muhayyo,  
Vahdat mayidin ichg'oli keldim.

Rahmat eshigin Mashrabg'a ochg'il,  
Ishqing ko'yida o'lg'oli keldim.



---

'Q o f i l a - karvon.



\* \* \*

Sening vaslingni, ey jonon, meni afgor sog'indim,  
Shabi<sup>1</sup> hijronda qoldim, partavi<sup>2</sup> diydor sog'indim.

Xazon toroj aylab bag'rimi pomoli<sup>3</sup> g'am qildi,  
Bahor bo'stonidek dilbar, guli ruxsor sog'indim.

O'lar holatdaman, boshim sori qilg'il qadam ranja<sup>4</sup>  
Ki, diydoring qiyomat qolmasun, zinhor sog'indim.

Kechalar uyqu yo'q, kunduz xayoloting bila o'tti,  
Baqalbi botinu zohirda ham bedor sog'indim.

Ko'ngulda yo'q edi sendin judolik, lek naylarman,  
Muqaddar<sup>5</sup> ilkidin bo'ldi bu ish nochor, sog'indim.

Shajarlar<sup>6</sup> xoma<sup>7</sup>, daryolar siyohu yeru ko'k sahfa,  
Raqam qilsam ado bo'lmas g'aming, bisyor sog'indim.

Qulung Mashrabni, jonon, shafqat ila bir so'rab kelg'il  
Ki, sen murshidi komil, mahrami asror<sup>8</sup>, sog'indim.



<sup>1</sup>Sh a b - kechasi; <sup>2</sup>p a r t a v - yolqin; <sup>3</sup>p o m o l - oyoqosti;  
<sup>4</sup>q a d a m r a n j a - kelmoq; <sup>5</sup>m u q a d d a r - qismat; <sup>6</sup>sh a j a r l a r - daraxt  
shoxlari; <sup>7</sup>x o m a - qalam; <sup>8</sup>m a h r a m i a s r o r - sirdosh.



\* \* \*

Jonon, yuzingni ko'rgoli keldim,  
Shakkar labingdin so'rgoli keldim.

O'ttek tutoshib yondi yurokim,  
Kuya-kuya kul bo'lgoli keldim.

Ey mohi tobon<sup>1</sup>, lutfu karam qil,  
Oydek yuzingni ko'rgoli keldim.

Sham'i jamoling parvona qildi,  
O'tg'a o'zumni urgoli keldim.

Pardani ochg'il, ey guluzorim,  
Rozi dilimni ochgoli keldim.

Ey to'rai<sup>2</sup> husn, bandang<sup>3</sup> bo'loyin,  
Eshigingga qul bo'lg'oli keldim.

Mashrabg'a tegdi kosai davron,  
Besh kun jahonda ichkoli keldim.



---

<sup>1</sup>M o h i t o b o n — porloq oy; <sup>2</sup>t o' r a — shahzoda; <sup>3</sup>b a n d a — qul;



\* \* \*

Nogoh ko'rubon mahvi jamoling bo'la qoldim,  
Oydek yuzungga boqdimu hayron bo'la qoldim.

O'tdek tutashib kuydi yurogim bila jonim,  
Parvona bo'lub o'tqa o'zumni ura qoldim.

Yuz g'amza bila chiqdi sanam maykadasidin<sup>1</sup>,  
Bir g'amzasig'a<sup>2</sup> din bila imon sota qoldim.

Ko'rdumki, ajab ishvagaru dilbari tannoz,  
Devona bo'lub ishqida o'tdek yona qoldim.

Diydori jamolini ko'rub ishqiy yo'lida,  
Gulgun yonibon mahvi tamosho bo'la qoldim.

Hojat emas ul Ka'bayu butxonag'a bormoq,  
Men gavhari maqsud bo'layin deb yona qoldim.

Mashrab boshig'a tushdi o'shal kun g'ami dildor,  
Shaydoyi bo'lub jumla havasdin qola qoldim.



<sup>1</sup>Ma y k a d a — mayxona; <sup>2</sup>g'a m z a — ko'z suzish.



\* \* \*

Ko'rdum yuzungni devona bo'ldum.  
Aqlu hushumdin begona bo'ldum.

Tortib jafodar o'lsam ko'yingda,  
Qaytmasman hargiz — mardona bo'ldum.

Bo'lub jahonda rasvoi olam,  
Yaxshi-yamong'a afsona bo'ldum.

Kavsar sharobi yoding'a kelmas,  
La'li labingdin mastona bo'ldum.

Yumdum ko'zumni sendin bo'lakdin,  
Kechdim baridin, rindona bo'ldum.

Ko'rdum tushumda sham'i jamoling,  
Charx urub ondin parvona bo'ldum.

Ishqing mayiga to'ldi bu jismim,  
Ham soqiyu ham paymona<sup>1</sup> bo'ldum.

Bir qatra erdim cho'mdum dengizga,  
Kirdim sadafga durdona bo'ldum.

Kuydurmasa o't, bo'lmas yag'och cho'g',  
Ishq o'ti birlan hamxona bo'ldum.

---

<sup>1</sup> P a y m o n a — qadah.

Bo'ldum fano men tufrog<sup>1</sup> ichinda,  
Bir dona erdim ming dona bo'ldum.

Ul yuz o'tida bud<sup>1</sup> bo'ldi nobud<sup>2</sup>,  
Jon jong'a kirdi, jonona bo'ldum.

Tegdi ko'zungdin har damda ming tiyr<sup>3</sup>,  
Avval edim dasht, gulxona bo'ldum.

Bir necha yildur yordin judoman,  
Bilmay o'zumni devona bo'ldum.

Kuymas, dedilar, ma'murai<sup>4</sup> ganj,  
Obod edim men, vayrona bo'ldum.

Mashrabga may sun mayxona ichra,  
Masjidga kirmay mastona bo'ldum.



---

<sup>1</sup>B u d — bor, mavjud; <sup>2</sup>n o b u d — yo'q; <sup>3</sup>t i y r — o'q; <sup>4</sup>m a' m u r a — obodonlik.



\* \* \*

Dunyo sorig'a bir kelibon g'amzada<sup>1</sup> kettim,  
Bir lahza dam olmay, turubon lahzada kettim.

Bir mushfiqi hamroz jahon ichra topolmay,  
Hasrat o'tidin kuydumu motamzada kettim.

Surtmay bu qaro yuzni o'shal ravzada<sup>2</sup> bir yo'l,  
Yuz hasratu motam bila mehnatzada kettim.

Har jon kelaru ketgusidur, bilsam oni ham,  
Armonda yurub, lek, buzug' kulbada ketdim.

Horis<sup>3</sup> bo'lubon dunyoda yurdi necha gumroh,  
Uryon<sup>4</sup> kelibon munda yana arbada<sup>5</sup> kettim.

G'ofil kishilar kechayu kunduz tilagay mol,  
Dunyo dedimu oxiratimni sota kettim.

Yorini xayol ayladi Mashrab, ko'zin ochdi,  
Yuz dardu alam birlaki mehnatzada kettim.



---

<sup>1</sup>G' a m z a d a – g'am adoyi tamom qilgan; <sup>2</sup>r a v z a – qutlug' qabr, maqbara; <sup>3</sup>h o r i s – ochko'z; <sup>4</sup>u r y o n – yalang'och; <sup>5</sup>a r b a d a – yupun.

\* \* \*

Dunyoni pushtipo<sup>1</sup> urub Adhami benavo o'zum,  
Avji falakda yurugon kavkabi<sup>2</sup> purziyo<sup>3</sup> o'zum.

Banda – umam<sup>4</sup>. Umam o'zum, na minnat o'zgin taqi,  
Yo'qtur tabiba hojatim – dardima ham davu o'zum.

Men tilabon diydorini ko'hi Tur uzra dam-badam,  
Musolayin aso<sup>5</sup> olib tunqotori<sup>6</sup> xudo o'zum.

Kufr ila din mazhabida hech kima yo'qtur nisbatim,  
Ham sanamu, ham oshiqu, ham shohu, ham gado o'zum.

Majnuni benavo demang, laylu<sup>7</sup> nahor<sup>8</sup> bo'zlasam,  
Laylisini so'rog'lagan Majnuni benavo o'zum.

Huru bihishtu kavsaring – ko'zima bir qurug' rabot,  
Vaslinga yo'l topay desam, rahravu<sup>9</sup> rahnamo o'zum.

Asli nasabim so'rasang bir qora qulni o'g'liman,  
Bahri muhabbat ichida gavhari bebaho o'zum.

Mashrabi Mahdiy aytadur olami bevafo aro,  
Bir buti bebada<sup>10</sup> uchun oshiqi muftalo o'zum.

---

<sup>1</sup>P u s h t i p o – tepki; <sup>2</sup>k a v k a b – yulduz; <sup>3</sup>p u r z i y o – sernur;  
<sup>4</sup>u m a m – ummat; <sup>5</sup>a s o – hassa; <sup>6</sup>t u n q o t o r – tungi soqchi;  
<sup>7</sup>l a y l i – kecha; <sup>8</sup>n a h o r – tong; <sup>9</sup>r a h r a v – yo'lchi; <sup>10</sup>b u t i b e b a d a l –  
milsiz sanam.



\* \* \*

Gulshanu bog'i dahr aro bulbuli nag'magar o'zum,  
Bir buti xushxirom<sup>1</sup> uchun oshiqi darbadar o'zum.

Ko'yungga, ey sanam, borib navhayu<sup>2</sup> nolalar qilib,  
Shomu sahar fig'on qilib, hofizi xushasar o'zum.

Yo shahi mehribonmusan, yo mahi osmonmusan,  
Yer bila o'tni kuydurub kavkabayu qamar o'zum.

Jomi mayi luob<sup>3</sup> ichib, Majnuni benavo bo'lub,  
Nozu karashmalar qilib, Laylii ishvagar o'zum.

Sham'i jamoling o'rtadi jonu dilimni, ey sanam,  
Bolu parimni<sup>4</sup> kuydurub, bedilli navhagar<sup>5</sup> o'zum.

Vaslingni istab, ey sanam, kechayu kunduzi mudom,  
Yor dedi saharda top, doiyai<sup>6</sup> sahar o'zum.

Xisravi komron<sup>7</sup> bo'lub, Rustami Doston bo'lub,  
Bir zo'r pahlavon bo'lub, Hamzai raxnagar<sup>8</sup> o'zum.

Olimi nuktadon manam, piri hidoyaxon<sup>9</sup> manam,  
Shuhrati she'r bobida Mashrabi mo'tabar o'zum.



<sup>1</sup>B u t i x u s h x i r o m — chiroyli yuruvchi sanam; <sup>2</sup>n a v h a — yig'i;  
<sup>3</sup>m a y i l u o b — og'iz suvi; <sup>4</sup>b o l u p a r — qanot va pat; <sup>5</sup>n a v h a g a r —  
yig'loqi shaydo; <sup>6</sup>d o i y a — umid, istak; <sup>7</sup>k o m r o n — baxtiyor shoh;  
<sup>8</sup>r a x n a g a r — saf buzuvchi; <sup>9</sup>h i d o y a x o n — to'g'ri yo'lga yo'llovchi.



\* \* \*

Qiyomatdur, agar, jonoki, men sendin judo bo'lsam,  
Xush ul davlat erur menga firoqingdin ado bo'lsam.

Muhabbat o'tig'a, jono, yurogim tah-batah qondur,  
Nechuk ohu navo aylay azaldin benavo bo'lsam,

Yurogu bag'rim o'rtandi seni dardu firoqingdin,  
Nechuk yuz qaytaroyin men azaldin oshno bo'lsam.

Chu qumri sarv uchun yig'lab, fido aylab bu jonimni,  
Tamomi xonumonimdin kechib kul<sup>1</sup> mosivo<sup>2</sup> bo'lsam.

Hama ushshoqi<sup>3</sup> sodiqni seni ishqing xarob aylar,  
Qabul etgil, ayo dilbar, ko'yingda bir gado bo'lsam.

Falakning javridin, do'stlar, nechuk men shikva<sup>4</sup> aylarman,  
Netay, naylay, azal kundinki men baxti qaro bo'lsam.

Nega dodimg'a yetmaysan, mening holimni so'rmaysan,  
Firoqingda ado bo'lgan bu Mashrab, dodxoh<sup>5</sup> bo'lsam.



---

<sup>1</sup>K u l – butku; <sup>2</sup>m o s i v o – hech vaqosiz; <sup>3</sup>u s h s h o q – oshiqlar;  
<sup>4</sup>s h i k v a – shikoyat; <sup>5</sup>d o d x o h – adolat talab qiluvchi.



\* \* \*

Zebo sanamim yo'l uza ko'rgach tura qoldim,  
Nazzorasidin mahv bo'lubon o'ltura qoldim.

Sayyora sifat kecha tong otg'uncha yugurdum,  
Yuz shukrki, oydek yuzini bir ko'ra qoldim.

G'am tog'ida Farhod sifat emgonur<sup>1</sup> erdim,  
Boshimg'a qazo<sup>2</sup> teshasi tegdi — yota qoldim.

To bazmi visolingga tegolguncha raqiblar,  
Bolu parimi<sup>3</sup> yuldumu men telmura qoldim.

Majlisdagi sham'ni ko'rubon oldig'a borib,  
Parvona masal<sup>4</sup> o't ichig'a ham kuya qoldim.

Shirin labidin bersa menga va'dai xush deb,  
Jon naqdini ilkima<sup>5</sup> olibon bora qoldim.

May tutti gah ag'yor, goh ul sho'xi sitamgar,  
Darhol qo'pub may qo'lidin ham ola qoldim.

May to'la qilib, mug'bacha, Mashrabg'a beringlar,  
Bir g'amzai mijgon bila jonim bera qoldim.



<sup>1</sup>E m g o n u r — mashaqqat chekmoq; <sup>2</sup>q a z o — qismat; <sup>3</sup>b o l u p a r — qanot va pat; <sup>4</sup>m a s a l — kabi; <sup>5</sup>i l k i m a — qo'limga.



\* \* \*

Ayo dilbar, sani ko'rgach, base, man muftalo bo'ldum,  
Sening ko'yingda, ey barno, giriftori balo bo'ldum.

Xadangi<sup>1</sup> novaki<sup>2</sup> mujgonlaring<sup>3</sup> har dam tegib o'tdi,  
Qizil qonimg'a bulg'onib, shahidi Karbalo bo'ldum.

Hayotim orazingga sarf qildim, bilmading ammo,  
Seni deb men hamisha dinu dunyodin sivo<sup>4</sup> bo'ldum.

Meningdek oshiqi dilxastaye hech bo'lmasun, yo Rab,  
Nachuk ko'ngul uzay sendin, azaldin oshno bo'ldum.

Nisori<sup>5</sup> maqdaming<sup>6</sup> ko'yungga boshimni fido qildim  
Ki, tig'i xanjaring tegdiyu jonimdin judo bo'ldum.

Yururman justujo<sup>7</sup> aylab kecha-kunduz firoqingda,  
Visolingdin xabar topmay eshiklarda gado bo'ldim.

Bu Mashrabga tarahhum<sup>8</sup> aylagil, ey dilbari zebo,  
Firoqu hasratingda, bas, g'aribu benavo bo'ldum.



<sup>1</sup>Xadangi — kamon o'qi; <sup>2</sup>novak — kichik o'q; <sup>3</sup>mujgonlar —  
kipriklar; <sup>4</sup>sivo — mahrum; <sup>5</sup>nisori — sochqi; <sup>6</sup>maqdami — qadam;  
<sup>7</sup>justujo — izlay-izlay; <sup>8</sup>tarahhum — rahm.



\* \* \*

Qildi menga bir jilvaye nogoh boqa qoldim,  
Ul jilvaga din ila dunyo sota qoldim.

Ma'shuq dedi: «Bovar<sup>1</sup> emas menga bu ishqing»,  
G'ayrat<sup>2</sup> tig'i birla yuragimni chopa qoldim.

Arz<sup>3</sup> ustidan ul Arshg'acha shahbozini<sup>4</sup> ko'rgach,  
Tan shahrida ul jon qushidek talpina qoldim.

G'am tog'ini Farhod sifat emganur<sup>5</sup> erdim,  
Boshimg'a qazo<sup>6</sup> teshasi tegdi, yota qoldim.

Mashrab, yo'lida turfa parishon yurur erdi,  
Ul maqsudimni ko'rgali nogoh boqa qoldim.



---

<sup>1</sup>B o v a r – ishonch; <sup>2</sup>g' a y r a t – rashk; <sup>3</sup>a r z – yer; <sup>4</sup>sh a h b o z – lochin;  
<sup>5</sup>e m g a n u r – mashaqqat chekmoq; <sup>6</sup>q a z o – qismat.



\* \* \*

Dunyoga kelib ranju<sup>1</sup> baloni ko'rub o'ttum,  
Yuz ranju balo shiddatidin o'rgulub o'ttum.

Dunyoga ko'ngul bersa kishi bo'lg'usi rasvo,  
Bu foniy<sup>2</sup> jahon mulkiga shatto<sup>3</sup> urub o'ttum.

Bildim men aning dushmani qotil ekanini,  
Mardona bo'lub belga etak qisturub o'ttum.

Jon olg'usi Azroil emasdur o'zi, bilg'il,  
Nechunki men oni bila ulfat bo'lub o'ttum.

Mashrab, seni deb ushbu jahondin ko'ngul uzdi,  
Devona bo'lub ondin eshokim surub o'ttum.



---

<sup>1</sup>R a n j — mashaqqat; <sup>2</sup>f o n i y — o'tkinchi. bebaqo; <sup>3</sup>sh a t t o — tepki.

\* \* \*

Netgum, sanamo<sup>1</sup>, ishqing o'tida vatan ettim,  
Har tori mo'yim sham' kabi shu'lazan<sup>2</sup> ettim.

Qon yig'ladi ko'z, qoldi tanim qon orasinda,  
Har qatrani tan tog'ida la'li Yaman ettim.

Jon tog'ini g'am teshasi birlan qazadurman,  
O'lguncha xayolingni uyub Ko'hkan<sup>3</sup> ettim.

Jannat tilamay, kavsar otin og'zima olmay,  
La'ling g'ami zahr erdiki, shahdshikan<sup>4</sup> ettim.

O'tlar tutashur gar nafas olsam, hama jong'a,  
Ishq ahlig'a o'tlug' yuragimni dahan<sup>5</sup> ettim.

Sayd o'lg'usi har kim kelur oldimg'a, qutulmas,  
Nechunki, ko'ngul shu'lasi birla rasan<sup>6</sup> ettim.

Men ayladim ul gulshani ishq ichra navolar,  
Har bulbulu to'ti edi — zog'u zag'an ettim.

Mashrab tanining zaxmlari bo'ldi gulafshon<sup>7</sup>,  
O'ldum g'ami ishqingda chu guldin kafan ettim.



<sup>1</sup>S a n a m — but, xoch; <sup>2</sup>sh u' l a z a n — shu'lanuvchi; <sup>3</sup>K o' h k a n — Farhod;  
<sup>4</sup>s h a h d s h i k a n — asaldan mazali; <sup>5</sup>d a h a n — og'iz; <sup>6</sup>r a s a n — ip, arqon;  
<sup>7</sup>g u l a f s h o n — qip-qizil.

\* \* \*

Seni ishqingda, ey dilbar, ajab devonalo bo'ldum,  
Bu olamda xaloyiqg'a, base, afsonalo bo'ldum.

Asosi saltanat birla parivashlar shahanshoi,  
Tarahhum aylagil menga, eshiklarda gado bo'ldum.

So'rog'lab vasli diydoring tamomi xalqdin so'rdum,  
Dedi: «Jo'yanda yobanda»<sup>1</sup>, topmay men ado bo'ldum.

Nigoro, xanjari nozing dilim sadporalar qildi,  
To'lub qonim yuzung ko'rmay, shahidi Karbalo bo'ldum.

«Alif»dek qomatin dilbar qilib xam<sup>2</sup> bodani so'ndi,  
O'shal maydin ichib «be» nuqtasidek zeri po<sup>3</sup> bo'ldum.

Bu Mashrab dardini, yo Rab, ki hech kim boshig'a solma,  
Duo aylang, ayo do'stlar, ki muhtoji shifo bo'ldum.



<sup>1</sup> «J o ' y a n d a y o b a n d a » — izlovchi — topag'ondir; <sup>2</sup> x a m — egik;  
<sup>3</sup> z e r i p o — oyoqosti.

---

\* \* \*

Sabr ila ham farog'atim qolmadi tanda toqatim,  
Tun-kun ila ziyodadur mehnatu dardu kulfatim.

Ohu fig'on qilib ketay, tog'u tosha boshim uray,  
Boshima ming baloyu g'am — kunda turur qiyomatim.

Zarracha qolmadi yurak, kuydiyu bo'ldi ham ado,  
Ko'zda yoshim, rangi zardim<sup>1</sup> — ushbu erur alomatim<sup>2</sup>.

Barchaga molu johini<sup>3</sup>, ne'matu mulku joyini,  
Manga beribdur ohini — ushbu turur halovatim.

Hojiyu muftini yig'ib, omiyu shayx ham murid,  
Barchasidin yuz o'gurub, ishq<sup>4</sup> erur malomatim.

Ishq emas balo ekan, mehnatu dardu oh ekan,  
Mashrabi zor-zor ekan, kun-kundin ortur ofatim.



---

<sup>1</sup>Z a r d — sariq; <sup>2</sup>a l o m a t — belgi; <sup>3</sup>j o h i — amal.



\* \* \*

Nigorim, gul'uzoringni<sup>1</sup> ko'rolmay muftalo bo'ldum,  
Sharobi la'lidin ichtim, sanamga oshno bo'ldum.

Tarahhum qil, ayo dilbar, qulingga ko'p jafu qilma,  
O'zungga oshno qilding, g'aribu benavo bo'ldum.

Yuzung guldur, mujovir ko'zlaring mastonadur jonon,  
Yurakim poralar bo'ldi, shahidi Karbalo bo'ldum.

Guhar bozorig'a kirdim, tabibi ishqdin so'rdum,  
Ki dardim'ga davo topmay, bu dardi bedavo bo'ldum.

Kel, ey dilbar, tomosho qil, bu Mashrab so'zini tahqiq<sup>2</sup>,  
Yo'lungg'a jon fido qildimki, ul dam muqtado<sup>3</sup> bo'ldum.



---

<sup>1</sup>Gul'uzoringni — yuzingni; <sup>2</sup>tahqiq — haqiqatda; <sup>3</sup>muqtado — rahbar.

\* \* \*

Dil dashtida g'am ohularig'a vatan ettim,  
G'amzang o'qi to lolalar ochti — chaman ettim.

Ishq ahli mening sori kelurg'a bu erur yo'l,  
Har yerda tarab<sup>1</sup> gullari erdi — vatan ettim.

Nayson<sup>2</sup> kabi ko'zdin yog'adur ashki<sup>3</sup> ravonim,  
Sadqangg'a yurak toshini la'li Yaman ettim.

Mehring qushi ko'nglum qushidin ajramasun deb,  
Bo'yniyu ayog'iga belimdin rasan ettim.

Jonimg'a nigohing o'qidin gullar ochilsa,  
Sayring'a ani nastaranu<sup>4</sup> yosuman<sup>5</sup> ettim.

Rasvolig' o'tin balki o'zumga yoqadurman,  
Jismimg'a samandar kabi o't pirahan<sup>6</sup> ettim.

Mashrab, bu so'zing topdi sening bo'yi shahodat<sup>7</sup>  
Qonlig' taningg'a ishq libosin kafan ettim.



---

<sup>1</sup>T a r a b — shodlik; <sup>2</sup>n a y s o n — yog'inli oy, aprel; <sup>3</sup>a s h k — ko'z yoshi;  
<sup>4</sup>n a s t a r a n — nastarin; <sup>5</sup>y o s u m a n — oq gul, jasmin;  
<sup>6</sup>p i r a h a n — ko'ylak; <sup>7</sup>s h a h o d a t — shahidlik.



---

\* \* \*

Dargohingga bir ojizu afgor kelibman,  
Arzi dilimi aytmak uchun zor kelibman.

Yo'qdur mening ilgimda senga tuhfa loyiq  
Juz zilli<sup>1</sup> gunah el ichida xor kelibman.

Rad qilma, qabul aylaki, sharmandaligimdin  
Rasvoi jahon, ko'chayu bozor kelibman.

Bozori jahon ichra kelib shahri adamdin,  
Jon naqdi bila senga xaridor kelibman.

Lutf birla karam aylayu dardimg'a davo qil,  
Darmon tilabon sohibi ozor<sup>2</sup> kelibman.

Zor ila tavallo qiladur xasta bu Mashrab,  
Och pardan: kim, tolibi diydor kelibman.



---

<sup>1</sup>Zil – soya; <sup>2</sup>sohibi ozor – aziyat chekkan.

\* \* \*

Mendin salome ba so'yi jonon,  
Ey bod<sup>1</sup>, yetkur arzi g'aribon.

Ham dardmandam, bexonumonam,  
Jono, tu budi<sup>2</sup>, dardimg'a darmon.

Harchand mohi<sup>3</sup> haj qurbon kelodur,  
Har dam qilurman jonimni qurbon.

Ey do'st, tu rafti<sup>4</sup>, to dida ro'yat<sup>5</sup>,  
Yolg'iz qolubman dar shahri hijron.

Az durii tu namonda sabram<sup>6</sup>,  
Emdi netarman taxti Sulaymon.

Bechora Mashrab kuydi g'amingdin,  
Monandi zulfat<sup>7</sup> holim parishon.



---

<sup>1</sup>B o d — yel, shamol; <sup>2</sup>t u b u d i — sen eding; <sup>3</sup>mohi — oy;  
<sup>4</sup>r a f t i — sen ketding; <sup>5</sup>d i d a r o ' y a t — yuzingni ko'rib; <sup>6</sup>a z d u r i i t u  
n a m o n d a s a b r a m — sening uzoqligingdan sabrim qolmay; <sup>7</sup>m o n a n -  
d i z u l f a t — zulfing kabi.



\* \* \*

Tinmayin yurdum bu g'am dashtida hayronliq bilan,  
Oxir umrum o'tti, sad<sup>1</sup> afsus, nodonliq bilan.

Bir guli shodim ochilmay baxt gulistoni aro,  
Hayf, umrum oqibat o'tti parishonliq bilan.

Baski, ilmi holu<sup>2</sup> qolning<sup>3</sup> yo'lida qilsang amal,  
Ushbu mullolar bari buxlu<sup>4</sup> havodorliq<sup>5</sup> bilan.

Necha mullo ilm o'qub, rohi shayotinni<sup>6</sup> topib,  
Chun riboyu rishvani<sup>7</sup> yerlar xushdorliq bilan.

Rost so'z aytsang alarg'a zarra qilmaslar qabul,  
«Kufr ayting!» — deb ururlar necha ozorliq bilan.

Mashrabo har bir so'zungdur gavhari qimmatbaho,  
Aytma bu so'zlarni har nokasg'a nodonliq bilan.



---

<sup>1</sup>S a d — yuz (100); <sup>2</sup>h o l — sufiylik ilmi; <sup>3</sup>q o l — dunyoviy ilm; <sup>4</sup>b u x l — baxillik; <sup>5</sup>h a v o d o r l i q — havoyilik, mag'rurlik; <sup>6</sup>r o h i s h a y o t i n — shayton yo'li; <sup>7</sup>r i s h v a — pora.

\* \* \*

Sanamning shavqida tinmay yurub ovvora Mashrabman,  
Ko'zi yoshlig<sup>1</sup>, qadi xamlig<sup>1</sup>, dili sadpora<sup>2</sup> Mashrabman.

Ko'ngulda zarracha dunyoning mehri bo'lmayin menda,  
Seni deb ikki olamdin kechib, bezora Mashrabman.

O'lub ketsam, sening darding so'ngaktin ketmagay aslo,  
Lahad ichra fig'on aylab, o'zum bechora Mashrabman.

Anodin qay kuni tug'dum, sening ishqingda oh urdum,  
Muhabbat dog'ida o'rtab, o'zum sayyora Mashrabman.

Muhabbat jomidin may tuttilar, ichmasga choram yo'q,  
Ko'zumdin qon yoshim tinmay oqar, xunbora<sup>3</sup> Mashrabman.

Boshing'a ming balo kelsa, tilarmen vaslin, ey zohid,  
«Boshim kessang to'yorim yo'q, degan, diydora!» Mashrabman.

Xaloyiqlar meni quvlar, yomon deb, har shahar borsam,  
Ajab mardud<sup>4</sup>, ajab mahrum, ajab sangsora<sup>5</sup> Mashrabman.

O'zumni xalq aro ixfolig'imni<sup>6</sup> hech kishi bilmas,  
Dilu jonim fido aylab, ajab ayyora Mashrabman.

Meni devona Mashrabg'a muhabbatdin bayon aylang,  
Namozu ro'zadin forig' bo'lub makkora Mashrabman.

---

<sup>1</sup>X a m l i g' — egik, bukik; <sup>2</sup>s a d p o r a — yuz parcha; <sup>3</sup>x u n b o r a — qon tomchilaydigan; <sup>4</sup>m a r d u d — rad etilgan; <sup>5</sup>s a n g s o r a — toshbo'ron qilingan; <sup>6</sup>i x f o l i g' i m n i — yashirinligimni.

\* \* \*

Takallum<sup>1</sup> aylasang gohi labi shakkarfishoningdin<sup>2</sup>,  
Tasadduq bo'lsa jonim gah boshingdin, goh oyog'ingdin.

Borursan kecha-kunduz oyu kundek har taraf yolg'iz,  
Topib bo'lmas seni bir yerda sokin o'z makoningdin.

Xiromon yo'lga pomoling bo'sun shamshod ila to'bi,  
Ayog'ing o'psunu o'rgulsun ul sarvi ravoningdin.

Biror yo'l iltifotingni tamosho aylagan oshiq,  
Qiyomat tongi otsa bosh ko'tarmas ostoningdin.

Tihidur<sup>3</sup> qo'llarim, ilkimda<sup>4</sup> zarra naqdinam yo'qtur,  
Iloho, bahravar qilg'il hayoti jovidoningdin<sup>5</sup>.

Ko'zung jon olg'ali qotil, so'zung jon bergali moyil,  
Masiho senmu, oyo, jon nasimi keldi yoningdin.

Egilmas to qiyomat no'sh qilg'on bodai la'ling,  
Shimib cheksa tili birla iyib shakkar zaboningdin.

Dilo, qat'i umiding uzma, altofig'a<sup>6</sup> ko'z tutg'il,  
Tarahhum<sup>7</sup> yo tazallum<sup>8</sup> harna kelsa mehriboningdin.

Tilar Mashrab bu kun gulg'uncha ta'bingni ochuq ko'rsa,  
Tamosho aylay-aylay o'tsa sahni gulsitoningdin.

---

<sup>1</sup>Takallum — so'zlash; <sup>2</sup>shakkarfishon — shakarsochar; <sup>3</sup>tihidur — bo'sh; <sup>4</sup>ilkimda — qo'limda; <sup>5</sup>jovidon — mangulik; <sup>6</sup>altofig'a — lutfiga; <sup>7</sup>tarahhum — rahm; <sup>8</sup>tazallum — zulm.

\* \* \*

Ey gul badanim, gul yuzunga banda<sup>1</sup> bo'loyin,  
Qurboni shakar lablari purxanda<sup>2</sup> bo'loyin.

Ruxsori<sup>3</sup> gulungdin sen agar pardani ochsang,  
Ko'nglum ochilib bulbuli nolanda<sup>4</sup> bo'loyin.

Mastona ko'zung nogah agar yodima tushsa,  
Hu-hu qushidek kechalar go'yanda<sup>5</sup> bo'loyin.

Kuydurdi meni bir boqishing, dilbari ra'no,  
Hayrat bila men oshiqi sharmanda bo'loyin.

Pardangni olib men sari gar birgina boqsang,  
Ul dam meni motamzada<sup>6</sup> dar xanda<sup>7</sup> bo'loyin.

Bul Mashrabi bechoraga har kez nazar etsang,  
Men bandai ul nargisi<sup>8</sup> purxanda bo'loyin.



<sup>1</sup>B a n d a — qul; <sup>2</sup>p u r x a n d a — ko'p kuluvchi; <sup>3</sup>r u x s o r — yuz, chehra; <sup>4</sup>n o l a n d a — noliydigan; <sup>5</sup>g o' y a n d a — so'zlovchi; ta'ziyalarda maxsus aytib yig'latuvchi kishi; <sup>6</sup>m o t a m z a d a — aza adoyi tamom qilgan; <sup>7</sup>d a r x a n d a — kulgida; <sup>8</sup>n a r g i s — ko'z.



\* \* \*

Azaldin to abad ko'nglum qutulmas ishq balosidin,  
Yurakim raxnalar bo'ldi bu ko'nglum mojarosidin.

Xayolimda seni vasling, yetolmasman men-e hayron,  
Magar vaslingga yetsam, piri komilning duosidin.

Eshit arzimni, ey dilbar, yurak-bag'rim kabob o'ldi,  
Raqiblar shodmon bo'ldi nigorimning jafosidin.

Meni sensiz bu dunyoda tiriklik qilmog'im mushkul,  
Kel, ey ko'ngul, kecholi bu tiriklikning baqosidin.

Sanam, ishqing o'ti oxir meni bexonumon etti,  
Kuyarman dam-badam tinmay bu dardi bedavosidin.

Habibing hurmati ersa, meni bu o'tg'a kuydurma,  
Qutulg'aymu meni ko'nglum bu ishqning mojarosidin.

Sening ishqing bila yig'lab agar mahshar kuni chiqsam,  
Kuyarlar mo'minu kofir bu Mashrabni navosidin.





\* \* \*

Ruhi pokim Arshg'a yetti, men o'zum osmoniman,  
Tutti olamni sharorim<sup>1</sup>, otashin so'zoniman.

Hech makonu manzilim ma'lum emasdur dunyoda,  
Men quyundek yorni ko'yida sargardoniman.

Doimo rohat tilab, mehnat<sup>2</sup> yaqomdin ushladi,  
Onadin baxti qaro keldim, oni hayroniman.

Qaysi tanni ishq<sup>3</sup> yo'q bo'lsa oning imoni yo'q,  
Har kishining dardi gar bo'lsa oni qurboniman.

Ahli dardlarga qilay zohir bu pinhon dardni,  
Bexabarlarga va lekin Nuhni to'foniman.

Hech kishi bilmas meni qaydin bu yerga kelganim,  
Asli zotimni so'rasang, men o'zum Xo'qoniman.

Na malakman, na farishta, men ham odam naslidin,  
Men tavalludi o'shal farzandi Namangoniman.

Ham mazallat xokig'a Mashrab boshin qo'ydi bukun,  
Tongla mahshar bo'lsa men ishq ahlini sultoniman.



---

<sup>1</sup>Sh a r o r i m — o'tum, olovim; <sup>2</sup>m e h n a t — azob-mashaqqat.





\* \* \*

Ey meni nozik nihol oromi jonim, qaydasan?  
Bu ko'ngul bo'stonida g'uncha dahonim, qaydasan?

Necha yillar bu ko'ngul mushtoqi diydoring erur,  
O'rgulay, ey dilbari shirin zabonim, qaydasan?

Ayrib men yordim bir necha kun bo'ldum judo,  
Axtarib keldim seni, oromi jonim, qaydasan?

Holi zorim ko'p yomondur, kelmasang bir yo'l so'rab,  
Ey meni xush mehribon, ruhi ravonim, qaydasan?

Ko'zlarim giryon bo'lub qoldim bu g'am sahrosida,  
Hasratingda chiqdi bu ohu fig'onim, qaydasan?

Tashnalabdur Mashrabin, chunkim, yurak-bag'ri kabob  
Furqatingda, ey meni sarvi ravonim, qaydasan?





\* \* \*

Qonimni to'kar ermish Balx shahrida Mahmudxon,  
Taqdiri azal bo'lsa, naylay, anga bermay jon.

Ming shukr xudoyimg'a Mansurg'a qo'shuldum men,  
Ul ro'yi siyahlarkim<sup>1</sup> Mansurni o'ldurg'on.

Bu ishq yo'lig'a kirgan, albatta kechar jondin,  
Kechmasa agar jondin, aytgan so'zidur yolg'on.

Shirin g'amida Farhod, tog'larda etib faryod,  
Ishq o'tida o'rtanib oxir chu fano bo'lg'on.

Ul oshiqi Majnun ham Layliga bo'lub shaydo,  
Cho'llarda vatan aylab ko'z yoshi ravon o'lg'on.

Ul zori Zulayxo ham Yusufga bo'lub shaydo,  
Ko'rdungmu xaloyiqg'a rasvoyi jahon bo'lg'on.

Ko'r Tohiru Zuhroni xalq ichra bo'lub mashhur,  
Ko'nglini berib yorga ishqin yo'lida o'lg'on.

Ishq o'tida o'rtangan ul Vomiqu Uzro ham,  
Mahshar kuni bo'lg'onda jannatda qilur javlon.

Ko'r oshiq eranlarni, ey Mashrabi devona,  
Kelganda ajal jomi joni bila sipqorg'on.



---

<sup>1</sup>R o' y i s i y a h l a r - y u z i q o r a l a r .

\* \* \*

O'lduroyin dermusan yo kuyduroyin dermusan?  
Yona boshimg'a balolar yog'duroyin dermusan?

Ko'zlaring jallod etib, mujgonlaring<sup>1</sup> bedod<sup>2</sup> etib,  
Kashmiri til<sup>3</sup> birla holimni so'royin dermusan?

Yuz tuman bog'i jahon yuzini bir-bir ko'rsatib,  
Ka'bai ko'yingga oxir borduroyin dermusan?

Osmondin yerga tashlab, xalq aro rasvo qilib,  
Qush kabi bolu parimni<sup>4</sup> yulduroyin dermusan?

Shohbozi<sup>5</sup> lomakon<sup>6</sup> ko'ngul qushimni ovlabon,  
Tabl<sup>7</sup> urub, dolboy<sup>8</sup> qoqibon qo'nduroyin dermusan?

Men shahidi ishqman, o'lsam kafanga chulg'amang,  
Oh, qizil qon birla qo'ynum to'lduroyin dermusan?

Mansuri Hallojdek ichib sharobi antahur<sup>9</sup>,  
Sudratib dor ostiga olib boroyin dermusan?

Sendin o'zgani agar ko'ngluma solsam, ey pari,  
Tasmadek ushbu tanimni tilduroyin dermusan?

Bu muhabbat sho'rishi<sup>10</sup> jonimdin o'tti, voy-voy,  
Ishqi yo'q bedardlarni kuyduroyin dermusan?

Bu hama dardu balolarniki soldi boshima,  
Ishq, Mashrab, jannat ichra kirdiroyin dermusan?

---

<sup>1</sup>Mujgonlaring - kipurklaring; <sup>2</sup>bedod - zulm; <sup>3</sup>kashmiri til - makkor til; <sup>4</sup>bolu par - qanot va pat; <sup>5</sup>shohboz - lochin; <sup>6</sup>lomakon - u dunyo; <sup>7</sup>tabl - nog'ora; <sup>8</sup>dolboy - ovchi qushga beriladigan et; <sup>9</sup>antahur - pok sharob, jannat ahli ichadigan sharbat; <sup>10</sup>sho'rish - jazava.

\* \* \*

Bo'lsam Majnun, biyobondin nechuk aylay suxan?  
Chashma bo'lsam menki, ummondin nechuk aylay suxan?

Yetganim yo'q rang-barang olamni bo'yi ma'nig'a,  
Bir gadodurmanki, sultondin nechuk aylay suxan?

Sad hazoron<sup>1</sup> ilm o'qub men bir alifg'a lolman<sup>2</sup>,  
Bilmasam — tafsiri «Qur'on»din nechuk aylay suxan?

Hazrati Nuh kettilar, men ayrilib qoldim, darig',  
Kishti<sup>3</sup> ko'rmabmanki, to'fondin nechuk aylay suxan?

Hazrati Odam sotibdur jannat ul firdavsni<sup>4</sup>,  
Chun yetar bir dona, rizvondin<sup>5</sup> nechuk aylay suxan?

Himmatim bor erdi, zahmat bosdi, nobud ayladi,  
Mo'r<sup>6</sup> bo'lmabman, Sulaymondin nechuk aylay suxan?

Kimki kishti<sup>7</sup> darmahal qildi, ko'kardi hosili,  
Ekkanim yo'q dona, borondin nechuk aylay suxan?

Mashrabo, sohib talablarga gapur dil dardini,  
O'zgalarg'a ashki mujgondin<sup>9</sup> nechuk aylay suxan?



<sup>1</sup>Sad hazoron — yuz minglab; <sup>2</sup>bir alifg'a — Oloh sir-sinoatlari nazarda tutilgan; <sup>3</sup>kishti — kema; <sup>4</sup>firdavsni — jannat bog'ini; <sup>5</sup>rizvond — jannat; <sup>6</sup>mo'r — chumoli; <sup>7</sup>kishti — ekan; <sup>8</sup>borondin — yomg'irdan; <sup>9</sup>mujgondin — kiprikdagi yoshdan.

\* \* \*

Ming «Analhaq!»<sup>1</sup> keladur Mansur osilg'an dordin,  
Har zamon «Labbayka!» deb kelg'ay nido Jabbordin.

Olimi guftor<sup>2</sup> bo'lma, fozili kirdor<sup>3</sup> bo'l,  
Bandalarni Haq so'rar mahshar kuni kirdordin.

Barcha xalq savdosini qildiki, sen qolding bu dam,  
Kimki – kamxarji erur xushk<sup>4</sup> qaytar ul bozordin.

Mori<sup>5</sup> zohir sahl<sup>6</sup> erur nafs ajdahosi oldida,  
Mashrabo, qo'rqmasmusan, ko'nglungda nafi mordin?



<sup>1</sup> «A n a l h a q» – «men haqman» – men haqning bir zarrasi, namunasiman, demak; <sup>2</sup> g u f t o r – so'z; <sup>3</sup> k i r d o r – amaliyot; <sup>4</sup> x u s h k – quruq; <sup>5</sup> m o r – ilon; <sup>6</sup> s a h l – oson, jo'n.



\* \* \*

Intizoringdin chiqodur jonim, ey jon, qaydasan?  
Rahm qil, ahvolimi qilg'on parishon qaydasan?

Furqatingdin xasta bo'ldum, tanda toqat qolmadi,  
Jon g'amingda yetti labga, dardga darmon qaydasan?

Demadingmu: «Sen yoringdin kech bu dam, suygil meni!»  
Shartu ahdini unutg'on ahdi yolg'on qaydasan?

Men Zulayxodek fano bo'ldum firoqing o'tida,  
Sen farog'at xotiri Yusufi Kan'on qaydasan?

Mashrabing topqaymu izlab shahru sahroni kezib,  
Yuzi to'lg'on oy kabi, ey ko'zi Cho'lpon, qaydasan?





\* \* \*

Yorning ko'yida o'lg'on bormukin?  
Bir o'lub, ikki tirilg'on bormukin?

Yorning vaslini izlab charx urub,  
Telmurub yo'llarda qolg'on bormukin?

Necha yil Ofoq Xojam xizmatida,  
Shul Xo'tan dashtida yurg'on bormukin?

Qatl qilmoqg'a hukm etgonida,  
Yolborib bo'ynini sung'on bormukin?

Ul nigorim qo'lg'a olsa xanjarin,  
Yolvorib jonini berg'on bormukin?

Men kabi tarsoyu rasvolar bo'lub,  
Bo'ynig'a zunnor osg'on bormukin?

Tongla mahsharda yig'ilsa jumla xalq,  
Oh urub mahsharni buzg'on bormukin?

Kecha-kunduz zor birla yig'labon,  
Ko'z yoshi Jayhuncha oqqon bormukin?

Dod etar Mashrab Xo'tan sahrosida  
Bir zamon dodig'a yetg'on bormukin?





\* \* \*

Bul musofir shahrida har dam tutoshib yonaman,  
Har qayon borsam bu kun yo'ldin adoshib boraman.

Na otam bor, na onam bor – hech kishim yo'qdur mening,  
Har tagi devorlarga zoru sargardonaman.

Ne gunoh qildim, xudo, dunyoda men bo'ldum g'arib,  
Har qayerda bekasu bechorag'a hamxonaman.

Dog'lar qo'ydi yurakka bu falakning gardishi,  
Qismatim andog' ekan, men jumladin begonaman.

Bul yoqomni chok etib faryodu afg'on aylabon,  
Barchani bag'ri butun, men yuragi sadporaman.

Endi, Mashrab, qul ekansan, qismating buldur sening,  
Shukrililoh, hamma yerda tolibi durdonaman.





\* \* \*

Ishq sargardonidurman, yo'q menga sabru sukun,  
Toleim bo'ldi meni ro'zi<sup>1</sup> azaldin vojgun<sup>2</sup>.

Bir buzuq avvora ko'nglung'a topolmam marhame,  
Toza<sup>3</sup> singan shishani qaytib qilib bo'lmas butun.

Dildagi naqdimni men yo'lungga barbod ayladim,  
Ne mashaqqatlarni torttim sen guli ra'no uchun.

Dushmani g'addor<sup>4</sup> dunyo qildi xokimni xarob,  
Hech mo'min misli man rasvoi olam bo'lmasun.

Do'stlarim holimg'a yig'lar, dushmanim ko'rsa kular,  
Dard ko'b, hamdard yo'q, dushman — qaviy<sup>5</sup>, tole' — zabun.

Yuz jaf o boshing'a ortturdim, vafoni ko'rmadim,  
Oxiri bori<sup>6</sup> malomat qomatimni qildi «nun».

Kecha-kunduz tinmayin ko'b iztirob aylar edim,  
Rohatim dildin kamaydi, mehnatim bo'ldi fuzun<sup>7</sup>.

G'am ko'zum telmurturub qo'ydi biyobon dashtig'a,  
Ko'zda yoshim qildi sahrolarni rangin lolagun<sup>8</sup>.

Haq yo'lin topgan hama dunyoni tarkin qildilar,  
Qo'p, senam tark aylagil, ey Mashrabi sohibjunun<sup>9</sup>.

---

<sup>1</sup>R o' z — kuni; <sup>2</sup>v o j g u n — ters; <sup>3</sup>t o z a — yangi; <sup>4</sup>g' a d d o r — sotqin, mehrsiz; <sup>5</sup>q a v i y — kuchli; <sup>6</sup>b o r — yuk; <sup>7</sup>f u z u n — ortdi; <sup>8</sup>l o l a g u n — lolarang; <sup>9</sup>s o h i b j u n u n — telba, devona.



\* \* \*

Zulfining savdosidin ko'nglum parishondur bukun,  
Yor vaslin topmayin yer birla yaksondur bukun.

Xalq aro shodlig'lar bor edi mundin burun,  
Har kishi yuz g'am bila dahr ichra sarsondur bukun.

Gar menga qilsa nazar xurshid derman otini,  
Garchi andin bir ko'runsa mohi tobondur<sup>1</sup> bukun.

Bandidin Farhod qochti g'am tog'ida berkinib,  
Xasta Majnun ham kezib cho'llarda sarsondur bukun.

Gar muhabbat ahlig'a qilsa nazar ul sarvinoz,  
Jannatul rizvon<sup>2</sup> bo'lub bu kulba ahzondur<sup>3</sup> bukun.

Itlarig'a hamdam etti Mashrabi bechorani,  
Olloh-Olloh, ne ajab ming lutfu ehsondur bukun.



<sup>1</sup>Mohi tobon – porloq oy; <sup>2</sup>jannatul rizvon – jannat bog'i;  
<sup>3</sup>baytul ahzon – g'amxona.



\* \* \*

Na holatdur, ayo do'stlar, ajab hayrona Mashrabman,  
Ko'rolmay gul'uzorimni<sup>1</sup>, base<sup>2</sup>, giryona<sup>3</sup> Mashrabman.

Qalandarvor yig'larman eshiklarda fig'on aylab,  
Xaloyiqqa bu olamda bo'lub afsona Mashrabman.

Nazokatlik nigorimdin o'shal soat judo bo'ldum,  
Kuyub hijron o'tida doimo so'zona<sup>4</sup> Mashrabman.

Men unga dardu roz aytib-eshitib yig'layin derman,  
Ko'ray deb ul vafodorum, yurub jo'yona<sup>5</sup> Mashrabman.

Falakning jabri ko'ksunda, alam uzra alamlardur,  
Tarahhum aylabon ko'rgil — jarohatxona Mashrabman.

Mening ko'nglum qizil gul g'unchasidek tah-batah<sup>6</sup> qondur,  
Ochilmasdin xazon bo'lg'on chu motamxona Mashrabman.

Visolingni tilab Mashrab yetibdur halquma jonim,  
Kecha-kunduz qarorim yo'q, ajab sarsona Mashrabman.



---

<sup>1</sup>G u l' u z o r — gul yuzli; <sup>2</sup>b a s e — rosa; <sup>3</sup>g i r y o n a — yig'loqi; <sup>4</sup>s o' z-  
o n a — kuyadigan; <sup>5</sup>j o' y o n a — izlovchi; <sup>6</sup>t a h- b a t a h — qatma-qat.



\* \* \*

Qarorim yo'q ko'ngulda lahzaye, sarsona Mashrabman,  
Quyundek sham'i husnung aylanib, parvona Mashrabman.

Jahonda har ne borimni yo'lida ayladim itmom<sup>1</sup>,  
Paridur yo malak ondin bo'lak rindona<sup>2</sup> Mashrabman.

Ishimdur faqri<sup>3</sup> yo'lin tay qilib<sup>4</sup> qat'i<sup>5</sup> taalluqdin<sup>6</sup>,  
Ichibman tunu kun may, tolibi mayxona Mashrabman.

Meni zohir ko'zida ko'rgan el o'zda gumon aylar,  
Vale, el ichra o'zdin, barchadin begona Mashrabman.

Yurudum har taraf sayr etib chun barq javloni,  
O'zidin bexabar ham hushi yo'q mastona Mashrabman.

Chu menda sodavashliq<sup>7</sup> vaz'idin<sup>8</sup> bir o'zga sir yo'qdur,  
Ochuq a'zo, yoruq tan, xalq aro vayrona Mashrabman.

Topibon o'z yo'lung tark ayla zohidlik yo'lin, Mashrab,  
Muhabbat jomidin to may ichib mastona Mashrabman.



---

<sup>1</sup> I t m o m — tugatmoq; <sup>2</sup> r i n d — mayxo'z oqil; <sup>3</sup> f a q r — sufiylik;  
<sup>4</sup> q i i b — bosib o'tib; <sup>5</sup> q a t ' i — kechmoq, uzmoq; <sup>6</sup> t a a l l u q — kishini bu  
olamga bog'laydigan narsalar — xotin, oila, mol-dunyo; <sup>7</sup> s o d a v a s h l i q —  
soddalikday; <sup>8</sup> v a z ' i d i n — xatti-harakat, ahvol.



\* \* \*

Ishqing o'tidin, dilbar, har damda kuyay derman,  
Qonim bila, ey jonon, olamni bo'yay derman.

Yuzung bila qoshingdin o'zgaga nazar qilsam,  
Xanjar olibon qo'lg'a ko'zumni o'yay derman.

Mijgon o'qidin, dilbar, qonimni to'kar bo'lsang,  
Ul sham'i jamolingga parvona bo'lay derman.

Men dashti muhabbatda tashna bo'lubon yurdum,  
Ey soqiy, cadah sung'il, sipqorib ichay derman.

Rahm aylasa gar dilbar ham ochsa niqobini,  
Men xastasiman, do'stlar, to'yg'uncha ko'ray derman.

Mashrab seni deb, dilbar, kechti ikki olamdin,  
Rahm aylagil, ey jono, birgina ko'ray derman.





\* \* \*

Jamoling sog'inib shomu sahar men zor yig'larman,  
Junun sahrosida devona — majnunvor yig'larman.

Senga rozi dilim izhor etib so'ylar majolim yo'q,  
Parishon holu sargardonu dil afgor yig'larman.

Yuzung shamsu<sup>1</sup> zih<sup>2</sup> mohi munavvar<sup>3</sup>, ey pari paykar,  
Labing la'lu lisoning<sup>4</sup> shahdu<sup>5</sup> shakkarvor, yig'larman.

Xating bog'i bahoru lolayu sarvu suman<sup>6</sup> erdi  
Ki, men chun bulbuli sho'ridai gulzor yig'larman.

Ko'ray deb orzu birla jamolingni men, ey zebo,  
Turubdurman eshigingda, ayo g'amxor, yig'larman.

Ko'zumdin mavj urub selobi ashkim<sup>7</sup> to'la qon oqti,  
Agar yoding'a tushsang, ey pari ruxsor, yig'larman.

Iloho, mag'firat<sup>8</sup> daryosidin Mashrabni shodob<sup>9</sup> et,  
Hamisha, shay'alilloh<sup>10</sup>, deb qalandarvor yig'larman.



---

<sup>1</sup>Shams — quyosh; <sup>2</sup>zih — ajab; <sup>3</sup>mohi munavvar — nurli oy;  
<sup>4</sup>lisoning — tiling; <sup>5</sup>shahd — asal; <sup>6</sup>suman — oq gul, jasmin; <sup>7</sup>ashkim — ko'z yoshim; <sup>8</sup>mag'firat — gunohlarni kechirmak; <sup>9</sup>shodob — bahramand; <sup>10</sup>shay'alilloh — xudo yo'lida bir narsa (so'ramoq).



\* \* \*

Muhabbat o'tig'a bag'rim kuyub, biryona<sup>1</sup> yig'larman,  
Visolingni tilab, ey nozanin jonona, yig'larman.

Umidim bodai<sup>2</sup> la'li labingdin jomi may ichsam,  
Fig'onu nola aylab bar dari<sup>3</sup> mayxona yig'larman.

Siyah<sup>4</sup> zulfig menga zunnor — o'ldum kofir ishqingda,  
Bo'lub rasvoi olam sokini butxona yig'larman.

Gahi bulbul dar afg'onman, gohi chun qumri nolonman,  
Gahi chug'zi<sup>5</sup> parishonman, vatan vayrona yig'larman.

Ayo Laylivashim, bir g'amzayu noz birla o'ldurding,  
Firoqing dashtida Majnun ila hamxona yig'larman.

Na hojat menga dashtu tog'u sahroni vatan qilmoq,  
Agar bu yo'lda bo'lsa jazbai devona yig'larman.

Menga to'foni hasrat qildi hamdam ul parirolar<sup>6</sup>,  
To'kub mijgondin ashki Jayhunona yig'larman.

Iloho, bahri jonimg'a guhar naysonini yog'dur,  
Tilab ko'nglum sadaf yanglig' guhar durdona, yig'larman.

Jamoling partavi olamg'a tushti — barcha o'rtandi,  
Kuyub, Mashrab, misoli o'rtanib parvona yig'larman.

---

<sup>1</sup>B i r y o n a — qovurilib; <sup>2</sup>b o d a — may; <sup>3</sup>b a r d a r i — eshigida;  
<sup>4</sup>s i y a h — qora; <sup>5</sup>ch u g' z — ukki; boyo'g'li; <sup>6</sup>p a r i r o' l a r — pari yuzlar.

---

\* \* \*

Ul dilbari ra'noni men yor tutay derman,  
May bersa baham<sup>1</sup> ondin bir qatra totay derman.

Jannat, huru g'ilmoning, toqu ravoq, ayvoning,  
Balki obi hayvoning<sup>2</sup> bir pulga sotay derman.

Olam hama laylidur<sup>3</sup> tun qoshi qarosidin,  
Oydek yuziga boqib mastona bo'lay derman.

Ishq yo'lida ul zohid oshiqqa qilur ta'na,  
Bir o'q ila zohidin otib yo'qotay derman.

«Hu»<sup>4</sup> desam analhaq deb, olam borisi haq der,  
Mansur kabi boshimni dor uzra tutay derman.

Do'zax o'ti suv bo'lg'ay ishqing o'tidin, Mashrab,  
Ishqing o'tidin tashlab do'zax qurutay derman.



---

<sup>1</sup>B a h a m – birgalikda; <sup>2</sup>o b i h a y v o n – obihayot; <sup>3</sup>l a y l – tun, kecha;  
<sup>4</sup>H u – u, ya'ni Olloh.





\* \* \*

Jilva qilursan ming noz birlan,  
Faryod etarman ovoz birlan.

Zulmungdin o'ldum, zolim sifatlig',  
Rahm aylamaysan e'zoz birlan.

Kofir qiliqlik ko'nglumni oldi,  
Jon qushi uchdi parvoz birlan.

Guldek egilib kirsang eshikdin,  
Devona qilding ming noz birlan.

Mashrab g'aribing kuydi g'amingdin,  
Nola qiladur qish-yoz birlan.



\* \* \*

Majnun o'la kezdim necha yil dashtu biyobon,  
Laylini so'rog'lab yurudum besaru somon.

Bu arzi dilimni eshitib rahm eta ko'rgil,  
Vaslingni tilab kimki meningdek senga hayron.

Yuz jonim agar bo'lsa sening yo'lingga iysor<sup>1</sup>,  
Xushdur bu gadolig', ne qilay taxti Sulaymon.

Mast aylagali bu meni – bechora g'aribni,  
Bir g'amza qilib o'tti qoshimdin meni jonon.

Husnung sifatini o'qubon piri mug'onlar,  
Devona bo'lub, belin bukub bo'ldilar uryon<sup>2</sup>.

Ishqing o'tida bu yuragim o'rtanadur, oh,  
Oxir yuragim bo'lg'usi ishq o'tida biryon.

Hajring g'amidin boshima yuz javru jafodur,  
Vaslingga yetay, deb seni oshiq ko'zi giryon.

Rahm aylagilu mahrami asror<sup>3</sup> eta ko'rgil,  
Sen harna desang men qilayin, banda – bafarmon.

Bechora qulung senga deyur arzi dilini,  
Bergil talabi bandani, ey xoliqi<sup>4</sup> inson.

Soqiyi azaldin mayi bir jur'a<sup>5</sup> totibman,  
Bas, oning uchundur menga bu nash'ai davron.

Ey dilbari jonon, seni deb, xasta bu Mashrab,  
Tushti oni boshiga bu kun mehnati hijron.

<sup>1</sup> I y s o r – sadqa; <sup>2</sup> u r y o n – yalang'och; <sup>3</sup> m a h r a m i a s r o r – sirdosh; <sup>4</sup> x o l i q – Yaratuvchi; <sup>5</sup> j u r ' a – qultum.



\* \* \*

Agar oshiqlik im aytsam, kuyub jonu jahon o'rtar,  
Bu ishq sirrin bayon qilsam, taqi ul xonumon o'rtar.

Kishig'a ishq o'tidin zarraye yetsa bo'lur giryon<sup>1</sup>,  
Bo'lur besabru betoqat, yurak-bag'ri chunon o'rtar.

Meni bexonumon tinmay kuyub yondim firoqingda,  
Oting tutsam, «Nigoro!» debki, zavqidin zabon<sup>2</sup> o'rtar.

Qayu<sup>3</sup> til birla, ey jono, seni vasfing bayon aylay,  
Tilim lolu ko'zum giryon, so'ngaklarim nihon o'rtar<sup>4</sup>.

Na qattig' kun ekan, jono, visolingdin judo bo'lmoq,  
Mening ohim tutunig'a zaminu osmon o'rtar.

Yurakda dardu g'am qat-qatki, menda qolmadi toqat,  
Agar bir zarrasin bul vaqt desam ishq bayon o'rtar.

Bu dard ila xarob o'ldum, kelib holimni so'rmassan,  
G'aming boshqa, alam boshqa yurakimni fig'on o'rtar.

Bu Mashrab dardini, jonoki, hech kim boshig'a solma,  
Agar mahsharda oh ursam, bihishti jovidon<sup>5</sup> o'rtar.



<sup>1</sup>G i r y o n — yig'loqi; <sup>2</sup>z a b o n — til; <sup>3</sup>q a y u — qaysi; <sup>4</sup>o' r t a r — kuydiradi; <sup>5</sup>j o v i d o n — abadiy.

\* \* \*

Ajab Majnun erurman dasht ila sahrog'a sig'mamdur,  
Dilim daryoi nurdur, mavj urub dunyog'a sig'mamdur.

Shariat ham, tariqat<sup>1</sup> ham, haqiqat mendadur mavjud,  
Chu sultoni azaldurman, ki Arshi a'log'a sig'mamdur.

Xaliloso bu yo'lda otashi Namrud — me'rojim<sup>2</sup>,  
Hamon durri haqiqatmanki, har daryoga sig'mamdur.

Rizo mulkidaman halqumni tuttum tig'i akbarga,  
Bu yo'lda siynai poki zabe hullog'a<sup>3</sup> sig'mamdur.

Agarchandi ziyorat qilmadim men Ka'bai zohir,  
Tariqat hojisidurmanki, Baytullog'a sig'mamdur.

Gahi bo'ldum faqiru gohi shohu gah gadodurman,  
Ajab devonaman, fardoki<sup>4</sup> mahshargohg'a sig'mamdur.

Maqomi hayrat ichra gohi xudman, gohi bexudman,  
Junun bozorida mastmanki, istig'nog'a sig'mamdur.

Gah o'rus, gohi cherkas, gohi mo'min, gohi tarsoman,  
Ne kavnayn miyoni lou illollog'a sig'mamdur.

Mudom miskin erurman chun g'uloming —  
Mashrabingdurman,  
Meni bechora bu dunyo bilan uqbog'a sig'mamdur.

<sup>1</sup>T a r i q a t — tasavvuf maslagi; <sup>2</sup>m e' r o j — ko'kka ko'tarilish;  
<sup>3</sup>z a b e h u l l o g' a — Olloh yo'lida so'yilish; <sup>4</sup>f a r d o — tongla.



\* \* \*

Har kishini <sup>1</sup>dardi bo'lsa, diydasidin<sup>1</sup> nam kelur,  
Kimki, munda shodlig<sup>2</sup> istar, orqasidin g'am kelur.

Synai daftarni ochsam, yetti do'zax ochilur,  
Nolishimdin qo'rqaman, majlisga nomahram kelur.

Odamiyning asli birdur, bir-biridin farqi bor,  
Necha qar<sup>3</sup>n<sup>2</sup> o'tg'onidin dunyoga bir odam kelur.

Yig'lamoq oson emas, ey sen, jigarbandim, eshit,  
Mulki dil sadpora bo'lg'ach, diydasidin nam kelur.

Mullalar ilmig'a mag'rur, omilar isyong'a<sup>3</sup> g'arq,  
Kas na bilsun, ro'zi<sup>4</sup> mahshar kimni toshi kam kelur?

Gar boshing Arshga yetushsa, sen o'zungdin ketmag'il,  
Har daraxtni mevasi ko'p bo'lsa, boshi xam<sup>5</sup> kelur...



---

<sup>1</sup>D i y d a s i d i n – ko'zidan; <sup>2</sup>q a r n – avlod, bir avlod muddati 30 yil;  
<sup>3</sup>i s y o n – shariat talablarini bajarmaslik; <sup>4</sup>r o' z i – kuni; <sup>5</sup>x a m – egik.



\* \* \*

Shahdu shakardin ortug'um, oromi jonim keldilar,  
Ko'ngul uyini ko'rgali ruhi ravonim keldilar.

Ketib edi aqlu hushum, bilib tururlar xohishim,  
Yo'qtur alardek hech kishim, shirin zabonim keldilar.

Soqiy, manga sung'il qadah, maxmur<sup>1</sup> edim men ishqida,  
Shahri vujudum taxtig'a shohi jahonim keldilar.

Yod aylar erdim goh-goh, kelgaymu deb ul podshoh,  
Bo'ldi yuzum monandi koh<sup>2</sup>, ul dilsitonim<sup>3</sup> keldilar.

Doim anga hayron edim, ishqida sargardon edim,  
Men, Mashrabi giryon edim, ul yori jonim keldilar.



---

<sup>1</sup>M a x m u r — xumor; <sup>2</sup>k o h — somon; <sup>3</sup>d i l s i t o -  
n i m — ko'nglimni olgan.



\* \* \*

Mavji daryoi talotum<sup>1</sup> sho'rishi mahsharcha bor,  
Yerga tushsa qatra ashkim baxshishi gavharcha bor.

Gavhari noyobni har kimga zoye' qilmag'il,  
Haq suxan, bil, bexabarni ko'ngliga nashtarcha bor.

Men tasadduqi o'shandoq oliy himmatlar bo'lay,  
Zikri Olloh – Zulfiqori chopishi Haydarcha<sup>2</sup> bor.

Har xasu cho'bini ko'rdum, zikrini bisyor der,  
Har piri komilki, o'z qavmig'a payg'ambarcha bor.

Gar o'zi bir lutf qilsa mo'ri langni<sup>3</sup> sher qilur,  
Pashshai log'arni<sup>4</sup>, ko'r, yo'lida Iskandarcha bor.

Mashrabo, qilma suxan<sup>5</sup> sen har nechuk nodong'a, hayf,  
Qadrini bilgan kishiga yoquti ahmarcha<sup>6</sup> bor.



---

<sup>1</sup>Talotum – to'fon; <sup>2</sup>Haydar – Ali ibn Abu Tolib;  
<sup>3</sup>mo'ri langni – eqsoq chumolini; <sup>4</sup>pashshai log'arni – chivinchan;  
<sup>5</sup>suxan – so'z; <sup>6</sup>ahmar – qizil.



\* \* \*

Dilbar yuzini ko'rgani devona kelibdur,  
Yuz nozu karashma bila jonona kelibdur.

Yuz jonim agar bo'lsa, tasadduq anga aylay,  
Raftori bila ko'zlari mastona kelibdur.

Devonai sho'rida, bu joningni fido qil,  
Kokillarikim belina chulg'ona kelubdur.

Zarroti jahon ichra kuyub tashnalab erdim,  
Jonona bo'lub, sohibi paymona kelibdur.

Joningni fido qil anga, ey xastai Mashrab,  
Lablari shakar, tishlari durdona kelibdur.







\* \* \*

Zebo sanamim o'zini zebo yasatibdur,  
Qonimni to'karga bu qizil to'nni kiyibdur.

Bilmam yana ul ofati jon qaysi qo'nog'da<sup>1</sup>,  
Kim birla chog'ir<sup>2</sup> ichti — yuzini qizortibdur.

Shahlo ko'zini jodu demak ayni xatodur,  
Tangri ani o'z mulkida g'avg'o yaratibdur.

Sochin yechibon boshig'a gar jig'ani sanchsa,  
Kokillari belga tushub a'lo yarashibdur.

Tufrog'im uza lola unar vaqtida, Mashrab,  
Kuydurmoq uchun bag'rima dog'ing tutoshibdur.



---

<sup>1</sup>Q o' n o g' — mehmon; <sup>2</sup>ch o g' i r — may.

\* \* \*

Na hojat hajji akbar<sup>1</sup>, Koshg'ar uzra mazorum bor,  
Ziyoi chashmima xoki daridin<sup>2</sup> surmasorum bor.

Mijam jorub<sup>3</sup> etib ko'z kosasida suv sepay derman,  
Bihisht ayvoni yanglig' soz etmak ixtiyorim bor.

Menga qismat azaldandur yemak dardu balo qutin<sup>4</sup>,  
Bu ishrat gulshanida zulm elidin g'amgusorum<sup>5</sup> bor.

Iti ichkan yalog'ida menga ham to'ma<sup>6</sup> bergay deb,  
Tilab kavsar sharobin zuhd eli yanglig' xumorim bor.

Meni ko'rsa qochadur shayxulislom Ahraman yanglig',  
Nechun: bo'ynumg'a zulfi tori chirmashg'an tumorim bor.

Azaldin men dili g'amgin xaloyiq xaylini<sup>7</sup> sevdim,  
Shahid qonini sipqorg'on shahanshohlardin orim bor.

Tanim tarong'idur, har yonda yuz ming soyai ar-ar,  
O'shal ohu ko'zu g'am tog'i uzra sarvzorim bor.

Meni Mashrabning bo'ynini iting zanjirig'a bog'lab,  
Erur davlat, ayog' ostida sudratsang na orim bor.

<sup>1</sup>Hajji akbar — buyuk haj; <sup>2</sup>xoki daridin — eshigi tuprog'idan; <sup>3</sup>jorub — supurgi; <sup>4</sup>qutin — ovqatini; <sup>5</sup>g'amgusorum — g'amxo'r; <sup>6</sup>to'ma — ovqat, yegulik; <sup>7</sup>xaylini — guruhini.

---

\* \* \*

Bo'yungni, ey pari, monandai<sup>1</sup> sarvi raso derlar,  
Malohatlig' yuzungni oftobi vazzuho<sup>2</sup> derlar.

Tamomi xalqni bir g'amza birla band aylabsan,  
Sening dastingdin oshiqlar hama: «Vo, hasrato!» — derlar.

Bu nozu ishva birla har zamon uydin kulub chiqsang,  
Kishi o'rgulmasa sendin: «Ani yuzi qaro!» — derlar.

Agar kiprik o'qi birla bu qonimni to'kar bo'lsang,  
Magar ishq yo'lida o'lsam shahidi Karbalo derlar.

Soching zanjirila bog'lab kel emdi ol bu jonimni,  
Xudo qozi bo'lub so'rsa menikim dodxo<sup>3</sup> derlar.

Bu so'zni yig'lab aydi kecha-kunduz Mashrabi miskin,  
Bu olamda meni yuz ming balog'a muftalo derlar.



---

<sup>1</sup>M o n a n d a — kabi, o'xshashi; <sup>2</sup>v a z z u h o — peshindagi;  
<sup>3</sup>d o d x o — arzga kelgan kishi, aynan: adolattalab.

---

\* \* \*

Sening ishqingda, ey dilbar, yurakim tah-batah<sup>1</sup> qondur,  
Muhabbat o'tida har dam kuyub ko'nglum parishondur.

Qachon chiqq'ay sening darding yurakimdin, netay men zor,  
Agar shul dard ila o'lsam ichimda to'la armondur.

Na bo'lg'ay rahm etib so'rsangki, men ko'ngli shikastangni<sup>2</sup>,  
Hamisha oshiqi miskin sening ishqingda hayrondur.

So'rarlar ba'zi odamlar: «Bu dardingga davo bormu?»  
Men ayurman: «Birodarlar, bu dardi menga darmondur!»

Kel, ey Mashrab, bu oshiqlik ishi dushvordur<sup>3</sup>, bilsang,  
Inoyat<sup>4</sup> bo'lsa gar Haqdin — har mushkul ish osondur.



---

<sup>1</sup>Tah-batah — qatma-qat; <sup>2</sup>shikastangni — ko'ngli sinig'ingni;  
<sup>3</sup>dushvor — mushkul, qiyin; <sup>4</sup>inoyat — iltifot, g'amxo'rlik.

---

\* \* \*

Gulgun<sup>1</sup> may ichib lola uzorim<sup>2</sup> keladur,  
Har yon sazulib ko'zi xumorim keladur.

Tishlab labini, mujgon<sup>3</sup> o'qin menga otibon,  
Chog'lab yuragimni dilfigorim<sup>4</sup> keladur.

Zulfini tarab boshdan ayog' zavar<sup>5</sup> etibdur,  
Sunbul ila gul bog'u bahorim keladur.

Ilkida qilich, tiyru<sup>6</sup> sadoqini olib ham,  
Chopmoqqa bu kun jonim olorim keladur.

Bul Mashrabi bechorani zor ayladi-ketdi,  
Ishq o'tig'a jonimni qiynorim keladur.



---

<sup>1</sup>Gulgun – gulrang; <sup>2</sup>uzorim – yuzim; <sup>3</sup>mujgon – kiprik;  
<sup>4</sup>dilfigorim – yuragimni yaralagan; <sup>5</sup>zavar – bezak;  
<sup>6</sup>tiyr – kamon o'qi.



\* \* \*

Zohid, meni ayb etma, gul yuzu dudog' o'rtar,  
Parvonani ko'rdungmu – har kecha charog' o'rtar.

Nargis ko'zi bir damda olamni xarob aylar,  
La'li labi mayguni<sup>1</sup> dog' ustig'a dog' o'rtar.

Zohid kabi bo'lg'onlar, ishq o'tig'a kuyg'onlar,  
O't oldig'a borg'onlar bir damda yirog' o'rtar.

Dilxasta bu Mashrabni har kechayu har kunduz,  
Goh o'tli nigoh o'rtar, gah so'zi firoq<sup>2</sup> o'rtar.



---

<sup>1</sup>M a y g u n – mayrang, qizil; <sup>2</sup>f i r o q – judolik, ayriliq.



\* \* \*

Parda<sup>1</sup> ko'tarib ul sho'x har lahza itob aylar,  
Nozi bila ul dilbar oshiqqa azob aylar.

Kuydurdi meni ishq, ko'nglumda aning zavqi,  
Hijron o'tida shavqi bag'rimni kabob aylar.

Goh g'amza bila chiqsa, goh ishva bila boqsa,  
Zulf zanjirini har dam bo'ynumg'a tanob aylar.

Hushumni tamom oldi, ishq otashig'a soldi,  
Soqiy qadahin sunmay maxmuri<sup>2</sup> sharob aylar.

Qad — sarvu yuzi — gulzor, Mashrabni qilib afgor,  
Ham nozu itob aylar, ham xonaxarob<sup>3</sup> aylar.



---

<sup>1</sup> P a r d a — chimmat, yuz yopinchig'i; <sup>2</sup> m a x m u r — xumor; <sup>3</sup> x o n a - x a r o b — uyini buzadi.



\* \* \*

Seni Laylii ra'nodek ajoyib dilrabo derlar,  
Meni Majnuni shaydodek ko'yingda bir gado derlar.

Kecha-kunduz eshigingda fig'onu nolalar qilsam,  
Ki harchandi navo qilsam, hanuzam benavo derlar.

Yurub so'rdum tabiblardin: «Bu dardimga davo  
bormu?»  
Alar ayturki: «Ey nodon, bu dardni bedavo derlar!»

Qani Layli, qani Majnun, qani Shirin bilan Farhod?  
Alar o'tdi bu olamdin, bu olam bevafo derlar.

Itini xoki poyiniki Mashrab ko'ziga surtti,  
Nido keldiki olamdin ko'ziga to'tiyi derlar.







\* \* \*

Setor demang, holi dilim so'rg'uchi tanbur,  
Ko'nglum girihu<sup>1</sup> g'amlarini ochg'uchi tanbur.

Bir necha raqiblar so'zidin g'amzada<sup>2</sup> bo'lsam,  
Hamdard bo'lubon og'ushima<sup>3</sup> kurguchi tanbur.

Ko'tohnazar<sup>4</sup> xalq muni qadrini bilmas,  
Dargohi azaldin xabare berguchi tanbur.

Gar yor jamolini ko'rub pardag'a solsam,  
Nag'masi oni siynaxarosh<sup>5</sup> etguchi tanbur.

Ham yor jamolidek oni nash'asi bordur,  
Hayrat o'tidin mahvi sanam qilg'uchi tanbur.

Oshiq yuragidin chiqib o'ttek kelibon ul,  
Bir uchqunig'a jumlani<sup>6</sup> kuydurguchi tanbur.

Mashrabni tamom aqlin olib ul buti xunrez<sup>7</sup>,  
Jonimni yoqib siynaxarosh etguchi tanbur.



<sup>1</sup>G i r i h — chigali; <sup>2</sup>g' a m z a d a — g'am adoyi tamom qilgan;  
<sup>3</sup>o g' u s h i m a — quchog'imga; <sup>4</sup>k o' t o h n a z a r — uzoqni ko'rolmaydigan;  
<sup>5</sup>s i y n a x a r o s h — ko'ngilni tirnaydigan; <sup>6</sup>j u m l a n i — barchani;  
<sup>7</sup>b u t i x u n r e z — qon to'kar sanam.



\* \* \*

To xil'ati<sup>1</sup> zohir kiyibon zebi tanimdur,  
Rasvo bo'lubon ko'yi malomat vatanimdur.

Sarvi qadu andeshai<sup>2</sup> xurshidi jamoling,  
Jon gulshaniga lolayu sarvu sumanimdur!

Xanjar mijalar ko'yiga to tushdi guzorim,  
Sar to baqadam<sup>3</sup> zaxmi jafo pirahanimdur<sup>4</sup>.

Bog'i Eramu sahni gulistoni kerakmas,  
Ko'ksumda meni dog'i muhabbat chamanimdur.

To bismili<sup>5</sup> shamshiri jafo ayladi boshim,  
Mashrab, sharari<sup>6</sup> ko'yi malomat kafanimdur.



---

<sup>1</sup>Xil'ati — ustki kiyim, xalat; <sup>2</sup>andeshai — xayoli, o'yi; <sup>3</sup>sar to — baqadam — boshdan-oyoq; <sup>4</sup>pirahanimdur — kiyimimdir; <sup>5</sup>bismili — so'rgan; <sup>6</sup>sharari — uchqunlari.

\* \* \*

Qoshing mehrobi, ey dilbar, meningkim qiblagohimdur<sup>1</sup>,  
Yuzung mehri<sup>2</sup> ko'ngulni ravshan etmaklikka mohimdur<sup>3</sup>.

Ibodatining qiyomi<sup>4</sup> poygohing<sup>5</sup> xonai Ka'bam,  
Izing ul ostoni oliy uzra takyagohimdur.

Iki olam xayoloti menga qotil erur, jono,  
Sipohin tortib otlansa, menga yoding panohimdur.

Bu ko'ngul mayl qilsa g'ayrning yodini qilmoqqa,  
G'ami furqat o'tida harna kuysam o'z gunohimdur.

Vale, ko'nglum qabul etmaski sendin o'zga dilbarni,  
Sochingning halqasi ul zulmdin oromgohimdur.

Qaro ko'rgan falakda abr<sup>6</sup> ermas, yoqg'oni yomg'ur,  
Mening holimg'a yig'lar ul, qarosi dudi ohimdur.

Emasdur ustuxon<sup>7</sup> oting ayoq ostida sudralg'on,  
G'aming ranji bilan o'lgan mening jismi tabohimdur<sup>8</sup>.

Jafoyu javr ila zulmung menga bedodlar qildi,  
Karashmang, ko'rsa qatl aylar, demas bu dodxohimdur<sup>9</sup>.

Gunohim g'ayrdin ermas, ko'zumdin, ixtiyorimdin,  
Meni bu o'tg'a solg'on ixtiyorim ham nigohimdur.

---

<sup>1</sup>Q i b l a g o h i m d u r – qibla ko'rsatkichimdir; <sup>2</sup>m e h r i – quyoshi;  
<sup>3</sup>m o h i m d u r – oyimdir; <sup>4</sup>q i y o m – ibodatda tik turgan holat; <sup>5</sup>p o y -  
g o h i n g – oyoq qo'yg'an joying; <sup>6</sup>a b r – bulut; <sup>7</sup>u s t u x o n – suyak;  
<sup>8</sup>t a b o h – xarob; <sup>9</sup>d o d x o h i m d u r – arz qiluvchi.

Meni o'ldursa-tirguzsa sanam lutfu sitam birla,  
Angadur ixtiyorim, harna qilsa podshohimdur.

Tirikman – tanda jonim bor, o'lub yotsam eshigingda,  
Sari ko'yi<sup>1</sup> – bihishti jovidonim<sup>2</sup> xobgohimdur<sup>3</sup>.

Kecha-kunduz bu Mashrabning xayoli oston bo'lsa,  
Visoling davlatin topmoqqa itlar saddi rohimdur<sup>4</sup>.



---

<sup>1</sup>K o' y i – manzili; <sup>2</sup>j o v i d o n – mangulik jannat; <sup>3</sup>x o b g o h i m -  
d u r – yotog'imdir; <sup>4</sup>r o h i m d u r – yo'lim to'sig'idir.

\* \* \*

Ishqingda meni volayu hayron yaratubdur,  
Tarsobachani g'orati imon yaratubdur.

Bu dashtu biyobonda o'larman, netay, oxir,  
Xoliq<sup>1</sup> meni – tashna, seni – Ummon yaratubdur.

Jonimni olur bo'lsang, ol ey, dilbari ra'no,  
Biz g'amzadalarni<sup>2</sup> senga qurbon yaratubdur.

Taqdiri qalam boshima yetti, netayin, oh,  
Hajring g'amida besaru somon yaratubdur.

Arzimni senga aytayin, ey shohi jahonim,  
Bizlarni gadokim, seni sulton yaratubdur.

Ishqing o'tida oshiqi bechora g'aribni,  
Tun-kun ulus kuyida nolon yaratubdur.

G'am lashkari ichra meni hayronu xarobu,  
Lab tashnayu dilxastayu sarson yaratubdur.

Chun ko'zlarini jodu demak ayni xatodur,  
Tangri oni o'z maylicha maston yaratubdur.

Mastona sifat ishva bilan nozu karashma,  
Parvona sifat sham'iga so'zon<sup>3</sup> yaratubdur.

Devonayu Majnun ne qilur, yo'qdur iloji,  
Az ro'zi azal<sup>4</sup> bag'rini biryon<sup>5</sup> yaratubdur.

Devonai Mashrab ne demish ersa, yoronlar,  
Ayb aylamangizlar, oni nodon yaratubdur.

---

<sup>1</sup>X o l i q – yaratuvchi, tangri; <sup>2</sup>g' a m z a d a – g'am adoyi tamom qilgan;  
<sup>3</sup>s o' z o n – kuyadigan; <sup>4</sup>a z a l – azal kundan, yaratilgandayoq;  
<sup>5</sup>b i r y o n – kuyuk.



\* \* \*

To telbalig'im shuhrati olamin tutubdur,  
Ondin beri Majnun so'zini xalq unutupdur.

Farhod ila Majnun ne bilur ishq ramuzin<sup>1</sup>,  
Ishq bobida, ul shogirdlarimki, o'qutubdur.

Mujgonlaringizning o'qi ag'yorg'a tegdi,  
Men bildim jonimg'a nelar mendin o'tubdur.

Har lahza tegar sangi<sup>2</sup> malomat yuragimga,  
El ta'nasi chun bag'rimi afgor<sup>3</sup> etubdur.

Mashrabki, vujudi bila mamlu<sup>4</sup> mayi ishqdin,  
Sarmast bo'lubon el orasinda yurubdur.



<sup>1</sup>R a m u z i n — sir-sinoatlarini; <sup>2</sup>s a n g i — toshi; <sup>3</sup>a f g o r — ezilgan; <sup>4</sup>m a m-  
l u — to'la, limmo-lim.

\* \* \*

Chiqsam ko'chalarg'a shohsuvorim<sup>1</sup> keladur,  
Gul g'unchasidek lola uzorim<sup>2</sup> keladur.

Har yong'a boqib, kirpik o'qin xalqg'a otib,  
Jonimg'a o'tlarni yoqib, nigorim keladur.

Maygun labidin ishq mayin elg'a sunubon,  
O'z mastlig'idin ko'zi xumorim keladur.

Jonimg'a yetib har soridin rashk qilichi,  
Mujgon o'qini har yon otorim keladur.

Kelmay necha kun, qayda qaror etti ekankim,  
Ko'nglumdin olib sabru qarorim, keladur.

O'lmaymu bu dard bila, ey yoru yoronlar,  
Jonim uyig'a o'tni yoqorim keladur.

Ham zohidu fosiq o'zuna sajda qilurg'a,  
Har lahzada ming dinni buzorim keladur.

Kunduz-kechasi hech mahal kelgan emas ul,  
Bul turfa, ko'rung, laylu<sup>3</sup> nahorim<sup>4</sup>, keladur.

Ilkida<sup>5</sup> qilich, belda sadog'i bila ul mast,  
Chopmas burun ul jonim olorim keladur.

Gul bargi kabi g'am bila sarg'aydi bu Mashrab,  
Ne g'am menga emdi, g'amgusorim keladur.

<sup>1</sup>Shohsuvorim — chavandozim; <sup>2</sup>lola uzorim — lola yuzlim;  
<sup>3</sup>laylu — tun, kecha; <sup>4</sup>nahor — tong, ertalab; <sup>5</sup>ilkida — qo'lida.



\* \* \*

Latofat bog'i ichra qomating sarvi xiromondur,  
Ko'ngul qumrisi tinmay, doimo dar sho'ru afg'ondur<sup>1</sup>.

Ko'zung jalloddur, qoshing — hilolu kipriging xanjar,  
Labing — la'lu dahoning<sup>2</sup> — g'unchai sadbargi<sup>3</sup> xandondur<sup>4</sup>.

Sen, ey zohid, mening dardi dilimni hech bilmassen,  
Yurokinga nazar qilsang, tamomi zaxmi paykondur<sup>5</sup>.

Bihisht ichra qadam qo'ymam, yo'q ersa va'dai vasling  
Ki, sensiz menga bu jannat misoli nori so'zondur<sup>6</sup>.

Ki sensiz naylayin ushbu jahonni, ey vafodorum,  
Azobi qabr — hijron dardidin, albatta, osondur.

Umidi ko'p edi ranjur<sup>7</sup> qildi ishq Mashrabni,  
Agar maqsadga yetmay o'lsa, vovaylou<sup>8</sup> armondur.



---

<sup>1</sup>Afg'on — fig'onu faryod; <sup>2</sup>dahoning — og'zing; <sup>3</sup>sadbarg — atirgul; <sup>4</sup>xandon — kulib turgan; <sup>5</sup>paykon — kamon o'qi; <sup>6</sup>nori so'zon — kuydiruvchi do'zax; <sup>7</sup>ranjur — dardmand; <sup>8</sup>vovaylo — e voh! Afsus!





\* \* \*

Chun qo'lum birla oyog'im bog'lamoq hojat emas,  
Men o'lumga rozidurman, turgali toqat emas.

Muncha shiddat birla boshim kesgali zo'r aylama,  
Baski<sup>1</sup>, odam qoni to'kmak senga ham toat emas.

Umr chun barqi<sup>2</sup> havodis<sup>3</sup>, g'ofil odam bilmadi,  
Oyu kun oromiga bir lahzaye fursat emas.

Lashkari xunrez<sup>4</sup> bo'lsa sabru orom qayda bor?!

Majnuni devonalardin shohg'a rohat emas!

Chun muborak bo'lsun, ey Mashrab, qizil qoning sening,  
Xo'b ish bo'ldi senga, jon berganing ofat emas.



---

<sup>1</sup>Baski – chunki; <sup>2</sup>barq – chaqmoq; <sup>3</sup>havodis – hodisalar;  
<sup>4</sup>xunrez – qon to'kuvchi.



\* \* \*

Yetmasa bodi sabo<sup>1</sup> g'unchag'a xandon bo'lmas,  
Ishqdin topmay asar kabk<sup>2</sup> suxandon bo'lmas.

Gul yuzun ko'rmaguncha gulshan ichinda bulbul,  
Aylanib hargiz o'shal yerda xushalhon<sup>3</sup> bo'lmas.

Ishq otashi yuzni sarig' aylagay, zoru zalil<sup>4</sup>,  
Jonini kuydurmasa oshiq yuragi qon bo'lmas.

Ko'zi otash, yuzi mahvash<sup>5</sup>, so'zi dilkash nazari  
Tushmaguncha qarotosh la'li Badaxshon bo'lmas.

Ikki zulfi ichinda gul yuzi raxshon<sup>6</sup> o'ldi,  
Vasl sham'i o'lmasa hijron tuni tobon bo'lmas.

Yig'lab dedim: «Menga furqat tunida oy yuzing och!»  
Ul dedi: «Mehr yog'in bo'lsa, nurafshon<sup>7</sup> bo'lmas.

Dema vaslim xushu hajrim alamidin dema so'z,  
Oshiq uldurki, asari tan, xabari jon bo'lmas!»

Anga dedim: «Netayin kuydurub o'ldurdi bu dard,  
Bu nechuk dardki, anga hargiz darmon bo'lmas.

Mashrabo, gar seni hijron o'qi ming pora qilur,  
G'am yema, la'l necha poradur, arzon bo'lmas.



<sup>1</sup>S a b o — tong yeli; <sup>2</sup>k a b k — kaklik; <sup>3</sup>x u s h a l h o n — yoqimli sayroqi;  
<sup>4</sup>z a l i l — xor-zor; <sup>5</sup>m a h v a s h — oyday; <sup>6</sup>r a x s h o n — yarqiroq; <sup>7</sup>n u r a f-  
s h o n — porloq.



\* \* \*

Dardim o'tig'a yoru birodar chidayolmas,  
Gar nola qilsam hazrati dovar<sup>1</sup> chidayolmas.

Dardimdin agar zarra asar<sup>2</sup> qilsa falakka,  
O'tlar chaqilur, charxi mudavvar<sup>3</sup> chidayolmas.

Sirri dilim izhor agar bo'lsa malakka,  
Ul moh<sup>4</sup> kuyar, shamsi<sup>5</sup> munavvar chidayolmas.

Ishq ahli agar nolayu faryod chiqarsa,  
Masjid kuyaru voizu minbar chidayolmas.

Dardimni agar solsa tarozui amalg'a<sup>6</sup>,  
Oni ko'rubon mo'minu kofar chidayolmas.

Voiz bo'lubon va'z desam masjid elig'a,  
Va'zim eshitib, masjidu minbar chidayolmas.

Ash'ori' laziz ila javob aydi bu Mashrab,  
Oni o'qubon ko'rsa Muzaffar chidayolmas.



---

<sup>1</sup>D o v a r – hakam, hukmron, majozan: Oллоh ma'nolari bor;  
<sup>2</sup>a s a r – ta'sir; <sup>3</sup>ch a r x i m u d a v v a r – aylana falak; <sup>4</sup>m o h – oy;  
<sup>5</sup>sh a m s – quyosh; <sup>6</sup>a m a l – odamning bu dunyodagi savobu gunoh ishlari;  
<sup>7</sup>a sh' o r – she'r.

---

\* \* \*

Xurshid yuzung shu'lasig'a jon chidayolmas,  
Kofir ko'zungni zulmig'a imon chidayolmas.

La'li labini ta'rifini sharh qilurg'a,  
Ham lavhi qalam, kotibi devon chidayolmas.

Ul nozanin ar noz ila jilvagar o'lsa,  
Ko'z solsa anga oqilu nodon chidayolmas.

Bul hol bila sho'xi parizod<sup>1</sup> guzar etsa,  
Huru pari-yu odamu g'ilmon<sup>2</sup> chidayolmas.

Men yutgan alamlarni agar zarracha tots'a,  
Doroi<sup>3</sup> jahon, xusravi<sup>4</sup> davron chidayolmas.

Ummong'a agar qatrai ashkim<sup>5</sup> duri yog'sa,  
Malloh<sup>6</sup> eliyu, donai marjon chidayolmas...



---

<sup>1</sup>Parizod – pari farzandi; <sup>2</sup>g'ilmon – jannatdagi yigitchalar; <sup>3</sup>doro – ega; <sup>4</sup>xusrav – shoh; <sup>5</sup>ashkim – ko'z yoshim; <sup>6</sup>malloh – kemachi.



\* \* \*

Mening rozi dili zorim farovondur, bitib bo'lmas,  
Ki ishq afsonasini daftar uzra sharh etib bo'lmas.

Tikansiz — gul, sadafsiz — dur, mashaqqatsiz hunar  
yo'qtur,  
Riyozat chekmaguncha yor vaslig'a yetib bo'lmas.

Ko'zum tushti yuzig'a, telmurub hayron bo'lib qoldim,  
Falakka qo'l uzotib shamsi anvarni<sup>1</sup> tutib bo'lmas.

O'shandog' Mustafoni<sup>2</sup> ushbu olamdin fano qildi,  
Xudog'a bu sababdin, ey birodar, bahs etib bo'lmas.

Xadangi<sup>3</sup> tiyri mijgoning meni siynamg'a<sup>4</sup> jo bo'ldi,  
Ko'ngul zaxmin ochib bedardlarga ko'rsatib bo'lmas.

Uzog' ermish o'shal zebo sanamni<sup>5</sup> qasri, ey Mashrab,  
Agar yuz yil jadal qilsang, bu manzilga yetib bo'lmas.



---

<sup>1</sup>Shamsi anvar — yorug' quyosh; <sup>2</sup>Mustaf o — Muhammad alayhissalom; <sup>3</sup>xadangi — kamon o'qi; <sup>4</sup>siynamg'a — ko'ksimga; <sup>5</sup>sanam — Olloh nazarda tutilgan.



\* \* \*

Malaksan<sup>1</sup> yo bashar<sup>2</sup>, yo huru g'ilmongan<sup>3</sup>, bilib bo'lmas,  
Bu lutfu bu nazokat birla sendin ayrilib bo'lmas.

Ajab berahm dilbarsan, ajab sho'xi sitamgarsan,  
Charog'i husni ro'yingdin<sup>4</sup> ko'ngulni ham uzib bo'lmas.

Yuzingning oftobini ko'rub hayron bo'lub qoldim,  
Falakka qo'l uzotib shamsi anvami olib bo'lmas.

Yuzung misli qizil guldur, ko'ngul chun<sup>5</sup> bulbuli shaydo,  
Bu gulning ishqidin bulbul chamandin ayrilib bo'lmas.

Kel, ey Mashrab, agar oshiq bo'lubsan bo'lmag'il g'ofil,  
Bu g'aflat uyqusidin, ey yoronlar, uyg'onib bo'lmas.



---

<sup>1</sup>M a l a k— farishta; <sup>2</sup>b a s h a r — odam; <sup>3</sup>g' i l m o n — jannatdagi xizmatkor yigitchalar; <sup>4</sup>r o' y i n g d i n — yuzingdan; <sup>5</sup>ch u n — xuddi, kabi.



\* \* \*

Ishq mazhabig'a taqviyu<sup>1</sup> toat chidayolmas,  
Tasbihu sano<sup>2</sup>, zuhdu ibodat chidayolmas.

Kim ko'rsa agar dilbari ra'noni bayakbor<sup>3</sup>  
Betoqat o'lub, ayshu farog'at chidayolmas.

Faryodu fig'onlar qiladurman kecha-kunduz,  
Hayratda qolib «qad» ila «qomat»<sup>4</sup> chidayolmas.

Adham sifat kirs a kishi faqr<sup>5</sup> yo'lig'a,  
Osoyish ila xayru saxovat chidayolmas.

Arbobi muhabbatga bo'yi kelsa sanamdin,  
Aqli ketaru sabru qanoat chidayolmas.

Ey zohid, agar ko'rsang o'shal mohliqoni<sup>6</sup>,  
Zuhdu vara'u<sup>7</sup> kashfu karomat chidayolmas.

Devona qilur ishqu sanam vasli chu Majnun,  
Nomusu hayo, aybu qabohat chidayolmas.

Ul jomi muhabbat mayidin kimki ichibdur,  
Johu<sup>8</sup> hashamu izzatu rohat chidayolmas.

Bu ishq elini zikru sanosig'a, ayo shoh,  
Beshubha biling, dasti irodat chidayolmas.

Mashrab, kelibon ko'ngul ila raqsi samo qil,  
Ishq mazhabiga obi tahorat chidayolmas.

---

<sup>1</sup>Taqviy — paxezgorlik; <sup>2</sup>sano — maqtov; <sup>3</sup>bayakbor — birdaniga;  
<sup>4</sup>qad ila qomat — azondagi «qad qomat issalot» — namoz vaqti keldi  
iborasidagi so'zlarga ishora; <sup>5</sup>faqr — sufiylik, darvishlik; <sup>6</sup>mohliqo — oy  
yuzli; <sup>7</sup>vara' — xudodan qo'rqish; <sup>8</sup>joh — amal, martaba.



\* \* \*

Sharh aylasam ishq daftarini jon chidayolmas,  
Ham jonu jahon, odamu hayvon chidayolmas.

Avrodi<sup>1</sup> muhabbat o'qubon masjidida kirsam,  
Masjid kuyaru toqi farozon<sup>2</sup> chidayolmas.

Mayxona kirib vasli sanamdin xabar olsam,  
Zohid kuyaru oqilu nodon chidayolmas.

Chun barq urubon<sup>3</sup> chiqsa o'shal ko'hga<sup>4</sup> Majnun,  
Do'zax kuyaru jannatu rizvon chidayolmas.

Ishq daftaridin gar o'qusam sura bayakbor,  
Beshubha biling, oyati Qur'on chidayolmas.

Gar na'ra urub tavsani<sup>5</sup> himmat mina qolsam,  
Olamg'a tushub sho'rishi afg'on chidayolmas.

Mashrab, sen agar da'vii ishq sanam etting,  
Billohki<sup>6</sup>, anga jisming ila jon chidayolmas,



<sup>1</sup>Avrod - yoddan ko'p o'qiladigan duolar; <sup>2</sup>toqi farozon - yuksak gumbazlar; <sup>3</sup>barq urubon - yashinday chaq nab; <sup>4</sup>ko'hga - toqqa; <sup>5</sup>tavsani - asov ot; <sup>6</sup>billoh - Xudo haqi.



\* \* \*

Naylayin, dildordin begona bo'ldum oqibat,  
Yuz g'amu hasrat bilan hamxona bo'ldum oqibat.

Bu judolig' hasratidin toqat etmay bir zamon,  
Hajr jomidin ichib mastona bo'ldum oqibat.

Necha yil ko'yida yurdum, yetmadim vaslig'a hech,  
Xonumonimdin kechib devona bo'ldum oqibat.

Yorni vaslig'a yetgaymanmu deb shomu sahar,  
O'rtanib hajr o'tig'a parvona bo'ldum oqibat.

Haddin os'ndi bu meni rasvolig'im olam aro,  
Xalqi olam ichra ko'b afsona bo'ldum oqibat.

Xonai ayshu nashotini<sup>1</sup> hama barbod etib,  
Chug'zdek<sup>2</sup> dar kunji<sup>3</sup> har vayrona bo'ldum oqibat.

Xonaqoyu Ka'badin, Mashrab, muroda yetmadim,  
May ichibon sokini<sup>4</sup> butxona bo'ldum oqibat.



<sup>1</sup>N a s h o t i n i — shodligini; <sup>2</sup>ch u g' z d e k — boyo'g'liday;  
<sup>3</sup>k u n j — burchak, go'sha; <sup>4</sup>s o k i n — yashovchi, o'tinuvchi.

\* \* \*

Onadin bo'ldum, jahonda bo'lmadim shod oqibat,  
Yig'anim bo'ldi fano mulkida<sup>1</sup> barbod oqibat.

Dona deb domi<sup>2</sup> muhabbat tushdi boshimga mening,  
Domi mehnatni<sup>3</sup> qurub yo'lumg'a sayyod<sup>4</sup> oqibat.

To'ldi paymonam mening, ko'yingda jon bermak ishim,  
Tig'i hasratni qo'yib halqumg'a jallod oqibat.

Ustuxonim<sup>5</sup> suda<sup>6</sup> bo'lg'uncha sening darding bilan,  
Shohsan, arzimga yet, qilsam kerak dod oqibat.

Sufiylik oson emasdur, har kishi rost anglasa,  
Qo'ydi yo'ldin xalqni noloyiq irshod<sup>7</sup> oqibat.

Qolmadi Jamshid, Iskandar, qani Afrosiyob?  
Topmadi dasti<sup>8</sup> ajaldin xona obod oqibat.

Mashrabo, nuqson o'zungda, shoh hidoyatli<sup>9</sup>, vale,  
Nafs — ham mardud, ham Fir'avn, Shaddod oqibat.



<sup>1</sup>Fano mulkida — o'tkinchilik yurtida; <sup>2</sup>domi — tuzog'i; <sup>3</sup>mehnat — mashaqqat; <sup>4</sup>sayyod — ovchi, qush ovlovchi; <sup>5</sup>ustuxonim — suyagim; <sup>6</sup>suda — maydalangan; <sup>7</sup>irshod — yo'l ko'rsatish; <sup>8</sup>dasti — qo'li; <sup>9</sup>hidoyatli — to'g'ri yo'lga yetaklovchi.

\* \* \*

Qildi bu charxi falak rasvoi davron oqibat,  
Boru yo'qim bo'ldi oxir yerga yakson oqibat.

G'ussayu g'amdin qutulmaydur g'arib boshim meni,  
Kimni hamdardim dedim qildi parishon oqibat.

Oxiri bilmam qayerga eltadur bul motamim,  
G'amdin o'zga bo'lmadi dardimga darmon oqibat.

Sarvi ozodlarni qaddin charxi gardun<sup>1</sup> qildi xam<sup>2</sup>,  
Sherlarning korini<sup>3</sup> marg<sup>4</sup> etti oson oqibat.

O'rtanurman otashi hijroniga misli sipand<sup>5</sup>,  
Menga kelganda qurub qoldi guliston oqibat.

Tarki suhbat ayladim, hamrohi noqobil<sup>6</sup> bilan,  
Rohi obodini tutdum, bo'ldi vayron oqibat...

Kinga dard aytayki munda mehribonim bo'lmasa,  
O'rtasa<sup>7</sup> olamni kori bopushaymon oqibat.

Xona-xona hasratim mulki dilimga jo'sh urar,  
Qilmadim Arsh ustiga bir lahza javlon oqibat.

Jon chiqar vaqtiga yettiyu uzildi tori umr,  
Bir so'rab kelsa na bo'lg'ay nomusulmon oqibat.

Vaslingga yetmakka oshiqning iloji yo'q uchun,  
Dard bo'ldi oxiri Mashrabga darmon oqibat.

<sup>1</sup>Charxi gardun — falak charxi; <sup>2</sup>xam — bukdi; <sup>3</sup>korini — ishini;  
<sup>4</sup>marg — o'lim; <sup>5</sup>sipand — isiriq; <sup>6</sup>noqobil — yaroqsiz, qo'ldan ish  
kelmaydigan; <sup>7</sup>o'rtasa — kuydirsa.

\* \* \*

Ey sabo, borsang duo davlatli sultōnimga ayt,  
Men uchun g'ambodadil<sup>1</sup> bo'lg'on parishonimga ayt.

Bir suchuk so'zning gadosi men jahonda bekasam<sup>2</sup>,  
Qayg'uluk ko'nglumni olg'on yaxshi mehmonimga ayt.

Mohtob<sup>3</sup> erdim jahondin bahra olmay boraman,  
Tiyra<sup>4</sup> baxtimdin borib xurshidi tobonimga ayt.

Oh bemunisligim qildi bu olamdin fano,  
Bu g'aribni arzini har shomi hijronimga ayt.

Chug'zdek<sup>5</sup> vayrona topmay bosh urubman har taraf,  
Dastu poyini<sup>6</sup> yiturgan xonavayronimga ayt.

Seli mehnat oxiri qildi bu holimni xarob,  
Menki o'lgan so'ng bu motamni go'ristonimga ayt.

Daftar och, bexonumonlig'din o'shal mahbubga,  
Laylining dog'ini Majnuni biyobonimga ayt.

Dilni mendin uzdi, qandoq dilni obod ayladi,  
Ham amirim, ham vazirim, begimu xonimga ayt.

G'am tarozusiga tushgan bori vazmin men bukun,  
Shoyad<sup>7</sup> ul dardimga yetgay shohi davronimga ayt.

---

<sup>1</sup>G'ambodadil — ko'ngli mahzun; <sup>2</sup>bekasam — kimsasizman; <sup>3</sup>mohtob — oydin; <sup>4</sup>tiyra — qora, qorong'i; <sup>5</sup>chug'zdek — boyo'g'lidek; <sup>6</sup>dastu poyini — qo'l-oyog'ini; <sup>7</sup>shoyad — zora;

Ey habibim<sup>1</sup>, munisim, jonim, azizim, hamdamim,  
Mustahiq<sup>2</sup>lardin<sup>2</sup> duoye Shohimardonimga ayt.

Xonumonimni oning yo'lida toroj ayladim,  
Arzi ixlosu duo mendin u sultonimga ayt.

Nangu nomusdin kechib kirdim malomat yo'liga,  
Ham ko'zumni oqi, hamda sham'i nuronimga ayt.

Rost kelmaydur ulug' dardimni izhor aylasam,  
Jon fido qildim oni yo'lida, jononimga ayt.

Mashrabo, umrumni oxir qildi bu charxi falak,  
Ul suxansanj<sup>3</sup> suxanfahmu<sup>4</sup> suxandonimga ayt.



---

<sup>1</sup>H a b i b i m – seviklim; <sup>2</sup>m u s t a h i q – munosib, arziydigan; <sup>3</sup>s u x a n -  
s a n j – so'zshunos; <sup>4</sup>s u x a n f a h m – so'zni anglaydigan.

\* \* \*

Namangon shahridin ketsam, meni yo'qlar kishim bormu?  
G'ariblik shahrida yursam, meni yo'qlar kishim bormu?

Qani qavmu qarindoshim, bu yo'lda bo'lsa yo'ldoshim,  
Ko'zimdin oqizib yoshim, meni yo'qlar kishim bormu?

Muhabbat sharbatin ichtim, qozondek qaynabon toshtim,  
Bu foniy dunyadin kechtim, meni yo'qlar kishim bormu?

Tushubdur boshima savdo, ramuzi<sup>1</sup> ishqdin g'avg'o,  
O'ziga ayladi shaydo, meni yo'qlar kishim bormu?

Turarg'a toqatim yo'qdur, yurarga holatim yo'qtur,  
Yurakda ishq o'ti cho'qdur<sup>2</sup>, meni yo'qlar kishim bormu?

Qarorim yo'q turay desam, Namangonda yuray desam,  
Jahonni sayr etib kezsam, meni yo'qlar kishim bormu?

Bu miskin zor Mashrabning kishi holini so'rmaydur,  
Bu yerdin bosh olib ketsam, meni yo'qlar kishim bormu?

---

<sup>1</sup>R a m u z — sir-sinoat; <sup>2</sup>ch o' q — ko'p.



\* \* \*

Ne savdolar<sup>1</sup> bosha solding, bu savdolar tuganmazmu?  
Ki band etting ayog'larni, yana bandlar yozilmazmu?

Payomi<sup>2</sup> vasl eshitib men yurarman shahrdin shahra,  
Sagi<sup>3</sup> dargoh bo'lg'onlar bu saglardin qutulmazmu?

Sari zulfig'a band bo'lg'on jahon davri tasalsuldur<sup>4</sup>,  
Ki asbobi jahon torin birisidin uzulmazmu?

Ki ishq daryosig'a band solmog'ing bisyor<sup>5</sup> mushkuldur,  
Ki toqi ro'yi olam saddi roh<sup>6</sup> etsang surulmazmu?

Tavofi olami dil qil jahonda har bashardin sen,  
Agar bir dilni sen buzsang, yuzar<sup>7</sup> Ka'ba buzulmazmu?

Jununni qo'zgat, ey Mashrab, bular mahkumi tahqiqdur<sup>8</sup>.  
Ki tahqiq sirridin fahm etki, zulfidek tugulmazmu?



<sup>1</sup>Savdolar — ko'ngiliklar; <sup>2</sup>payomi — xabari, daragi; <sup>3</sup>sagi — iti;  
<sup>4</sup>tasalsul — zanjir, silsila; <sup>5</sup>bisyor — ko'p; <sup>6</sup>saddi roh — yo'l to'sig'i;  
<sup>7</sup>yuzar — yuzlab; <sup>8</sup>tahqiq — haqiqat qilinadigan.

\* \* \*

Tiriklikda judo bo'lg'on kishi yorini ko'rgaymu?  
Firoqi hasratida sarg'arib yo ko'rmay o'lg'aymu?

Kuyub biryon<sup>1</sup>, bo'lub hayron, visolin topmayin giryon<sup>2</sup>,  
Bahor ayyomida bulbul kibi gulg'a qo'shulg'aymu?

Nechuk bedodlig<sup>3</sup> ish bo'ldikim, sendin judo bo'ldum,  
Oqarg'on ko'zlarimg'a davlati diydor bo'lg'aymu?

Men ayturman: «Ko'ngul uzg'il!» Bu ko'nglum ko'ngul  
uzmaydur,  
Ko'ngul ayturki: «Ey nodon, ko'ngul bergan  
uzulg'aymu?»

Kel, ey soqiy, qadah sung'il, bo'loyin masti mustag'raq<sup>4</sup>,  
Inoyat<sup>5</sup> bo'lmasa sendin to'kulgan kosa to'lg'aymu?

Seni ishqingda, ey dilbar, ki menda qolmadi toqat,  
Yana ishqingda oh ursam guzori yor bo'lg'aymu?

Azaldin oshno bo'lmoq bataqdiri xudo, Mashrab,  
Bu hijron ilgidin, ey do'stlar, jonim qutulg'aymu?

---

<sup>1</sup>B i r y o n — qovurilib; <sup>2</sup>g i r y o n — yig'loqi; <sup>3</sup>b e d o d l i g' — adolatsizlik; <sup>4</sup>m u s t a g' r a q — ichib uchib qolgan; <sup>5</sup>i n o y a t — lutf-marhamat.



\* \* \*

Mening jonimni kuydurmoq uchun oromijon gulrux,  
Dilimni g'ussadin kuydurdi ul nomehribon gulrux.

Ko'ngul bog'i ochildi, to'bi baxtim samar<sup>1</sup> berdi,  
Hidoyat<sup>2</sup> gulshanida andalibi<sup>3</sup> bo'ston gulrux<sup>4</sup>.

Qadalsa ko'ksuna tiyri balo paykoni mujgoning<sup>5</sup>,  
Mening jonimg'a javr berdi ul ofatijon gulrux.

Meningdek necha sargardon bordur yo'lda o'lturgan,  
Qilib Majnunni motam shahriga bexonumon gulrux.

Kamon abro'larig'a<sup>6</sup> jon qushi sayd o'ldi, naylarman  
Ki men, ul sho'x chashmi fitnai oxir zamon gulrux.

Muyassar bo'ldi menga avyalu oxir haqiqatdin,  
Qadam qo'ydi ko'ngulni kulbasiga mehmon gulrux.

Tamosho qilg'udek fursat kerak toqat qilib tursa,  
Yuzun ochib takallum ayladi<sup>7</sup> shirin zabon<sup>8</sup> gulrux.

Alamli Mashrab erdim, ul parining dardidin kuydum,  
Meni oxir damimda qildi benomu nishon gulrux.

---

<sup>1</sup>Samar — meva; <sup>2</sup>hidoyat — to'g'ri yo'lga yo'llanish; <sup>3</sup>andalib — bulbul;  
<sup>4</sup>gulrux — gulyuzli; <sup>5</sup>paykoni mujgoning — kipriklaring o'qi;  
<sup>6</sup>abro'larig'a — qoshilariga; <sup>7</sup>takallum ayladi — gapirdi; <sup>8</sup>zabon — til.

\* \* \*

Tasadduqing<sup>1</sup> bo'layin, ey pari, jamoling och,  
Olurg'a jon tilasang tig'i bermaloling och.

Zilol chashmasidin Xizr topdi umri tavi<sup>2</sup>,  
Menga baqolig' uchun chashmai ziloling och.

Qaddu yuzungni qilib orzu ko'ngul qondur,  
Bu qonni ichmak uchun sarvi navniholing och.

Bu ikki zulfing ila qad misoli jon derlar,  
Ki «jim», «alif» ila «nun» yuzung uzra xoling och.

Hiloli iydki har yil boshinda ikki tug'ar,  
Bir oy boshingda tug'ulgan ikki hiloling och.

Ko'ngul sururini, aytsam, surohiy<sup>3</sup> may derlar,  
Mening mufarrihima<sup>4</sup> la'li<sup>5</sup> bemisoling och.

Kelur may o'trusida hajr shomi boshig'a o'q,  
Qilib rahm bu kun Mashrabingga maqoling och.

---

<sup>1</sup>Tasadduqing – sadag'ang; <sup>2</sup>tavi – uzun, uzoq; <sup>3</sup>surohiy – shisha, qadah; <sup>4</sup>mufarrihima – shodligim uchun; <sup>5</sup>la'li – «lab» istiorasi.

\* \* \*

Meni avvora bo'lg'onga firoq o'ti davo ermiş,  
Kuyub ishqing bila o'lماك bu oshiqqa ravo<sup>1</sup> ermiş.

Na bo'lg'ay so'z qotib o'tsang meni sargashtaga<sup>2</sup>, dilbar,  
Na aylay jannatu hurni, menga shul muddao ermiş.

Yetibdur halquma jonim, nachunkim sabr etay men zor,  
G'arib jonim olur bo'lsang, nigoro, marhabo ermiş.

Sening dardi firoqingdin yuragim tah-batah<sup>3</sup> qondur,  
Ko'zum yoshliq, dilim g'amlik, chu rangim kahrabo<sup>4</sup> ermiş.

Bu olam ichra mundog' giriftori balo qilding,  
Qiyomat qozisi bo'lsang g'amu hasrat guvoh ermiş.

Tamomi obidu<sup>5</sup> zohid qo'liga tuhfasin olsa,  
Kuyub, biryon bo'lib oshiq niyozi<sup>6</sup> oh-voh ermiş.

Namozu taqvisin<sup>7</sup> zohid qilur olam aro mashhur,  
O'gurub subhasin<sup>8</sup> tinmay ishi doim riyo ermiş.

Na ayshi jannatu rizvon, na parvoi chahi Bobil,  
Kezib olam aro yig'lab so'rog'i dilrabo ermiş.

Ayo olamni kuydurgan, jahonga o't yoqib yurgan,  
Tarahhum aylabon ko'rgil kamina benavo ermiş.

Agar mahshar kuni Mashrab ko'ngulni sof etay desang,  
Tasadduq<sup>9</sup> aylagi joningni usru podsho ermiş.



<sup>1</sup>R a v o — mumkin; <sup>2</sup>s a r g a s h t a — sarson-sargardon; <sup>3</sup>t a h - b a t a h — qavatma-qavat; <sup>4</sup>k a h r a b o — sariq tosh, yantar; aynan: somon tortar; <sup>5</sup>o b i d — ibodat qiluvchi; <sup>6</sup>n i y o z i — iltijosi; <sup>7</sup>t a q v i s i n — parhezgarlik, xudojo'ylik; <sup>8</sup>s u b h a s i n — tasbihini; <sup>9</sup>t a s a d d u q — sadag'a.

\* \* \*

Bir boqishingga jumlai<sup>1</sup> jonona tasadduq,  
Shahlo ko'zungga oqilu devona tasadduq.

Gar pardasini<sup>2</sup> ochsayu dilbar menga boqsa,  
Mash'al yuziga men kabi parvona tasadduq.

Soqiy bo'lubon sunsa qadah noz ila har dam,  
Ul g'amzasig'a sog'aru paymona<sup>3</sup> tasadduq.

La'li labidin jur'ai<sup>4</sup> mayni tilab oldim,  
Dur tishlariga gavhari durdona tasadduq.

Yusuf sifat ul jilva qilib kelsa qoshimg'a,  
Men o'rgulayin, Ka'bayu butxona tasadduq.

Joningni agar ber desa ul dilbari ra'no,  
Jonim berayin yo'lida mardona tasadduq.

Mujgon o'qig'a qilsa bu jonimni nishona,  
Ko'ksun berayin yo'lida hayrona tasadduq.

Gulgun<sup>5</sup> kiyibon chiqsa o'shal dilbari ra'no,  
Majnun bo'lubon o'rgulayin yona tasadduq.

Va'da qilibon aydi: «Jamolimni ko'rarsan»,  
Vahdat mayidin ichki, bu paymona tasadduq.

Mashrab, sari zulfung tarasa rashki keladur,  
Zulfung toridin bodi sabo, shona tasadduq.

<sup>1</sup>J u m l a i — hamma, barcha; <sup>2</sup>p a r d a s i n i — chimmatini, yuz yopinchig'ini; <sup>3</sup>s o g ' a r u p a y m o n a — may va qadah; <sup>4</sup>J u r ' a i — bir qultum; <sup>5</sup>g u l g u n — gulrang, qizil.



\* \* \*

Lomakonni shahrida oshiqni shaydo qildi ishq,  
Anbiyoyu<sup>1</sup> avliyolarni huvaydo<sup>2</sup> qildi ishq.

Jilvasini ko'rsatib zohirda elga rang-barang,  
Oru nomusdin kechib olamg'a g'avg'o qildi ishq.

Yoshi yetmishga yetib sotturdi o'zni Boyazid,  
Ma'rifat bozorida, ko'rgil, na savdo qildi ishq.

Shayx Shibliy, shayx Attor'ul «Analhaq» suhbatin —  
Qurdi, ichdi bodani<sup>3</sup>, Mansurni dordo qildi ishq.

«Kufr aytti!» deb Nasimiy terisini so'ydilar,  
Go'shtu po'stin so'zlatib olamga go'yo<sup>4</sup> qildi ishq.

Shayx San'ondin bo'lub to'rt yuz murid sohibkamol,  
Ko'rdi tarsozodani xukbonu<sup>5</sup> tarso qildi ishq.

Bildiyu eshitti Mashrabning qarori yo'q ekan,  
Zohirin go'yo qilib, botinin bino qildi ishq.



---

<sup>1</sup>A n b i y o — nabiylar, payg'ambarlar; <sup>2</sup>h u v a y d o — namoyon qildi;  
<sup>3</sup>b o d a — may (Ollohga bo'lgan otashin muhabbat ramzi);  
<sup>4</sup>g o ' y o — so'zlovchi, gapiradigan; <sup>5</sup>x u k b o n — cho'chqaboqar.

---

 • 

## MUSTAZODLAR

\* \* \*

Ey moh<sup>1</sup>, netay, ishqing o'ti ayladi rasvo,  
Devona bo'lubman,  
Ishqing o'ti siynam uzadur, senga na parvo,  
Parvona bo'lubman.  
Ul damki, o'shal moh yuzun bir yo'la ko'rdum,  
Chun xobu<sup>2</sup> xayoldek,  
Nayrangi raqib o'ldimu yo taqdiri Oллоh,  
Begona bo'lubman.  
Men bandai miskinki g'amnoku hazinman,  
Sen pushti panohim,  
Ummidi tarahhum<sup>3</sup> bila kunduz-kecha sango,  
Farzona bo'lubman.  
Furqatda<sup>4</sup> kezib kechayu kunduz meni mahjur<sup>5</sup>,  
G'am dashtida doim,  
Faryodu fig'on ila chekib nola ila oh,  
G'amxona bo'lubman.  
Mashrab holini so'rg'ali olamda kimi bor?  
Kim dodiga yetgay?  
Yo'qdur bu buzug' dilni so'rar mahrami<sup>6</sup> aslo,  
Vayrona bo'lubman.



---

<sup>1</sup>M o h - oy; <sup>2</sup>x o b - tush, uyqu; <sup>3</sup>t a r a h h u m - rahm-shafqat;  
<sup>4</sup>f u r q a t d a - ayriliqda; <sup>5</sup>m a h j u r - judo bo'lgan; <sup>6</sup>m a h r a m - sirdosh.

\* \* \*

Nogoh ko'rubon ko'chada ul sarvi xiromon,  
Qosh qoqtiyu ketti,  
Qosh uchida imo qilib ul jilvasi larzon<sup>1</sup>,  
«Yurgin», dedi ketti.  
Ul sho'x pari, ko'zlari ofat, so'zi otash,  
Hay-hay, ne javohir,  
Bir sheva<sup>2</sup> qilib etti meni o'ziga hayron,  
Hushum bori ketti.  
Ul zulfi parishon solibon chiqsa bayakbor<sup>3</sup>,  
Men shukr etarman,  
Yuz martaba jonimni qilay men anga qurbon,  
O't yoqtiyu ketti.  
Ham jilva bilan borur edi uyiga ul sho'x,  
Bag'rimni qilib qon,  
Ming martaba ta'zim ila ul sarvi xiromon,  
Jon oldiyu ketti.  
Mashrabni bu dunyoda xarob etgan o'zungsan,  
Ey ko'zlari shahlo,  
Aydi so'zini — yoydi bu dunyoda farovon,  
Dod ettiyu ketti.



<sup>1</sup>L a r z o n — titraydigan; <sup>2</sup>sh e v a — noz, ishva; <sup>3</sup>b a y a k b o r — birdaniga, qo'qqisdan.

\* \* \*

Vaslingni topay deb, sanamo<sup>1</sup>, fikru g'amim bor,  
Bir necha zamondur,  
Hijronu firoqu alamu dardi dilim bor,  
Bag'rim to'la qondur.  
«Vallayl<sup>2</sup>» o'qub ishtiyoqim senga tushubdur,  
Hargiz xabaring yo'q,  
Hasratli yurak, dardu malomat vatanim bor,  
Hajring chu yomondur.  
Gah Majnun o'lub dashtu biyobong'a chiqarman,  
Hamrohlarim — ohu.  
Gah Layli bo'lub husnu latofat chamanim bor,  
Xush gulshani jondur.  
Gohi boshima toj qo'yubon shoh bo'lurman,  
Ul davlati vasling,  
Bul turfa ajab faqr eliga<sup>3</sup> saltanatim bor,  
Jamshidi zamondur.  
Ishq mazhabida savmu<sup>4</sup> salovat hama maqbul,  
Hargiz anga shak<sup>5</sup> yo'q  
Zohidlar aro toatu taqviy<sup>6</sup> xijilim bor,  
O'z yo'lim omondur.  
Layli sanamim ko'rdimu jonim bera qoldim,  
Oson qutulay deb.  
Devonalig'im holati Majnun asarim bor,  
Ishq yo'li yomondur.  
Bir kecha dedim: «Ey sanamo, qoshima borg'il!»  
Yor aydi: «Sabr qil!»  
Dedi: «Netayin yonima, oh, shum raqibim bor,  
Ul bilsa yomondur».

---

<sup>1</sup>S a n a m o — ey but, xoch; <sup>2</sup>V a l l a y l — «Qur'on»dagi sura: Tun bilan qasam ichaman; <sup>3</sup>f a q r e l i g a — sufiylarga, darvishlarga; <sup>4</sup>s a v m — ro'za; <sup>5</sup>sh a k — gumon; <sup>6</sup>t a q v i y — parhezgarlik, xudojo'ylik.



Tasdiqi so'zum birdur, vale, ikki emasdur,  
Vallohiyu billoh'.  
Ammoki xaloyiqqa ajab ikki tilim bor,  
Bul sirri nihondur.  
Vaslingga yetay deb yana dilxasta bu Mashrab,  
Doim jadal aylar.  
Yig'lab yugurub kechayu kunduz talabim bor,  
Ko'ksun to'la qondur.



\* \* \*

Sen shohi muluk<sup>1</sup> saltanating olama to'lg'on  
Kim, barchadin a'lo.  
Bu jonu ko'ngul ishqing aro volayu<sup>2</sup> hayron,  
Ey orazi<sup>3</sup> zebo.  
Ko'zuma qadam, kulbama kel, jonima minnat,  
Ey sho'x pari paykar<sup>4</sup>.  
Men bosg'on izing tufrog'ini surma qilurman,  
Misli guli ra'no.  
Men o'ldimu ishqingda jafolarni chekib ko'b,  
Ey sho'xi jahonim,  
Dilbar, seni yuzungni ko'ray deb yuragim qon,  
Men oshiqi shaydo.  
Asrori<sup>5</sup> jahon sendin o'zga kim bilur ermish,  
Sen barchadin ogoh,  
Har kimki bilurman desa ul barchasi yolg'on,  
Uldur yuzi qaro.  
Dunyoni tepib, ishqingda devona kelibman.  
G'urbatzada<sup>6</sup> Mashrab.  
Tanbur olibon qo'lg'a qilur nolayu afg'on,  
Hajr o'tig'a laylo.



<sup>1</sup>M u l u k — shohlar; <sup>2</sup>v o l a — shaydo; <sup>3</sup>o r a z i — yuzi, chehrasi; <sup>4</sup>p a y - k a r — tan, vujud; <sup>5</sup>a s r o r — sirlar; <sup>6</sup>g' u r b a t z a d a — g'ariblik adoyi tamom qilgan.



\* \* \*

Bul xasta vujudimni mening o'rtadi butkul,  
Ul zulfi parishon.  
Ul gul yuzin ishqida men vola<sup>1</sup> bulbul,  
Ul g'unchai xandon,  
Bir rahm qilib so'rmadi holimni nechuk deb,  
Ul orazi gulgun<sup>2</sup>.  
Yuz va'da qilib birga vafo qilmadi bir yo'l,  
Ul va'dasi yolg'on.  
Parvona bo'lub ishq o'tida kuysa bu jonim,  
Bu dardi alamdin.  
O'tlarni yoqib kelsa meni xonama ul kun,  
Ul otashi javlon.  
Ishqing o'tig'a kuydi, ne qilsinki bu jismim,  
Yo'q sabru qarorim.  
Ovozai husnungki solib olama g'ulg'ul<sup>3</sup>,  
El barchasi hayron,  
Sensiz ne qilay ushbu jahonda, kuydi bu jonim,  
Sensen menga mahvash.  
Aytur alamim qilsa qabul ul mahi tobon<sup>4</sup>,  
Jonim anga qurbon.  
Bir necha mahallar yurubon rozi dil aytdim,  
Devonai Mashrab.  
Berahm ekan, kelmadi birdam qoshim uzra  
Ul zolimi davron.



<sup>1</sup>Vola – maftun, shaydo; <sup>2</sup>orazi gulgun – yuzi gulrang; <sup>3</sup>g'ulg'ul – g'ulg'ula, shov-shuv; <sup>4</sup>mahi tobon – porloq oy.

\* \* \*

Ko'rdum yana bir mohliqo<sup>1</sup> ofati jone,  
Guldek labi xandon.  
Bir ishva bila oldi ko'ngul sho'xi zamone,  
Men besaru somon.  
Gar ko'rsam o'shal javru jafopeshani<sup>2</sup> bir yo'l,  
Do'stlar, alamimdin  
Izhor qilib aytayinmu necha zabone<sup>3</sup>.  
Qolmas edi armon  
O'ldum sitamu javru jafongdin, meni nokom<sup>4</sup>,  
Rahm ayla holimg'a.  
Bir lutf qilib holima boqsangchi nihone,  
Oydek yuzi tobon<sup>5</sup>.  
Sen shohki — men xasta gado zor yugurubman,  
Vaslingni topay deb.  
Bir muflisi<sup>6</sup> bechora g'amingdin nogirone,  
Har ko'chada hayron.  
Ishqing alami ko'ngluma o'tlar yoqa qoldi,  
Valloh<sup>7</sup>, netarman?  
Yo'qdur alamu kulfatu faryodimi soni,  
Ham nolayu afg'on.  
Savdoi sari zulfungga devona bo'lubman,  
Toqat qila olmay.  
Hayron bo'lubon, oh urubon, nola qilurman,  
Dar dashtu biyobon.  
Topmay yuragim dardiga darmon yuradurman,  
Beholu parishon.

<sup>1</sup>M o h l i q o — oy yuzli; <sup>2</sup>j a f o p e s h — odati jafu;  
<sup>3</sup>z a b o n — so'z; <sup>4</sup>n o k o m — bebaxt, baxtsiz; <sup>5</sup>t o b o n — porloq;  
<sup>6</sup>m u f l i s — yo'qsil, qashshoq; <sup>7</sup>v a l l o h — Yo Olloh;

Sen lutf qilib bergil o'shal dardga davoni,  
Ey dilbari xo'bon<sup>1</sup>.  
Ranjurlig'im<sup>2</sup> haddan oshib ketti, davo qil,  
Vaslingni mayidin.  
Har lahza meni jonima zulm etma ayone,  
Bo'ldi yuragim qon.  
Oshufta bo'lub, zor yurub g'amzada<sup>3</sup> Mashrab,  
Dar ko'yi malomat.  
Savdoi sari ko'chayu bozor, yomone,  
Ovvorayu sarson.



---

<sup>1</sup>X o' b o n — go'zallar; <sup>2</sup>r a n j u r l i g' i m — xastaligim; <sup>3</sup>g' a m z a d a — g'am adoyi tamom qilgan.

\* \* \*

Har dam meni kuydurguchi ul ishvanamodur<sup>1</sup>,  
Mavzun<sup>2</sup> qadi shamshod.  
Siymin<sup>3</sup> zaqanu<sup>4</sup> lola ruxu<sup>5</sup> mohliqodur<sup>6</sup>,  
Chun huru parizod.  
La'li labi ag'yorg'a jonbaxsh va lekin —  
Baxtimni ko'runkim,  
Har lahzada ming martaba jonimni olodur,  
Ming oh ila faryod.  
Hijron cheriki<sup>7</sup> qildi xusumat senga, ey jon,  
Bo'lgil anga voqif.  
Ohim o'qu xam qaddim ani otg'ali yo dur,  
Bo'l anga daraftod<sup>8</sup>.  
Har qaysi saro<sup>9</sup> uzra xirom etti shitobon,  
Chun uchti ko'zimdin,  
Ore<sup>10</sup>, kishini yori pari bo'lsa uchodur,  
Sur'at bila chun bod<sup>11</sup>.  
Toki menga bedod<sup>12</sup> ila javru sitam etting,  
Bul so'zni eshitgil:  
Mahbublarning rasmi bori mehru vafodur,  
Na zulm ila bedod.  
Mashrab bu sifat toza suxan aylasa izhor,  
Sen qilma taajjub,  
G'aybdin oni ko'ngliga ilhomi xudodur,  
Bo'lgil anga munqod<sup>13</sup>.

---

<sup>1</sup>Ishvanamo — ishva qiluvchi; <sup>2</sup>mavzun — xushbichim; <sup>3</sup>siymin — kumush; <sup>4</sup>zaqan — iyak; <sup>5</sup>lolarux — lola yuz; <sup>6</sup>mohliqodur — oy yuzlidir; <sup>7</sup>cheriki — lashkari; <sup>8</sup>daraftod — tashlanmoq; <sup>9</sup>saro — maskan; <sup>10</sup>Ore — ha; <sup>11</sup>bod — shamol; <sup>12</sup>bedod — zulm; <sup>13</sup>munqod — iqror.

\* \* \*

Shirin suxane, mohi<sup>1</sup> bashar, hur liqoye<sup>2</sup>,  
Husn ahlig'a sardor,  
Jonimni halok etmak uchun turfa baloye,  
Bir zolimi xunxor.  
Shaydoyu sarosimayu devona qilibdur,  
Bechora ko'ngulni,  
Boshimg'a, base yog'durubon tiyri<sup>3</sup> jafoye,  
Ul sho'xi sitamkor.  
Gar istar esang yor jamolini ko'ray deb,  
Olamda topilmas —  
Mendek yana bir mustahiqu<sup>4</sup> zori gadoye,  
Ishqingga giriftor.  
Qaddim xam o'lub ta'biyati<sup>5</sup> egma qoshingdin,  
Yo ayladi ta'zim,  
Ul mushafi<sup>6</sup> oraz uza ko'rgach ikki «yo» ye,  
Ul qavsi quzahvor<sup>7</sup>.  
Oraz bila zulfiga jahon xalqi demishlar:  
«Bir-birga qarindosh»,  
Bul turfaki hamsoya bo'lub Hindu Xitoye,  
Ko'rgach oni har yor.  
Qosh «yo» yi bila kiprik o'qin har dam etibdur  
Ko'ksumni nishona,  
Me'mori qazo<sup>8</sup> jismim uyin etti binoye,  
Ul o'qqa sazovor.  
O'tlar choqilib, gurkiragan ra'd<sup>9</sup> emasdur  
Charx ustig'a har dam,

<sup>1</sup>M o h — oy; <sup>2</sup>l i q o — yuz; <sup>3</sup>t i y r i — o'qi; <sup>4</sup>m u s t a h i q — haqli, loyiq, muhtoj; <sup>5</sup>t a' b i y a t i — tobeligi; <sup>6</sup>m u s h a f — «Qur'on»; <sup>7</sup>q u z a h - v o r — kamalakday; <sup>8</sup>q a z o — qismat; <sup>9</sup>r a' d — momaqaldiroq;





\* \* \*

Ko'rdumki bukun parivashu dilbari ra'no,  
Yo'l uzra shitobon,  
Xush suvratu xush xil'atu<sup>1</sup> xush raftoru zebo,  
Chun kabki<sup>2</sup> xiromon.  
Pur ishvoyu<sup>3</sup> pur g'amzayu siymin zaqandur<sup>4</sup>,  
Dahr ichra pur oshub<sup>5</sup>,  
Ham ofati jon, jumlai mahvashlarga yakto<sup>6</sup>,  
Sarfitnai<sup>7</sup> davron.  
Hay-hay, ne balo, — ofati jonimmu parivash,  
Bedodu<sup>8</sup> sitamgar,  
Bir boqishig'a qildi meni besaru bepo<sup>9</sup>,  
Ul sarvi xiromon.  
Shamshod qadu jilvagaru jomasi<sup>10</sup> gulgun,  
Zarina kulohi,  
Kokil bila gisularidur<sup>11</sup> anbari soro<sup>12</sup>,  
Oydek yuzi tobon.  
Shirin suxanu pista dahan<sup>13</sup>, ruxlari<sup>14</sup> chun gul,  
Qoshlari hiloli,  
La'li shakaru tishlari dur, ko'zlari shahlo,  
Chun husni farovon.  
Nogoh bu sifat birla o'shal sho'xi baloni,  
Ko'rgach meni bedil,  
Bo'ldum anga vobastayu<sup>15</sup> ham volayu shaydo,  
Oshuftai hijron.

<sup>1</sup>Xil'at — uski kiyim, xalat; <sup>2</sup>kabk — kaklik; <sup>3</sup>pur ishva — serishva; <sup>4</sup>siymin zaqan — kumush iyak; <sup>5</sup>oshub — serg'avg'o; <sup>6</sup>yakto — yagona; <sup>7</sup>sarfitna — fitnaboshi; <sup>8</sup>bedod — zolim; <sup>9</sup>besaru bepo — qo'l-oyoqsiz; <sup>10</sup>jomasi — to'ni; <sup>11</sup>gisu — soch o'rimi; <sup>12</sup>soro — toza, asl; <sup>13</sup>dahan — og'iz; <sup>14</sup>ru x — yuz, chehra; <sup>15</sup>vobasta — asir, bog'liq;





\* \* \*

Mujgoni xadanging<sup>1</sup> yurakim qildi makone,  
To jo bo'loyin deb.

Obod ko'ngul kishvarini<sup>2</sup> buzdi zamone,  
Sahro bo'loyin deb.

Shamshod qading raxnagari<sup>3</sup> bog'i dilimdur,  
Bo noziyu ishva,  
Qumrilayin ul nola qilur turfa fig'one  
Shaydo bo'loyin deb.

Ovoza bo'lub menga xati nakhati<sup>4</sup> zulfung,  
Har bodi sabodin.  
Chin qofilasi<sup>5</sup> keldiki, chu bori<sup>6</sup> garoni<sup>7</sup>,  
Savdo bo'loyin deb.

Tuyg'un qarashing qildi meni qaydi<sup>8</sup> baloye,  
Hasratda qolibman.  
Lochin turushing o'rtadi sahroyi jahonni,  
Tanho bo'loyin deb.

Oinai husnungga qarab qildi suxan soz<sup>9</sup>,  
Bechora bu ko'ngul.  
To'ti bo'lubon la'li labing qildi bayone,  
Go'yo bo'loyin deb.

Bir lahzada devona bo'lub hushyor bu ko'ngul,  
Mastona ko'zungdin.

---

<sup>1</sup>Xadang — kamon o'qi; <sup>2</sup>kishvarini — o'lkasini;  
<sup>3</sup>raxnagari — buzuvchisi; <sup>4</sup>nakhat — bo'y, hid; <sup>5</sup>qofilasi — karvoni;  
<sup>6</sup>bor — yuk; <sup>7</sup>garon — og'ir; <sup>8</sup>qayd — asir, mahbus; <sup>9</sup>soz — so'zladi.

O'ttek tutashib keldi o'shal soqii davron,  
Sahbo<sup>1</sup> bo'loyin deb.

Ko'rdumki, yuzung lola sifat toza bo'lubtur,  
Ey naxli<sup>2</sup> murodim.  
Ishqingda yuzum bo'ldi ajab rangi xazone,  
Ra'no bo'loyin deb.

Rizvonki, zulfungga seni shonasifatdur<sup>3</sup>,  
Mushtoqi jamoling.  
Jannat qadamingga bo'lubon xush nigorone<sup>4</sup>,  
Ma'vo bo'loyin deb.

Hasrat bila dog'ing yurakim tong qilibdur,  
Hajring o'ti anda.  
Ko'ksumda unub lola menga berdi nishone,  
Sahro bo'loyin deb.

Mashrab, seni vasling yo'lida besaru somon<sup>5</sup>,  
Har lahza kelib ko'r.  
Ishqing sirini qildi yurak ichra nihone,  
Oshno bo'loyin deb.



---

<sup>1</sup>Sahbo — qizil may; <sup>2</sup>naxli — nihol; <sup>3</sup>shonasifat — taroqday;  
<sup>4</sup>nigoron — intizor, intiq, zor; <sup>5</sup>besaru somon — dalli devona.

\* \* \*

Ko'z uchi<sup>1</sup> bilan dilbari ra'no menga boqti,  
Hayron bo'la qoldim.  
Yuz nozu karashma bila yor qoshini qoqti  
Sarson bo'la qoldim.  
«Jonimni olur bo'lsang ol!» deb yoniga bordim,  
Kuldi «Nari tur!» deb,  
Bexud qilibon boshima savdosini soldi,  
Nolon bo'la qoldim.  
Aydimki yana: «O'rguloyin, qoshima kelsang»,  
Yuzuni o'girdi.  
Hushum ketibon ko'zdagi yosh qon bo'lub oqti,  
Giryon<sup>2</sup> bo'la qoldim.  
Boskan izini ko'zuma surttum nola aylab,  
«Dilbar, qaydasan?» deb  
Chiqmadi sado, ishq o'tini jonima yoqti,  
So'zon<sup>3</sup> bo'la qoldim.  
Oh urdumu aydimki: «Seni qaydin toparmen  
Izlab?» Dedi: «Sabr et!»  
Hech qolmadi sabrim, jigarim suv bo'lub oqti,  
Ummon bo'la qoldim.  
Mashrabga sahar yori shirin so'z qotib o'tti,  
Jondin kecha qoldim.  
Devona qilib, jonim olib, billohki<sup>4</sup>, yiqti,  
Qurbon bo'la qoldim.



<sup>1</sup>Ko'z uchi — ko'z qiri; <sup>2</sup>giryon — yig'loqi; <sup>3</sup>so'zon — kuyundi;  
<sup>4</sup>billohki — xudo haqi (qasam).



\* \* \*

Ishqingda kuyub kul bo'lubman, xabaring yo'q,  
Ey dilbari shirin.  
Vaslingga tanu jon beribman, asaring yo'q,  
Men oshiqi miskin<sup>1</sup>.  
Bir sho're ajab g'ulg'ulai<sup>2</sup> ishq tushubdur,  
Bechora ko'ngulga.  
Anbar kokulung xo'b yarashur xipcha belingga,  
Sen sunbuli nasrin,  
Devonai sho'ridayu<sup>3</sup> savdozadadurman<sup>4</sup>,  
Vah, toza yuzungga.  
Ul nargisi<sup>5</sup> shahlosiga jondin xabarim yo'q,  
Men xastayu g'amgin.  
Lochin turushung sheva<sup>6</sup> bila hushum olibtur,  
Ey yori vafodor.  
Tuyg'un qarashingga berayin jon — digarim yo'q,  
La'ling Chinu Mochin.  
Qosh yoyi bila otti o'shal sho'xi siyo chashm<sup>7</sup>,  
Ko'ksunga qadaldi,  
Teshdi yurakim-bag'rimi, hargiz nazaring yo'q,  
Kofir — dili sangin<sup>8</sup>.  
Goh bexudu mast, gohida hushyor bo'lubman,  
G'urbatzada<sup>9</sup> Mashrab.  
Doim tilagim — vaslingu o'zga talabim yo'q,  
Bir va'dada turgin.

---

<sup>1</sup>M i s k i n — bechora, boyaqish; <sup>2</sup>g' u l g' u l a — shov-shuv;  
<sup>3</sup>sh o' r i d a — to'polonchi; <sup>4</sup>s a v d o z a d a — g'am adoyi tamom qilgan;  
<sup>5</sup>n a r g i s — ko'z; <sup>6</sup>sh e v a — ishva; <sup>7</sup>ch a s h m — ko'z; <sup>8</sup>s a n g i n — toshdan;  
<sup>9</sup>g' u r b a t z a d a — g'ariblik holdan toydirgan.



\* \* \*

Ishqing o'tida kuydumu yondim, xabaring yo'q,  
Ey dilbari ayyor.  
Zori qilaman kechayu kunduz, nazaring yo'q,  
Ey zolimi xunxor.  
Avvalda na deb ko'nglum olib va'dani berding,  
Ayyor ekansan.  
Qonlar yutaman zor bo'lub, bir xabaring yo'q,  
Ortuq na jazong bor?  
Sensiz men agar ming yashasam ushbu jahonda,  
Bir kuncha ko'runmas.  
Kim sham'i jamoling tilodim, bir qararing yo'q,  
Men senga giriftor.  
Mashrabning agar ko'zlaridin qonlari oqsa,  
Shukronasi ko'pdur.  
Vaslingga bu jon o'ldi nisor<sup>1</sup>, hech asaring yo'q,  
Ey sho'xi sitamkor.



---

<sup>1</sup>N i s o r – sochqi.

\* \* \*

Nogoh ko'runub, jilva qilib o'tti parizod,  
Bag'rimni qilib qon,  
Furqat ila g'am dashtida chun ayladi noshod,  
Ul va'dasi yolg'on.  
Yig'lab, yugurub orqasidin ergasha qoldim,  
Bir rahm qilur deb,  
Berahmu vafosizg'a qilib umrni barbod,  
Sargashtai hayron.  
G'am tunlari to subh<sup>1</sup> kuyarman kecha-kunduz,  
Ishrat bila sensan,  
Lutfung bila g'am lashkaridin aylasang ozod,  
Sha'ningga ne nuqson.  
Parvona sifat o'rgulayin har qadamingdin,  
Gar bo'lsa muyassar,  
Bir lahza tarahhum yuzidin aylamading shod,  
G'amzang<sup>2</sup> bila, ey jon.  
Burqa<sup>3</sup> solibon gullari gar yuzini ochsa,  
Ko'rmoqqa ne imkon,  
Qatling'a aning ko'zlaridur kofiri jallod,  
To'kmoqqa ragi qon.  
Imonini bir ishvasig'a sotti bu Mashrab,  
Tarsobacha uchun,  
Zunnor solib bo'ldi barahman ila Shaddod,  
Na kufru na imon.



<sup>1</sup>S u b h — tong; <sup>2</sup>g' a m z a — ko'z suzmoq; <sup>3</sup>bu r q a' — chimmat, yuz yopinchig'i.



---

## MURABBA'LAR

\* \* \*

Hamdu sanolar aytay xudoga,  
Yorg'a yetar kun bormu, yoronlar?  
Yetkaymu dodim nozuk adoga,  
Yorg'a yetar kun bormu, yoronlar?

Shum toleimdin ko'rdum jafoni,  
Zolim raqiblar topdi vafoni,  
Holim so'r emdi, bergil davoni,  
Yorg'a yetar kun bormu, yoronlar?

Bulbuldayinkim, faryod etarman,  
Ishq daftarini bunyod etarman,  
Ko'ngullarimni men shod etarman,  
Yorg'a yetar kun bormu, yoronlar?

Qachon visoling bo'lg'ay muyassar,  
Ishqingda kezdin ham bahru<sup>1</sup> ham bar<sup>2</sup>,  
Dardu alamga to'ldi ko'ngullar,  
Yorg'a yetar kun bormu, yoronlar?

G'am bahri qildi mavjini bunyod,  
Ishqingda qildim yuz ohu faryod,  
O'tti nigorim chun sarvi ozod,  
Yorg'a yetar kun bormu, yoronlar?

Hajr ahli keldi tutti yoqamdin,  
Bag'rimni tilg'il paykoni<sup>3</sup> g'amdin,  
Ming dodu faryod ushbu alamdin,  
Yorg'a yetar kun bormu, yoronlar?

Sham'i firoqing ko'ksumda yondi,  
Ko'z yoshim oqib bag'ring'a tom-di,  
G'aflatda qolg'on Mashrab uyg'ondi,  
Yorg'a yetar kun bormu, yoronlar?

---

<sup>1</sup>B a h r — dengiz; <sup>2</sup>b a r — quruqlik; <sup>3</sup>p a y k o n — kamon o'qi.

\* \* \*

Avval aytayin hamdi<sup>1</sup> xudoyim,  
Duvvum<sup>2</sup> durudi<sup>3</sup> ul Mustafoyim<sup>4</sup>.  
Mendin uzoqda ul dilraboyim,  
Ey bod, yetkur yora salomim.

Ul mehribondin o'ldum judoye,  
Ishqida kuydum, bo'ldum adoye,  
Toshlarni yordi ko'ksumning ohi,  
Ey bod, yetkur yora salomim.

Ko'rmay yuzungni devona bo'ldum,  
Xalqi jahondin begona bo'ldum.  
Yuz dardu g'amg'a hamxona bo'ldum,  
Ey bod, yetkur yora salomim.

Yordin judo men o'lguncha bo'ldum,  
Qonlarni yutdum, hasratga to'ldum.  
Dardi g'amingdin, vallohki<sup>5</sup>, o'ldum,  
Ey bod, yetkur yora salomim.

Yorim qoshimdin ul kunki bordi,  
Tig'i jafosi ko'ksumni yordi,  
Ketti dil uchib, jon qushi qoldi,  
Ey bod, yetkur yora salomim.

Noma bitarman ul qora qosha,  
Uzog'lig'idin ko'z to'ldi yosha,  
Har dam urarman boshimni tosha,  
Ey bod, yetkur yora salomim.

---

<sup>1</sup>H a m d — maqtoʻv; <sup>2</sup>d u v v u m — ikkinchi; <sup>3</sup>d u r u d — salom; <sup>4</sup>M u s t a f o — Muhammad alayhissalom; aynan: saylangan; <sup>5</sup>v a l l o h k i — xudo haqi.

Ko'ksuning dardin tosha bitarman,  
Hasratda boshni olib ketarman,  
Oning ko'yida, valloh, o'larman,  
Ey bod, yetkur yora salomim.

Qaydin toparman ul sham'i xo'bon,  
Dardi g'amingdin bo'ldi yurak qon,  
Ko'rsat yuzungni, ey mohi tobon,  
Ey bod, yetkur yora salomim.

Kiygan to'nimni durdona bichdim,  
Zahrobalarni<sup>1</sup> mardona ichdim,  
G'urbat suyidin mastona kechtim,  
Ey bod, yetkur yora salomim.

Qachon ko'rarman yorim yuzini,  
Qalam qoshini, qaro ko'zini,  
Daftar etarman har bir so'zini,  
Ey bod, yetkur yora salomim.

Har kecha-kunduz tinmay yururman,  
Vayronalarda itdek ulurman,  
Vo hasrato, deb ko'rmay o'lurman,  
Ey bod, yetkur yora salomim.

Ishqingda Mashrab afg'on etodur,  
Bag'rini chandon biryon<sup>2</sup> etodur,  
Ko'zini har dam giryon<sup>3</sup> etodur,  
Ey bod, yetkur yora salomim.



---

<sup>1</sup>Z a h r o b a — zardob; <sup>2</sup>b i r y o n — kuygan, qovurilgan;  
<sup>3</sup>g i r y o n — yig'lab turgan.

\* \* \*

Bandang erurman, vallohu billoh<sup>1</sup>,  
Shomu saharlar men senga shaydo.  
Keldim eshikka, deb shay'alilloh<sup>2</sup>,  
Ko'rdum yuzungni, alhamdulillah!<sup>3</sup>

Boqsangchi mendek devonalarga,  
Aqlu hushidin begonalarga.  
Isyon<sup>4</sup> cho'lida sarsonalarga,  
Ko'rdum yuzungni, alhamdulillah!

Mastona qilgan shahlo ko'zungdur,  
Parvona qilgan oydek yuzungdur.  
Devona qilgan shirin so'zungdur.  
Ko'rdum yuzungni, alhamdulillah!

Izlab yururman Shomu Iroqi,  
Topmadim aslo yorning so'roqi<sup>5</sup>.  
Kuydurdi, do'stlar, oning firoqi,  
Ko'rdum yuzungni, alhamdulillah!

Uchradi har kim — seni so'radim,  
Ko'cha-bako'cha seni qaradim.  
Kechayu kunduz seni tiladim,  
Ko'rdum yuzungni, alhamdulillah!

Bir necha kundur men senga afgor,  
Bo'ldum giriftor ishqingga, ey yor.

---

<sup>1</sup>Vallohu billoh — Yo Olloh, qasam ichamanki; <sup>2</sup>shay'alilloh — Olloh yo'lida narsa so'rash; <sup>3</sup>alhamdulillah — Ollohga maqtovlar bo'lsin; <sup>4</sup>isyon — shariat buyruqlarini bajarmaslik; <sup>5</sup>so'roqi — daragini.

Avvalu oxir sen menga darkor,  
Ko'rdum yuzungni, alhamdulillah!

Hajring cho'lida holim xarobdur,  
Hasrat o'tida bag'rim kabobdur,  
Holimni so'rsang behad savobdur,  
Ko'rdum yuzungni, alhamdulillah!

Yo'qdur xabarim hargiz o'zumdin,  
Qonlar oqodur ikki ko'zumdin.  
Ta'sir qilurmu ushbu so'zumdin,  
Ko'rdum yuzungni, alhamdulillah!

Mashrabga tegdi ohu nadomat,  
To ro'zi mahshar aytur davomat.  
Har yerda bo'lsang, bo'lg'il salomat,  
Ko'rdum yuzungni, alhamdulillah!



---

## MUXAMMASLAR

\* \* \*

Ishqingda kuymas oshiq, devona bo'lmag'uncha,  
Sham'ingga yonmas hech kim, parvona bo'lmag'uncha,  
Bel bog'lamas yo'lig'a, mardona bo'lmag'uncha,  
Boshga olib malomat, afsona bo'lmag'uncha,  
Sevmas sadafni<sup>1</sup> sarrof<sup>2</sup> durdona<sup>3</sup> bo'lmag'uncha.

Sensiz menga, nigorim, ikki olam kerakmas,  
Taxtu baxti Sulaymon, sensiz xotam<sup>4</sup> kerakmas,  
Xizr umri zindaligu<sup>5</sup> obi Zamzam<sup>6</sup> kerakmas,  
Sensiz o'lay, duo qil, menga bul dam kerakmas,  
Tanda jonim qolmadi paykona bo'lmag'uncha.

Arshing kuyar ohimdin tongla bo'lsa qiyomat,  
Insu<sup>7</sup> malak titrashib yig'lab aytur nadomat<sup>8</sup>,  
Chiqsa ohim zarrasi hech kim qolmas salomat,  
Huru g'ilmon, bihishting aytur: «Nechuk alomat?»  
Qolmas molik do'zaxing so'zona bo'lmag'uncha.

Tushti boshimg'a ishqing larza qilib yig'ladim,  
Bu taqdiri azal deb, belim mahkam bog'ladim,  
Oshiq ishi qattig' deb, ohu vohlar ayladim,  
Darding behad zo'rladi, dargohinga yig'ladim,  
Rahm aylamas nigorim giryona bo'lmag'uncha.

---

<sup>1</sup>Sadaf — chig'anoq; <sup>2</sup>sarrof — zarshunos; <sup>3</sup>durdona — gavhar;  
<sup>4</sup>xotam — uzuk muhr; <sup>5</sup>zindali — tirlik; <sup>6</sup>Zamzam — Makka yaqinidagi  
Zamzam qudug'i suvi; <sup>7</sup>Insu — Inson, odam; <sup>8</sup>nadomat — afsus, pushaymon.

Oshiq bo'lsang tunu kun jonni qurbon aylagil,  
Hajri mehnat jafosi tegsa pinhon aylagil,  
Zulfi chin-chin<sup>1</sup> kuftri jong'a imon aylagil,  
Hajri furqat dardida tinmay fig'on aylagil,  
Joniga jon ulashmas jonona bo'lmag'uncha.

Nomus ketmas hech kimdin ishqqa qadam qo'y masa,  
Adham sifat dunyoni to pushti po<sup>2</sup> ur masa,  
Vosil bo'lmas vaslig'a yolg'uz o'zin sevmasa,  
Rozi bo'lub qazog'a<sup>3</sup> ishq o'tig'a kuymasa,  
Topmas dilbar so'rog'in<sup>4</sup> jo'yona<sup>5</sup> bo'lmag'uncha.

Vaqtı bahor may ichkil, bilgil ishrat g'animat,  
Soqiy, sung'il qadahni, fursat-suhbat g'animat,  
Zohid aytur: yoronlar tasbih-toat g'animat,  
Mashrab qalandaringga dardu mehnat g'animat,  
Ko'rmas ma'shuq yuzimni afsona bo'lmag'uncha.



---

<sup>1</sup>Ch i n - ch i n - halqa-halqa; <sup>2</sup>p u s h t i p o - tepki, tepmoq; <sup>3</sup>q a - z o g' a - qismatga; <sup>4</sup>s o' r o g' i - daragi; <sup>5</sup>j o' y o n a - izlovchi.

\* \* \*

Zihi<sup>1</sup> rasvolig'im olamg'a soldi sho'ru shar<sup>2</sup> tanho,  
Nahangi no'h<sup>3</sup> falak daryosi bo'ldi alhazar tanho,  
Nigorim birla men bir pirahanda<sup>4</sup> xalqi dahr<sup>5</sup> tanho.  
Qalandarman, jahonni sayr etib qildim safar tanho,  
Chu semurg'iki, parvoz aylagay bebolu par<sup>6</sup> tanho.

Bihisht ayvonida bo'lmoq ilojin orzu qilmay,  
Sotarg'a dinu dunyoni rivojin orzu qilmay,  
Yana Rumu Xito boju xirojin orzu qilmay,  
Shahi ro'yi<sup>7</sup> zaminning taxtu tojin orzu qilmay,  
Gadoi faqr bo'ldum, sayr etarman bahru bar<sup>8</sup> tanho.

Dili tig'i sitamdin pora bo'lgan xalqni ko'rdum,  
Tani dardu alamdin yora bo'lgan xalqni ko'rdum,  
Ko'zi vaqti sahar sayyora bo'lgan xalqni ko'rdum,  
Muhabbat dashtida avvora bo'lgan xalqni ko'rdum,  
Junun tug'yon etibdur har birisi bexabar tanho.

Bukun maxmuramu<sup>9</sup> piri mug'on oldiga bosh qo'y dum,  
Na shayx oldiga bordim, na barahman so'ziga yurdum,  
Yo'lingda goh yugurdum, goh yiqildum, goh o'lturdum,  
Seni to ko'rgucha, ey nozanin, tangriga topshurdum,  
Meni mundog' musofir ayladi davri qamar<sup>10</sup> tanho.

Tilarsan, Mashrabo, jon kulbasig'a suhbat ma'shuq,  
Muyassar bo'lmasa mahram saroyi xilvati ma'shuq,  
Vujudungni adam qilmog'lig'ingdur millati ma'shuq,  
Yo'q etgil o'zlugingni, kelmagay to g'ayrati<sup>11</sup> ma'shuq,  
Kishi mahram bo'lolmas yoriga, bo'lmas agar tanho.

<sup>1</sup>Z i h i - g'alati; <sup>2</sup>sh o' r u s h a r - tahlika, to'polon; <sup>3</sup>n o' h - to'qqiz;  
<sup>4</sup>p i r a h a n d a - ko'ylakda; <sup>5</sup>d a h r - jahon, dunyo; <sup>6</sup>b e b o l u p a r -  
qanotu patsiz; <sup>7</sup>r o' y i - yuzi; <sup>8</sup>b a h r i b a r - dengiz va yerning quruqlik  
qismi; <sup>9</sup>m a x m u r - xumor, zor; <sup>10</sup>q a m a r - oy; <sup>11</sup>g' a y r a t i - rashki.



\* \* \*

Bu kun, ey do'stlar, men o'lturub qon yig'lasam arzir,  
Yoqamni chok etib, har dam farovon yig'lasam arzir,  
Yurub dashtu biyobon to ramaq jon yig'lasam arzir,  
Ko'zumdin qon to'kub chun abri nayson<sup>1</sup> yig'lasam arzir,  
Firoqi motami ul mohi Kan'on<sup>2</sup> yig'lasam arzir.

Jahon ayvonida chun bealam o'lturmagan jonim,  
Mudom nokom<sup>3</sup> o'lub, bir ro'zi<sup>4</sup> ravshan ko'rmagan jonim,  
Jahonning rohatidin bir dame xush bo'lmagan jonim,  
Ko'zumdin qon to'kib chun abri nayson yig'lasam arzir,  
Firoqi motami ul mohi Kan'on yig'lasam arzir.

Ajab dilgir<sup>5</sup> men, arz aylagudek rozdonim<sup>6</sup> yo'q,  
«Sening holing nechuk bo'ldi» degudek mehribonim yo'q,  
Misoli chug'zdek<sup>7</sup> vayronadin o'zga makonim yo'q,  
Ko'zumdin qon to'kub chun abri nayson yig'lasam arzir,  
Firoqi motami ul mohi Kan'on yig'lasam arzir.

Misoli nay kibi jismimda faryodu fig'onim bor,  
Agarchi sabzazorman, kunda lek bodi xazonim<sup>8</sup> bor,  
Firoqu dardu g'amdin xona-xona dostonim bor,  
Ko'zumdin qon to'kub chun abri nayson yig'lasam arzir,  
Firoqi motami ul mohi Kan'on yig'lasam arzir.

Oyoq ostida qolgan ojizu bedastu poyiman<sup>9</sup>,  
Boshim hech yerga sig'may, men suchuk so'zning gadoyiman,

---

<sup>1</sup>N a y s o n — yog'inli bulut (aprel buluti); <sup>2</sup>m o h i k a n' o n — Yusuf alayhissalom; <sup>3</sup>n o k o m — baxtsiz; <sup>4</sup>r o' z — kun; <sup>5</sup>d i l g i r — siqilgan, xafa; <sup>6</sup>r o z d o n — sirdosh; <sup>7</sup>c h u g' z — boyo'g'li; <sup>8</sup>x a z o n — ayoz yili; <sup>9</sup>B e d a s t u p o y — qo'l-oyoqsiz;

Chunon labtashnaman, daryo labida misli mohiman<sup>1</sup>,  
Ko'zumdin qon to'kub chun abri nayson yig'lasam arzir,  
Firoqi motami ul mohi Kan'on yig'lasam arzir.

Agar men na'ra ursam, qo'rqaman, mahshar kuyar derman,  
Tushub do'zaxga otash mo'minu kofar kuyar derman,  
Dilimning dardiga jannat bila kavsar kuyar derman,  
Ko'zumdin qon to'kub chun abri nayson yig'lasam arzir,  
Firoqi motami ul mohi Kan'on yig'lasam arzir.

Ko'zumning yoshini Jayhuncha daryo qilmasam bo'lmas,  
O'zumni misli Majnun elga rasvo qilmasam bo'lmas,  
Jahon maqsudidin dastimni ko'toh<sup>2</sup> qilmasam bo'lmas,  
Ko'zumdin qon to'kub chun abri nayson yig'lasam arzir,  
Firoqi motami ul mohi Kan'on yig'lasam arzir.

G'amu andesha oxir ashkimi mujgonga yetkurdi,  
Bu motam bora-bora sho'rishi to'fonga yetkurdi,  
Yuragimni alam chok etti — go'ristonga yetkurdi,  
Ko'zumdin qon to'kub chun abri nayson yig'lasam arzir,  
Firoqi motami ul mohi Kan'on yig'lasam arzir.

Alamli Mashrabam, dog'ing jafosi tushdi boshimg'a,  
Ko'zum ochtim — qiyomat mojarosi tushdi boshimg'a,  
Qiyomat lashkarining ming balosi tushdi boshimg'a,  
Ko'zumdin qon to'kub chun abri nayson yig'lasam arzir,  
Firoqi motami ul mohi Kan'on yig'lasam arzir.



---

<sup>1</sup>M o h i m a n — baliqman; <sup>2</sup>k o' t o h — qisqa.



\* \* \*

Yorning ko'yiga men bormoq edim,  
Har necha javru jafu tortmoq edim,  
Qona to'lg'on yuragim yormoq edim,  
Oy sanamning ko'yida yurmoq edim,  
Kokilini ko'zuma surmoq edim.

Rishtai jonim bila sochbog'iman,  
Oyog' ostiga kiyor paypog'iman,  
Kechasin ichidagi choqmog'iman,  
Oshiqi ichra yuragi dog'iman,  
Hindu Shomu Rumu Chin bormoq edim.

Saltanat taxtini har kim oladur,  
Munda navbat<sup>1</sup> naqorasin choladur,  
Yorning hajr o'ti jong'a yoradur,  
O'tlug' ohimdin boshing'a joladur,  
Cho'p olib tablingni<sup>2</sup> men qoqmoq edim.

Ko'hu<sup>3</sup> qirga yarashur lola qizoq,  
Tah-batah qondur yurak, bormu pichoq?  
Yorning oydek yuzini tegi oq,  
Ey sanam, tegdi o'qing — qoldi boshog<sup>4</sup>,  
Gardini mijjam bila qoqmoq edim.

Ko'hi g'am ostida qolg'ondur tanim,  
Qays g'urbatda bo'lubdur mahramim,  
Darbadar haryonga borib yurganim,  
Sen olur bo'lsang qiliching-la jonim,  
To'lg'onib qonimni men sochmoq edim.

Olmani qo'shsa bo'lurmu norg'a<sup>5</sup>?  
Haq rizo — ko'ngulni qo'shg'ay yorg'a,  
Bir nazar qilsang bu Mashrab zorg'a,  
O'rgulub arzim aytay sen yorg'a,  
Yastanib ko'ying uzra yotmoq edim.

<sup>1</sup>N a v b a t — katta; <sup>2</sup>t a b l — nog'ora; <sup>3</sup>k o' h — tog'; <sup>4</sup>b o s h o q — kamon o'qi uchidagi temir parcha; <sup>5</sup>n o r g' a — anorga.



\* \* \*

Meningdek intizoru yo'lda hayron bo'lmasun hech kim,  
Ko'karg'onda qurub yer birla yakson bo'lmasun hech kim.  
Misoli andalibi<sup>1</sup> beguliston bo'lmasun hech kim,  
Bu bekaslikda<sup>2</sup> mendek xonavayron bo'lmasun hech kim,  
Ko'zidin xun to'kub, bag'ri qaro qon bo'lmasun hech kim.

Qani bir dard ko'rgan rozdon<sup>3</sup> holimni so'rgudek,  
Giriftori g'ami bisyor iqbolimni so'rgudek,  
Tabibe rahm etib bemor a'molimni so'rgudek,  
Bu bekaslikda mendek xonavayron bo'lmasun hech kim,  
Ko'zidin xun to'kub, bag'ri qaro qon bo'lmasun hech kim.

Firoqi dardi birla qomatim monandi<sup>4</sup> «nun» bo'ldi,  
Ko'zumning nuri ketti, hol kun-kundin zabun<sup>5</sup> bo'ldi,  
Qiyomat oshkoro, sendin ayrildim, bu kun bo'ldi,  
Bu bekaslikda mendek xonavayron bo'lmasun hech kim,  
Ko'zidin xun to'kub, bag'ri qaro qon bo'lmasun hech kim.

O'lub ketsam ne mushkuldur bu dunyoda samar<sup>6</sup> topmay,  
O'zumdek dard ko'rgan ahli dardlardin xabar topmay,  
Na mushkul termulub qolsam bu yo'lda bolu par<sup>7</sup> topmay,  
Bu bekaslikda mendek xonavayron bo'lmasun hech kim,  
Ko'zidin xun to'kub, bag'ri qaro qon bo'lmasun hech kim.

Rafiqim yo'q mening rozi dilim izhor qilg'udek,  
Yurokim daftarini olida takror qilg'udek,  
G'aribdurman, kishim yo'q dardimi izhor qilg'udek,  
Bu bekaslikda mendek xonavayron bo'lmasun hech kim,

<sup>1</sup>A n d a l i b — bulbul; <sup>2</sup>b e k a s l i k d a — kimsasizlikda;  
<sup>3</sup>r o z d o n — sirdosh, sir bilgich; <sup>4</sup>m o n a n d — kabi, o'xshash;  
<sup>5</sup>z a b u n — nochor, xarob; <sup>6</sup>s a m a r — maqsad hosili. <sup>7</sup>bolu p a r — qanot va pat.

Ko'zidin xun to'kub, bag'ri qaro qon bo'lmasun hech kim.  
Meni baxti qarodin qo'l yudi qavmu qarindoshim,  
Mudom zahroba<sup>1</sup> bo'ldi har zamon og'zimdagi oshim,  
Duo aylangki, men tezroq o'lay, hech yo'qdur bardoshim,

Bu bekaslikda mendek xonavayron bo'lmasun hech kim,  
Ko'zidin xun to'kub, bag'ri qaro qon bo'lmasun hech kim.

Tamosho qilg'udek fursat kerak bemuttakolarg'a,  
O'zumni men o'zum soldim bu kun mundoq balolarg'a,  
Boshim bekaslig'imdin tushdi chandon mojarolarg'a,  
Bu bekaslikda mendek xonavayron bo'lmasun hech kim,  
Ko'zidin xun to'kub, bag'ri qaro qon bo'lmasun hech kim.

Azizi vaqt edim, oxirgi damda xor bo'lg'onman,  
Yurak-bag'ri tutashgan g'am bila bemor bo'lg'onman,  
Kishim yo'q so'ragudek ming balog'a yor bo'lg'onman,  
Bu bekaslikda mendek xonavayron bo'lmasun hech kim,  
Ko'zidin xun to'kub, bag'ri qaro qon bo'lmasun hech kim.

Musibat birla yakson ayladi chun bod gardimni,  
Umid ettim qabul etgaymu, shoyad, ohi sardimni<sup>2</sup>,  
Qani bir dard ko'rgan, aylasam izhor dardimni,  
Bu bekaslikda mendek xonavayron bo'lmasun hech kim,  
Ko'zidin xun to'kub, bag'ri qaro qon bo'lmasun hech kim.

Yurakni kavlamanglar, lek sartopo<sup>3</sup> jarohatdur,  
Boshing'a har zamon hangomai sho'ri qiyomatdur,  
Bu motam birla men borsam jahondin koni hasratdur,  
Bu bekaslikda mendek xonavayron bo'lmasun hech kim,  
Ko'zidin xun to'kub, bag'ri qaro qon bo'lmasun hech kim.

Kel, ey Mashrab, seni dunyoga kelturdi amal qil deb,  
Har ishni vag'tidin o'tkarma munda, dar mahal<sup>4</sup> qil deb,  
Dilovarlar hama ketti, sen ham tinmay jadal qil deb,  
Bu bekaslikda mendek xonavayron bo'lmasun hech kim,  
Ko'zidin xun to'kub, bag'ri qaro qon bo'lmasun hech kim.

---

<sup>1</sup>Z a h r o b — zardob; <sup>2</sup>s a r d — sovuq; <sup>3</sup>s a r t o p o — boshdan-oyoq;  
<sup>4</sup>d a r m a h a l — o'z vaqtida.

\* \* \*

Ko'rgali husni jamoling men giriftor o'lmusham,  
Furqatingda hajr are tunlarda bedor o'lmusham,  
Ul qaro zulfung tori bo'ynung'a zunnor, o'lmusham,  
Ishtiyogi yordin Mansuri bar dor<sup>1</sup> o'lmusham,  
Tig'i zulmungdin boshing'a bir sitamkor o'lmusham.

Safhai husnungda ko'rdum bir malohat daftari,  
Oraz<sup>2</sup> uzra xattu<sup>3</sup> xoling erdi mushki anbari,  
Jismu jonimni figor<sup>4</sup> etti g'amingning lashkari,  
Ko'zlaring jallod erur, kipriklaringdur nashtari,  
To'bi yanglig' sarvi qaddingga giriftor o'lmusham.

Oy yuzungni ko'rdumu ko'nglumni men shod ayladim,  
Xoki poying izlayub har kunda faryod ayladim,  
Bu junun bozorida aqlimni barbod ayladim,  
Vomiqu Uzroyu Shirinni chu bunyod ayladim,  
Xalqi olam ichra bir yori vafodor o'lmusham.

Ko'zda ashkim<sup>5</sup> sel etib har dam farovon yig'ladim,  
Bir visoling yodida dard ichra pinhon yig'ladim,  
G'uncha yanglig' lablaringni sog'inib qon yig'ladim,  
Go'iyu Majnun bo'lub, dashtu biyobon yig'ladim,  
La'ling<sup>6</sup> uzra xatti mushkingga dildor o'lmusham.

Dog'i ishqing loladek siynamni qilmish chok-chok,  
Xanjari mujgon o'qung qildi yurakni dardnok,  
Olam ichra hech yo'qdur bir seningdek zoti pok,  
Rahm etib lutf aylag'il ko'yingda bo'ldim emdi xok,  
Ko'rdi Mashrab yo'lda bir yaxshi, giriftor o'lmusham.

<sup>1</sup>Bar dor – dorga osilgan, dordagi; <sup>2</sup>ora z – yuz, chehra; <sup>3</sup>xat – ustki lablardagi mayin tuklar; <sup>4</sup>figor – yara, jarohat; <sup>5</sup>ashk – ko'z yoshi; <sup>6</sup>la'ling – labing.

\* \* \*

Meni olamda Majnuni darbadar qildiyo ketti,  
Boshimg'a soldi savdoni — qalandar qildiyo ketti,  
Dilimning qal'asini buzdi — abtar<sup>1</sup> qildiyo ketti,  
Yurogimda qo'yub otash — samandar qildiyo ketti,  
Ko'zum termulg'uzub rasvoi mahshar qildiyo ketti.

Ko'zum chun bahra olmay boradur durri xushobidin<sup>2</sup>,  
Jahon nolishg'a kirdi bag'rimi dudi kabobidin,  
Nasibam yo'q ekan, afsus, husni beniqobidin,  
O'qunglar oldima ko'p dard ko'rganlar kitobidin,  
Meni yo'l ustida yakbora<sup>3</sup> muztar qildiyo ketti.

Tarahhum<sup>4</sup> birla aslo so'rmadi: «Zorim nechuksan?» deb,  
«Men uchun muftalo bo'lg'on giriftorim nechuksan?» deb,  
«Yurak-bag'ri ado bo'lg'on dilafgorim nechuksan?» deb,  
«Bu vayron xonada mushtoqi diydorim nechuksan?» deb,  
Mening boshimga yuz javru jafolar qildiyo ketti.

Vafolig' yor agar bo'lsa parishonini so'rmasmu?!  
Adashgan, intizoru xonavayronini so'rmasmu?!  
Tutashgan, bag'ri kuygan, yo'lda hayronini so'rmasmu?!  
Dili sadpora<sup>5</sup> bo'lg'on chashmi giryonini<sup>6</sup> so'rmasmu?!  
Boshim tepib qaro yerga barobar qildiyo ketti.

Qo'lungdin kelsa, do'stum, bevafo'ga aslo dil berma,  
Ko'ngulni shahrina tushgan nooshnog'a aslo dil berma,  
Sitamgar, bemuruvvat, purjafog'a aslo dil berma,

---

<sup>1</sup>A b t a r — buzuq, vayron; <sup>2</sup>d u r r i x u s h o b — bebaho gavhar;  
<sup>3</sup>y a k b o r a — birdaniga; <sup>4</sup>t a r a h h u m — rahm-shafqat; <sup>5</sup>s a d p o r a — yuz  
parcha; <sup>6</sup>g i r y o n — yig'layotgan ko'zini.

Jahonni mohi<sup>1</sup> bo'lsa norasog'a aslo dil berma,  
Diling'a soldi otashni, mukaddar<sup>2</sup> qildiyo ketti.

Adolatli amirim, balki xoqonim deb, arz qildim,  
Bu ko'ngul mulkida shohi sultonim deb, arz qildim,  
So'rar ahvoli zorimni Sulaymonim deb, arz qildim,  
Vujudim kishvarig'a<sup>3</sup> mamlakatdonim deb, arz qildim,  
Yiroqdin arz qildim, go'shini<sup>4</sup> kar, qildiyo ketti.

Ko'zumg'a torikiston<sup>5</sup> qildi oxir ro'zi<sup>6</sup> ravshanni,  
Yoqub har soati siynam aro savdoi gulxanni,  
Meni motamg'a soldi, shod etib oldimda dushmanni,  
Oni maqsudi o'ldurmoq meningdek bag'ri kuyganni,  
Sinuq xotirlarimni sarfi mijmar<sup>7</sup> qildiyo ketti.

Yoqamni chok etib har soati bisyor yig'larman,  
Meningdek yo'lda qolg'on yo'q, dili afgor<sup>8</sup> yig'larman,  
O'zumdek xonavayronlarni ko'rsam zor yig'larman,  
Meni arzim eshit, ey vohidul qahhor<sup>9</sup>, yig'larman,  
Musibat tog'ini boshimg'a langar qildiyo ketti.

Tutub erdimki, domonini Iskandar bo'lurman deb,  
Shabu ro'zim<sup>10</sup> muqimi<sup>11</sup> ko'yi ul dilbar bo'lurman deb,  
Yetushsam soyasig'a jumladin<sup>12</sup> behtar<sup>13</sup> bo'lurman deb,  
Agarchi sangi xoro<sup>14</sup> bo'lsam ham gavhar bo'lurman deb,  
Nazardin tashladi holimni abtar qildiyo ketti.

Qani bir dard ko'rgan, bevafoining dardini aytay,  
Yoqamni chok etib nooshnoning dardini aytay,  
Lahaddin bosh ko'tarsam mahliqoning<sup>15</sup> dardini aytay,  
Bukun sho'ridaman<sup>16</sup>, nozik adoning dardini aytay,  
Qilib xokistarim<sup>17</sup> barbodu axgar<sup>18</sup> qildiyo ketti.

<sup>1</sup>Mohi — oyi; <sup>2</sup>mukaddar — mahzun; <sup>3</sup>kishvarig'a — o'lkasiga; <sup>4</sup>go'shini — qulog'ini; <sup>5</sup>torikiston — qorong'iston; <sup>6</sup>ro'zi — kunni; <sup>7</sup>mijmar — otashdon; <sup>8</sup>afgor — jarohat; <sup>9</sup>vohidulqahhor — Yagona Oллоh; <sup>10</sup>ro'zim — kecha-kunduzim; <sup>11</sup>muqim — doim bir joyda yashash; <sup>12</sup>jumladin — hammadan; <sup>13</sup>behtar — yaxshiroq; <sup>14</sup>xoro — qattiq xarsangtosh; <sup>15</sup>mahl iqo — oy yuzli; <sup>16</sup>sho'ridaman — iztirobdaman; <sup>17</sup>xokistar — kul; <sup>18</sup>axgar — cho'g'.



Yurakning dardini har do'stu dushmandin nihon  
tuttum,

Baloning taxtini o'zimg'a toki oshyon tuttum,  
Qochib har neku baddin<sup>1</sup> ostoniga makon tuttum,  
Borib bir go'shayeda yig'labon ohu fig'on tuttum,  
Hama sirri dilimni xalqqa daftar qildiyu ketti.

Yo'lingda muntazirman toki payg'om<sup>2</sup> aylasam har  
shab<sup>3</sup>,

Safar — dur<sup>4</sup>, dardu ranj — ko'b, hosil bo'lmadi matlab<sup>5</sup>,  
Ko'ngulning zaxmini men ashki xun olud<sup>6</sup> ila tuzlab,  
Agarchandiki dilg'rsan<sup>7</sup>, ko'ngulni uzmag'il, Mashrab  
Azaldin mis edim tilloi ahmar<sup>8</sup> qildiyu ketti.



---

<sup>1</sup>N e k i b a d d i n — yaxshi-yomondan; <sup>2</sup>p a y g ' o m — darak, xabar;  
<sup>3</sup>sh a b — kecha; <sup>4</sup>d u r — uzoq; <sup>5</sup>m a t l a b — maqsad; <sup>6</sup>x u n o l u d — qon  
yuqi, ko'zyoshi; <sup>7</sup>d i l g i r — xafa; <sup>8</sup>a h m a r — qizil.

\* \* \*

Ishq ichra qadam qo'ydimu to tarki sar ettim,  
Siynamni malomat<sup>1</sup> o'qig'a man sipar<sup>2</sup> ettim,  
Bu manzili behuda ko'rub azmi safar ettim,  
To olami zohirga kelib men guzar ettim,  
Tark ayladimu jumlani qat'i nazar<sup>3</sup> ettim.

Hijron kechasi nola qilib hamdame topmay,  
Ahvoli ko'ngul aytg'ali bir mahrame topmay,  
Hijron tig'ining zaxmiga men malhame topmay,  
Ozoru sitamdin nafase orome topmay,  
Zulmungni qarindoshu g'amingni padar ettim.

Ey yor, seni la'li labing qandu asaldur,  
Har bir boqishing tiyri<sup>4</sup> balo — jonga xalaldur,  
Rum xalqini Zang etti asir bu ne masaldur,  
Savdoi sari zulfung uchun necha mahaldur,  
Jon kishvarini buzdumu zeru zabar<sup>5</sup> ettim.

Qildi bu falak shu'badasi<sup>6</sup> xastayu dilresh<sup>7</sup>,  
Oshiq kishilar bilsa oni — dushman erur xesh<sup>8</sup>,  
Bir yili — o'n ikki oyu hamal<sup>9</sup>, yozina ham qish,  
Bir martabada turmas emish shoh ila darvesh,  
Bas jandani kiydim o'zimi darbadar ettim.

G'am kechalari bo'ldi menga munisu damsoz<sup>10</sup>,  
Ul sho'xi balo sayd qilur ko'zlari shohboz<sup>11</sup>,

<sup>1</sup>M a l o m a t — ta'na, dashnom; <sup>2</sup>s i p a r — qalqon; <sup>3</sup>q a t' i n a z a r — nazardan soqit qildim; <sup>4</sup>t i y r — o'q; <sup>5</sup>z e r u z a b a r — ostin-ustun; <sup>6</sup>sh u' b a d a — hiyla-nayrang; <sup>7</sup>d i l r e s h — ko'ngli timalgan; <sup>8</sup>x e s h — qarindosh; <sup>9</sup>h a m a l — mart oyi; <sup>10</sup>d a m s o z — hamdam; <sup>11</sup>sh o h b o z — lochin.

G'am xayli<sup>1</sup> jafu birla edi hamdamu hamroz,  
Vasling havasi birla ko'ngul etgali parvoz,  
Har o'qki yurak uzra edi, bolu par<sup>2</sup> ettim.

Ohim o'qini shum raqiblarga o'tay deb,  
To kuyi muhabbatni dilim birla cholay deb,  
Kiydim kafaning faqr ila gulxanda yotay deb,  
Dushmanki duchor o'lsa anga harb qilay deb,  
Do'stum etakin tuttimu tig'u tabar<sup>3</sup> ettim.

Bir dilbari jononani hamroz etay deb,  
Jonimni berib jonig'a damsoz etay deb,  
Jon qushini shu ishq ila shohboz etay deb,  
Bir qushki cho'loq sonida parvoz etay deb,  
Gul g'unchasi birla ochib bolu par ettim.

Men bunda xarob o'ldimu sen anda salomat,  
Dunyoyi dag'o<sup>4</sup> ichra menga yo'qdur halovat,  
Jon mulkida hijroni kelibdur na alomat,  
Afgoru kabob o'lg'ali ul ahli sabohat<sup>5</sup>,  
Xuni jigarim jam' qilib mohazar<sup>6</sup> ettim.

Yaldo kechasi<sup>7</sup> bo'lg'ali yorim bila hamgap,  
Bir g'amzaga toroj etibon din ila mazhab,  
Sirrini nihon etti — budur boisi matlab,  
Ko'tahnazar<sup>8</sup> bo'lmasa deb xasta bu Mashrab,  
Ming ma'nini bir nukta<sup>9</sup> bila muxtasar<sup>10</sup> ettim.



<sup>1</sup>Xayli — to'dasi; <sup>2</sup>bolu par — qanot va pat; <sup>3</sup>tabar — bolta; <sup>4</sup>dag'o — hiylakor, nayrangboz; <sup>5</sup>ahli sabohat — go'zallar; <sup>6</sup>mohazar — tayyor yemak; <sup>7</sup>yaldo kechasi — qishning eng uzoq va sovuq tuni; <sup>8</sup>ko'tahnazar — kaltabin; <sup>9</sup>nukta — fikr; <sup>10</sup>muxtasar — qisqa.

\* \* \*

Ey musulmonlar, netay men yordin ayrilmisham,  
Fitna chashmi, sho'xi xushraftordin ayrilmisham,  
Bulbuli sho'ridaman<sup>1</sup> gulzordin ayrilmisham,  
Qoshlari yoy, ko'zlari xunxordin ayrilmisham,  
Bir pari tal'at, shakarguftordin<sup>2</sup> ayrilmisham.

Ul bahori husndin oxir judo bo'ldum, netay,  
G'am ila mehnat<sup>3</sup> qo'linda muftalo bo'ldum, netay,  
Vasl shohidin judo bo'lg'och gado bo'ldum, netay,  
Dardi furqatga giriftori balo bo'ldum, netay,  
Bir pari tal'at, shakarguftordin ayrilmisham.

Har pari bo'lg'on bila andoq shakarguftor emas,  
Xanda aylab gul misol, lek, sarvi xushraftor emas,  
Lablaridin jon beribkim ko'zlari xunxor emas,  
Kecha-kunduz bu dilimga g'amdin o'zga kor<sup>4</sup> emas,  
Bir pari tal'at, shakarguftordin ayrilmisham.

Bog'i olam gullari ul husnig'a shaydo edi,  
Kechani ravshan qilurg'a gavhari yakto<sup>5</sup> edi,  
Sho'xu tannozi jahon ichra ajab barno edi,  
Furqatinda zor yig'lab, ko'zlarim daryo edi,  
Bir pari tal'at, shakarguftordin ayrilmisham.

Sayd domini<sup>6</sup> qurub ketting, ayo, ey shohboz<sup>7</sup>,  
Men kezib qaydin toparman bir seningdek sarvinoz?  
Sarvi xushraftor erding, faqr eliga dilnavoz,  
Mahv etibsan Mashrabinig'ni sen, ayo, ey beniyoz<sup>8</sup>,  
Bir pari tal'at, shakarguftordin ayrilmisham.

<sup>1</sup>Sh o' r i d a - iztirobli; <sup>2</sup>sh a k a r g u f t o r - shirinso'z; <sup>3</sup>m e h n a t - mashaqqat; <sup>4</sup>k o r - ish, mashg'ulot; <sup>5</sup>y a k t o - yagona; <sup>6</sup>d o m i - tuzog'i; <sup>7</sup>sh o h b o z - lochin; <sup>8</sup>b e n i y o z - aynan ehtiyojsiz (matnda Xudo nazarda tutilgan).

\* \* \*

Borib ayting, azizim, ko'zlarimg'a to'tiyo kelsun!  
Meni bedastuponi<sup>1</sup> ko'rgali ul podsho kelsun!  
Solib bo'ynig'a zulfi anbarin mushki Xito kelsun!  
Mening kulbamni ravshan qilg'ali ul purziyo<sup>2</sup> kelsun!  
Umidim borki, ranjurini<sup>3</sup> izlab har sabo<sup>4</sup> kelsun!

Kamon abro'lari<sup>5</sup> har qaysisi bir sayfi<sup>6</sup> jallodi,  
Yurur bo'lsa chamanda qaddidur monandi shamshodi,  
Dubora<sup>7</sup> kelmag'ay olamda mundoq sarvi ozodi,  
Bilolmayman nechun paydo qilibdur oni ustodi,  
Dilimda yuz jarohat bor, bermakka davo kelsun!

Bahori fayzbaxsh keldi, jahon rangin chaman bo'ldi,  
Bu kun majlis tuzunglar, navbati gulpirahan<sup>8</sup> bo'ldi,  
Ayog' bosgan yeri sarsabz<sup>9</sup> bo'ldi, yosuman<sup>10</sup> bo'ldi,  
Mashomim<sup>11</sup> bo'yidin har soati mushki Xo'tan bo'ldi,  
Bu yo'lda do'stu dushman ayb aylar, goh-goh kelsun!

Borib ayting o'shal zebo sanamg'a: «Ul yoring o'ldi», deb,  
«Seni hajringda kuygan oshiqi diydoring o'ldi», deb,  
«Teshilgan tiyri g'amdin, siynasi afgoring o'ldi», deb,  
«G'aribu xastayu hajring, firoqi zoring o'ldi», deb,  
Agarchi vaqti ishrat kelmadi, vaqti azo kelsun!

Chunon bexudlig'imdin subhimu<sup>12</sup> shomimni bilmayman,  
Ketubdur aql mendin puxtayu xomimni bilmayman,

<sup>1</sup>Bedastupo — qo'l-oyoqsiz; <sup>2</sup>purziyo — sernur; <sup>3</sup>ranjurini — xastasini; <sup>4</sup>sabo — tong; <sup>5</sup>abro'lari — qoshlari; <sup>6</sup>sayf — qilich; <sup>7</sup>dubora — ikkinchi ranotaba; <sup>8</sup>gulpirahan — gulko'ylak; <sup>9</sup>sarsabz — yam-yashil; <sup>10</sup>yosuman — oq gul, jasmin; <sup>11</sup>mashomim — dimog'im; <sup>12</sup>subh — tong.

Bilolmasman nechuk o'tkardim ayyomimni, bilmayman,  
Bu yo'lda misli Majnundek saranjomimni bilmayman,  
Charog'i dilni ravshan qilg'ali nuri safo kelsun!

«Vafodorim», dedim, oxir damida bevafo bo'ldi,  
Bilolmayman, ne ayb ko'rdiki, ul mendin judo bo'ldi,  
Ko'zumni kavlagan xalqlarga borib oshno bo'ldi,  
Boshimg'a xonavayronlig' tushub, qaddim duto<sup>1</sup> bo'ldi,  
Meni ro'zi siyohni<sup>2</sup> ko'rgali ul dilrabo kelsun!

Ko'zumning oqi yanglig' mehribonimdin ayurdilar,  
Meni jon mulkida oromi jonimdin ayurdilar,  
Boshim ustida turg'on soyabonimdin ayurdilar,  
Teshib bag'rimni oxir ustixonimdin ayurdilar,  
Ko'zumni kosasiga to'ldi naqshi bo'ryo, kelsun!

O'zini bilmaganlar aytadurlar: «O'zga yor axtar!»  
«Ko'ngulni bevafo'ga bermagil, bir g'amgusor<sup>3</sup> axtar!»  
«Agarchi dilraboni topmasang, digar<sup>4</sup> diyor axtar!»  
«Ko'ngulning muddaosin bilgudek bir dilfigor axtar!»  
Men ayturman: «Ko'zumni o'ysa o'ysun, oshno kelsun!»

O'shal vaqtiki anga ahd qildim asli hamdamdur,  
U mendin ko'ngul uzsa, to tirikman ko'ngul uzmamdur,  
Digar yor axtarib men dashtu sahrolarni kezmamdur,  
Qiyomat subhi otg'uncha bu paymonimni<sup>5</sup> buzmamdur,  
Boshimni kessa-kessun, aylanib nozuk ado kelsun!

Budur ahdimki, to qaddim duto bo'lg'uncha ayrilmam,  
Lahad tufrog'i to diydang'a jo bo'lg'uncha ayrilmam,  
Duro'za<sup>6</sup> eski olamdin fano bo'lg'uncha ayrilmam,  
Boshimg'a charx toshi osiyo<sup>7</sup> bo'lg'uncha ayrilmam,  
Ki bo'ldi no'h<sup>8</sup> falak boshimg'a misli osiyo kelsun!

---

<sup>1</sup>Duto bo'ldi — bukildi; <sup>2</sup>ro'zi siyohni — kuni qaro; <sup>3</sup>g'amgusor — g'amxo'r; <sup>4</sup>digar — boshqa; <sup>5</sup>paymonimni — ahdimni; <sup>6</sup>duro'za — ikki kunlik; <sup>7</sup>osiyo — tegirmon; <sup>8</sup>no'h — to'qqiz.

Meni bedastu po<sup>1</sup> ul yor ko'yina etolmayman,  
Chu har nomahrameg'a rozi dilni ko'rsatolmayman,  
Sari zulfig'a<sup>2</sup> qo'l solsam, qo'lumni berkitolmayman,  
Ravishi rohi rasmin bemehrga o'rgatolmayman,  
Borib ayting, meni kulbamg'a yori bevafo kelsun!

Nechuk bo'ldiki, Iskandar edim, iqbol past tushdi,  
Ko'ngulni ganda<sup>3</sup> aylab, oshg'a chun bir magas<sup>4</sup> tushdi,  
Ne mushkuldur, birodar, xonai nokasga<sup>5</sup> kas<sup>6</sup> tushdi,  
Agarchi podshoh erdim, chu bo'ynumga qafas tushdi,  
Bu mushkullarni oson qilg'ali mushkulkusho kelsun!

Karashma bir taraf, xulq bir taraf, kuydurdi dog'idin,  
Magar hure tushubdur kulbama jannatning bog'idin,  
Qo'lini tutdimu qildim tavof, o'pdim ayog'idin,  
Charog'e anga paydo ayladim diydarning<sup>7</sup> yog'idin,  
Umidimdur meni tirguzgali Arshdin Iso kelsun!

Jahonning xo'blarini bevafo qilmoqg'adur qasdi,  
Qilib bexonumon, sohibazo<sup>8</sup> qilmoqg'adur qasdi,  
Hazonon<sup>9</sup> dardu g'amg'a oshno qilmoqg'adur qasdi,  
Tagi devorlarg'a mubtalo qilmoqg'adur qasdi,  
Olov yoqsun boshimg'a to tirikman muddao kelsun.

Zabonimdin tushurmay aylamay ul zikri yorabni,  
Muhabbat yo'lig'a barbod etibon qalbi qallobni,  
O'zung o'ng yo'lg'a solg'il yo'l yururda ahli mazhabni,  
Umidi ko'p erur, navmid<sup>10</sup> qilma xasta Mashrabni,  
Yana ummatni ahvolin so'rarg'a Mustafo<sup>11</sup> kelsun!



<sup>1</sup>Bedastu po — qo'l-oyoqsiz; <sup>2</sup>sari zulfig'a — zulfining uchiga;  
<sup>3</sup>ganda aylab — buzib, yomon qilib; <sup>4</sup>magas — pashsha; <sup>5</sup>nokas —  
odammas; <sup>6</sup>kas — odam; <sup>7</sup>diydarning — ko'zimning; <sup>8</sup>sohibazo —  
ta'ziyali, azali; <sup>9</sup>hazonon — minglab; <sup>10</sup>navmid — noumid, umidsiz;  
<sup>11</sup>Mustafo — Muhammad alayhissalom.

\* \* \*

Tokay meni bechorag'a bu dardu alamdur,  
Vaslingni tilab ko'ngluma g'am ustig'a g'amdur,  
Hasrat ichida muncha menga jabru sitamdur,  
Na dabri falak bo'ldi, na taqdiri qalamdur,  
Bul g'ussadin o'lsam, boshima ohim alamdur<sup>1</sup>.

Sen dilbari jononag'a men oshiqi shaydo,  
Jonimni beray vasling uchun, ayla tamosho,  
Netgum, meni ishqing bu sifat ayladi rasvo,  
Majnung'a tushub dog'i g'aming bo'ldi basahro,  
Vasling'a yetib o'lsa, bu oshiqg'a ne g'amdur.

Men senga yetolmay, sanamo, xasta bu jonim,  
Tun-kun seni izlab yugurub tashna zabonim,  
Bir necha mahaldurki jafoga xesh<sup>2</sup> bu jonim,  
Yetmasmu senga muncha meni ohu fig'onim,  
Bu xastaning doim tilagi lufu karamdur.

Jon qiynamayin vosili jonona bo'lurmu?!  
Naysonsiz<sup>3</sup> sadaf<sup>4</sup> durri yakdona<sup>5</sup> bo'lurmu?!  
To kuymasa sham o'tig'a parvona bo'lurmu?  
Og'zini ochib so'zlamay afsona bo'lurmu?!  
Vasling asalu hajri g'aming zahri zaqamdur<sup>6</sup>.

Hasratda yururman, sanamo vaslingni izlab,  
Boqib bu nazar ko'zi bilan men seni ko'zlab,  
Hayronu sarosima yurub, telbali so'zlab,  
Nafs egrisini tig'i muhabbat bila tuzlab,  
Oxir bu ajalning qo'lidan barcha adamdir.

<sup>1</sup>Alam — bayroq; <sup>2</sup>xesh — esh, qarindosh; <sup>3</sup>naysonsiz — bulutisiz;  
<sup>4</sup>sadaf — chig'anoq; <sup>5</sup>durri yakdona — tengsiz gavhar; <sup>6</sup>zaqam —  
zaqqum — do'zaxda o'sadigan mevasi zaharli daraxt.



Chin oshiq esang berma ko'ngul nafsu havoga',  
Ko'p yotma, sahar uyg'ona ko'r zikri sanoga,  
G'ofil yuruma, bo'lma giriftori baloga,  
Mashrab, sen o'zung solma necha javru jafoga,  
To'g'ri yurusang el so'zidan senga ne g'amdur?!



\* \* \*

Sanamo, yuzung bihishtin gul ochib bahor qilding,  
Nega g'ayr ila tuzub bazm meni, beqaror qilding,  
Otibon g'aming o'qini, yuragim figor<sup>1</sup> qilding,  
Meni, ey xumor ko'zluk, nega muncha zor qilding,  
Tilagach jamoling, ey gul, ko'chalarda xor qilding.

Chidamay sitamlaringga ketayin olib bu boshim,  
Daru dashtlar kezibon oqizay hamisha yoshim,  
G'amu dard etsa tug'yon kuyadur ichimu toshim,  
Ko'pidin tazallumingga na ilojdur chidoshim,  
Sitamu alamlaringni bir emas, hazor<sup>2</sup> qilding.

Tilimu dilimda, jono, tunu kun erur sifoting,  
Bul ajab el og'zidadur shakaru asal, naboting,  
Kechibon bu jismu jondin, tiladim sening hayoting,  
O'lurumg'a rozi bo'ldum, nega kelmadi uyoting?  
Eshiking tubida yuz ming osilurg'a dor qilding.

Sadafing duri munavvar<sup>3</sup>, ani sen nihon tutubsan,  
Sen emassan nasli odam, pari xaylidan<sup>4</sup> o'tubsan,  
Sen o'zung uzoq tashlab meni munda ovutubsan,  
Menga bir nigoh qilmay necha o'zgani kutubsan,  
Meni badxumor aylab, kimni ixtiyor qilding?

Menga iltifot ayla, yuragimda dog' sendin,  
Yuzung ar ochilsa gulg'a, tutulur dimog' sendin,  
Necha o'lsamu yo'qolsam, yo'q erur so'rog' sendin,  
Yiqilib, qo'pub tururman, menga yo'q ayog' sendin,  
Meni o'lturub g'amingda, ela jon nisor qilding.

<sup>1</sup> F i g o r – jarohat; <sup>2</sup> h a z o r – ming; <sup>3</sup> m u n a v v a r – tishing porloq gavhar; <sup>4</sup> x a y l i d i n – guruhidan.

Gohi sayr uchun chiqibon hama yoqa qosh otarsan,  
Meni — telba itni ko'rsang quvumoqqa tosh otarsan,  
Menga tiyra<sup>1</sup> tun bo'lursan, elga quyosh etarsan,  
Menga gohi o'q yog'lsa elingga talosh etarsan,  
Ela yuz karamlar aylab, meni nega zor qilding?

Bazming bo'ldi bog'u may uchun qilib gulgun<sup>2</sup> xum,  
Menga qilmading tarahhum<sup>3</sup>, ne uchunki, toleim shum,  
Bu tirikligimdin ortuq yer ichinda bo'lg'onim gum,  
Meni qil hazor pora<sup>4</sup>, el ichinda qilma mahrum,  
Meni yo'q qilib jahonda, dushmanimni bor qilding.

Tunu kun tilab, nigoro, iki zulfung ayladim dom<sup>5</sup>,  
Baxtu toleing bo'lub yor, qo'ymadi bu domg'a gom<sup>6</sup>,  
Elga bo'lsa vasl hosil, menga bo'ldi xushk<sup>7</sup> badnom,  
Menga basdur ushbu davlat desang: «Mashrabim<sup>8</sup>  
gumnom!»  
Ne uchun burun o'zungga meni do'stdor qilding?!



---

<sup>1</sup>T i y r a — qorong'i; <sup>2</sup>g u l g u n — gulrang, qizil; <sup>3</sup>t a r a h h u m — rahm;  
<sup>4</sup>h a z o r p o r a — ming bo'lak; <sup>5</sup>d o m — tuzoq; <sup>6</sup>g o m — oyoq, qadam;  
<sup>7</sup>x u s h k — quruq; <sup>8</sup>g u m n o m — nomi o'chgan.

\* \* \*

Va'da qildi, bir kelay, deb ko'zga uyqu kelmadi,  
Telmurub yo'lida qoldum, sho'xi badxo<sup>1</sup> kelmadi.  
Necha keldi shum raqiblar, ul parirol<sup>2</sup> kelmadi,  
Dardidin o'ldum, tabib, dardimga doru kelmadi,  
Men shahidi ishq bo'ldum, qatrai suv kelmadi.

Dodxohman<sup>3</sup> ro'zi<sup>4</sup> mahshar qoshima bir kelmasa,  
Dard bilan o'ldum bukun bir lahza holim so'rmasa,  
Hammaga qilgan vafoni menga dilbar qilmasa,  
Yig'lamaymu oh urub, hargiz ko'ziga ilmasa,  
Barchaga shirin zabon, bir menga turshro<sup>5</sup> kelmadi.

Oh-voh aylab g'ariblik shahrida bemorman,  
Gar olur bo'lsang jonimni ol, sanam, bezorman,  
Pardani yuzdin ko'targil, oy yuzingga zorman,  
Sociyo, to'lguncha may ber, necha kun xummorman.  
Barcha majlislar guli zulfi sumanbo<sup>6</sup> kelmadi.

Tashna lab o'ldum g'amingdin, mehribonim, qaydasan?  
Oh urub istab yurubman, jonajonim, qaydasan?  
Izlasam yo'qdur makoning, lomakonim, qaydasan?  
Mahrami sirrim meni, ey rozdonim<sup>7</sup>, qaydasan?  
Yuz tuman<sup>8</sup> savdosi tushti, maslahatgo' kelmadi.

Yig'lamog'im besabab yo'q, ul nigorim kelmadi,  
So'z qotib yuz lutf ila bog'u bahorim kelmadi,  
Ikki dunyodini kechibman, shohsuvorim<sup>9</sup> kelmadi.

<sup>1</sup>B a d x o' — fe'li yomon, badxulq; <sup>2</sup>p a r i r o' — parirol; <sup>3</sup>d o d x o h-  
m a n — arz qilaman; <sup>4</sup>r o' z i — kuni; <sup>5</sup>t u r s h r o' — badburush, badqovoq,  
govog'i soliq; <sup>6</sup>s u m a n b o' — yasmin hidli; <sup>7</sup>r o z d o n — sirbilgich, sirdosh;  
<sup>8</sup>t u m a n — o'n ming; <sup>9</sup>s h o h s u v o r i m — chavandozim.

G'am bila bukchaydi qaddim, g'amgusorim<sup>1</sup> kelmadi,  
Mehribon ulfatnishin shirin suxango<sup>2</sup> kelmadi.

O'rtadi jonimni, do'stlar, yorni har bir so'zi,  
Boqqach imonimni oldi, ohudek o'ynar ko'zi,  
Gul uchun bulbul qafasda, zog'lar aylar bozi<sup>3</sup>,  
Jon berur vaqtca kelay deb, va'da ko'p qildi o'zi,  
Halquma yetti bu jonim, chashmi jodu kelmadi.

Yig'labon ko'yida yurdum dodima hech yetmadi,  
«Ey, g'aribi xoksorim»<sup>4</sup> deb, bu holim so'rmadi,  
Bir zamon g'ayr iltifotidin yuzun o'girmadi,  
Bul sababdin dcdxohim lahza kelib ko'rmadi,  
Ko'ngli qattig', toshbag'ir, dardimga doru kelmadi.

Kelsa yuz ming jilva aylab ul meni kuydurgani,  
Toqatim yo'qdur oni oldida bir dam turgani,  
Zulfining bandiga chirmab necha mendek bandani,  
Zulm birla tig' tortib bandani o'ldurgani,  
Bevafoning dardini ayturg'a haqgo<sup>5</sup> kelmadi.

Ko'rmasam har dam seni, baytul hazanni<sup>6</sup> naylayin?  
Qolg'on Ibrohimdin ul eski do'konni naylayin?  
Ham bihishtu kavsaru huru g'ilmonni naylayin?  
Yetti afloku sakkiz avji samoni naylayin?  
Bul sababdin yod etarga tilga «yohu»<sup>7</sup> kelmadi.

Kuygusi tongla qiyomat dudi ohimni ko'rub,  
Qolgusi mahshar eli hayron gunohimni ko'rub,  
Tiyra<sup>8</sup> bo'lg'ay yer yuzi ro'yi siyohimni<sup>9</sup> ko'rub,  
Shoyad<sup>10</sup> ul rahim aylagay, bu arzxohimni ko'rub,  
Zor o'ldum hajrida qoshimg'a haqgo' kelmadi.

Ichu toshim g'amga to'ldi, g'amgusorim, kelsano!  
Harna qilsang, sen o'zung qil, dilda borim, kelsano!

<sup>1</sup>G'amgusorim — g'amxo'rim; <sup>2</sup>suxango' — so'zamol; <sup>3</sup>bozi — o'yin; <sup>4</sup>xoksor — xarob, ayanchli; <sup>5</sup>haqgo' — haq so'zni aytuvchi; <sup>6</sup>baytul hazan — g'amxona; <sup>7</sup>yohu — aynan: ey ul ya'ni yo Oллоh!; <sup>8</sup>tiyra — qorong'i; <sup>9</sup>ro'yi siyohimni — qora yuzimni; <sup>10</sup>shoya d — zora.

Jumla shohlarning ulugʻi, nomdorim, kelsano!  
Qon toʻlubdur koʻksuma, qoshimgʻa, yorim, kelsano!  
Dilni zangin koʻrsaturga oinaro<sup>1</sup> kelmadi.

Zohido, Mashrabga deding: «Masjid ichra qoʻy qadam!»  
«Oʻlturub mehrobda, — deding, — xotiringni ayla jam!»  
Fahshidin qildim ibo, hech urmadim men anga dam,  
Turfa ishdurkim, koʻrung, masjidga kirmish dardu gʻam,  
Necha kun zohid boʻlub, koʻngulga bir «hu»<sup>2</sup> kelmadi.



---

<sup>1</sup>O i n a r o' — ko'zguuz; <sup>2</sup>h u — aynan: u, ya'ni Olloh.

\* \* \*

Ey sanam, gulgul yonibsan, may ichib, raxshonmusan?<sup>1</sup>  
Barq urodur gul yuzung, hay-hay, mahi tobonmusan?<sup>2</sup>  
Xush kulub berg'il javobim, jonmusan, jononmusan?  
Olloh-olloh, pora ko'nglum taxtig'a sultonmusan?  
Shishai jonimg'a tushgan bir pari javlonmusan?

Silkinib bir-bir yurursan, bul ajab mastonasan,  
May ichibon tir chekibsan, turfa gulgun yonasan,  
Bu nazokatda turursan, sen nachuk jononasan?  
Gulmusan, rayhonmusan yo durmusan, durdonasan?  
La'Imu, yoqutmusan yo gavharu marjonmusan?

Orazing — anvar, xating — anbar, labing — shahdu shakar,  
Pistai xandondur og'zing, ko'zlarining bodomi tar<sup>3</sup>,  
Orazing sahnini aro xolu xatingdur<sup>4</sup> jilvagar,  
Bu nazokatlar bila, hay-hay, kelibsan dar nazar,  
Gulmusan, bulbulmusan, sunbulmusan, rayhonmusan?

Ikki ruxsoring qizil guldurmu yo bargi suman?<sup>5</sup>  
Donai rayhon — qaro xolu, xating — sahnini chaman.  
Siyam tan<sup>6</sup>, gul pirahan<sup>7</sup>, shirin suxan, nozik badan.  
Odamisan yo parisani bu nazokat birlasani,  
Hurmisan, g'ilmonmusan, jannatmusan, rizvonmusan?

Gul — yuzung, nargis — ko'zung, rayhon — xating,  
gulg'uncha — lab,  
Mahv bo'ldum, ey pari, bir dam jamolingga qarab,  
Qomating naxli<sup>8</sup> bihishtidur, zanaxdoning<sup>9</sup> — rutab,<sup>10</sup>

<sup>1</sup>Raxshonmusan — yaltiroqmisan, porloqmisan?; <sup>2</sup>mothitobonmusan — porloq oymisan?; <sup>3</sup>tar — yangi uzilgan, ho'l; <sup>4</sup>xat — ustki labdagi mayin tuklar; <sup>5</sup>suman — yasmin (jasmin), oq gul; <sup>6</sup>siyamtan — kumush tan; <sup>7</sup>gulpirahan — gulko'ylak; <sup>8</sup>naxli — niholi; <sup>9</sup>zanaxdon — iyak; <sup>10</sup>rutab — yangi uzilgan xurmo.

Zulf ila xoling yuzung uzra yarashubdur ajab,  
Misrg'a lashkar to'kubsan, shohi Hindustonmusan?

La'li raxshondur<sup>1</sup> labing, qursi sabohi<sup>2</sup> g'abg'abing<sup>3</sup>,  
Oy yuzungga xo'b yarashur dona-dona kavkabing<sup>4</sup>,  
Dog'lar qo'ydi yurakka ul qaro xolu xating,  
Muncha dog' etmak nedurkim, ey sitamgar, ko'zlaring,  
O'ldurursan, tirgizursan, Isoi davronmusan?

To qadam qo'yding chaman sahniga, ey bexor<sup>5</sup> gul,  
Qildi poyandoz shamshodi qizil ruxsor gul,  
Qarqarang — sunbul, kulohing — g'unchai dastor<sup>6</sup> gul,  
Qildi avrodingni<sup>7</sup> Turi Sinoda takror gul,  
Qomatingdur turfa nozuk, ximchai larzonmusan?

Turrai zulfung xam egildi chin-chin<sup>8</sup> ustig'a chin,  
Chiniylar keldi bu chin savdosig'a Chin mulkidin,  
Silkinib uydin chiqarsan sarv bo'yuk nozanin,  
Men nechuk qilmay fido jonu dilu imonu din,  
Xush kulub jonim olursam, g'unchai xandonmusan?

So'zlaring shahdu<sup>9</sup> shakardur, lablaring — qandu asal,  
Qomatingdur nayshakar, boshdin ayog'ing bebadal<sup>10</sup>,  
Bir navo aylay, qulog' solg'il, eshitgil filmasal,  
Bulbuling men, sen gulimsan ham gulistonim azal,  
Mashrabing o'rtandi, ey gul, otashi so'zonmusan?



---

<sup>1</sup>Raxshon — porlaydigan, yarqiroq; <sup>2</sup>qursi saboh — tonggi quyosh;  
<sup>3</sup>g'abg'abing — bag'baqang; <sup>4</sup>kavkabing — yulduzlaring (xollaring);  
<sup>5</sup>bexor — tikansiz; <sup>6</sup>dastor — salla; <sup>7</sup>avrod — muttasil takrorlanadigan  
duolar; <sup>8</sup>chin-chin — halqa-halqa, burama; <sup>9</sup>shahd — asal; <sup>10</sup>bebadal —  
mislisiz.



\* \* \*

Xonumonicin judo bo'lgan kishidin dard so'rang,  
O'rtanib qaddi duto<sup>1</sup> bo'lgan kishidin dard so'rang,  
Yuz alamga oshno bo'lgan kishidin dard so'rang,  
Bekasu<sup>2</sup> bernuttako<sup>3</sup> bo'lgan kishidin dard so'rang,  
Misli men, bedastupo<sup>4</sup> bo'lgan kishidin dard so'rang.

Telmurib qoldim bu yo'lda hamsafardin ayrilib,  
Yo'l adoshib g'amdadurman rohbardin ayrilib,  
Baxt qaro keldim bu yo'lda yaxshilardin ayrilib,  
Andalib<sup>5</sup> erdim, qolibman bolu pardin<sup>6</sup> ayrilib,  
Men kabi baxti qaro bo'lgan kishidin dard so'rang.

Onadin tug'mish kunim ro'ze<sup>7</sup> halovat ko'rmadim,  
Bu raboti ko'hnada men istiqomat ko'rmadim,  
G'arq bo'ldum bir necha mehnatga, rohat ko'rmadim,  
G'ussadin o'ldum bu kun, xobi<sup>8</sup> farog'at ko'rmadim,  
Xonabardo'shu<sup>9</sup> gado bo'lgan kishidin dard so'rang.

Dast xushku<sup>10</sup> bebizoatman<sup>11</sup> jahondin besamar<sup>12</sup>,  
G'amnoku otashga tushganman, qolibman mushtipar,  
Bekasu bemuttako bo'lgan kishini kim so'rar,  
Ichganim zahrobadur<sup>13</sup>, har soati xuni jigar,  
O'rtanib sohib azo<sup>14</sup> bo'lgan kishidin dard so'rang.

---

<sup>1</sup>Duto - bukilgan; <sup>2</sup>bekasu - kimsasiz; <sup>3</sup>bernuttako - suyanchiqsiz; <sup>4</sup>bedastupo - qo'l oyoqsiz; <sup>5</sup>andalib - bulbul; <sup>6</sup>bolupar - qanotu pat; <sup>7</sup>ro'ze - biror kun; <sup>8</sup>xobi - uyqu; <sup>9</sup>Xonabardo'sh - xonavayron, uy-joysiz; <sup>10</sup>xushku - quruq; <sup>11</sup>bebizoat - mol-mulksiz, yo'qsil; <sup>12</sup>besamar - hosilsiz, nomurod; <sup>13</sup>zahroba - zardob; <sup>14</sup>sohib azo - azal.

Bul mening rozi dilimni zor bo'lganlar bilur,  
Dard ko'rganlar bilur, bemor bo'lganlar bilur,  
G'ussa-g'am birla dili afgor bo'lganlar bilur,  
Bir aziz boshi, chunonam, xor bo'lganlar bilur,  
Yo'l aro berahnamo' bo'lgan kishidin dard so'rang.

Misli qagnusdek otash oshyonimdin chiqar,  
Nola qilsam otashi so'zon zabanimdin chiqar,  
Sho'rishi mahshar mening ohu fig'onimdin chiqar,  
Dard ko'rganlar bayoni dostonimdin chiqar,  
O'rtanib qaddi duto bo'lgan kishidin dard so'rang.

Muddate bo'ldi, bu yo'lda istirohat menda yo'q,  
Kashfdin xolidururman, nuri karomat menda yo'q.  
Loladek siynamda dog'im bor, farog'at menda yo'q,  
Rozi dil izhor qilurg'a ahli suhbat menda yo'q,  
Rangi zardu kahrabo<sup>2</sup> bo'lgan kishidin dard so'rang.

G'ussadin afsurdaman<sup>3</sup>, bag'rimda qonim qolmadi,  
Bo'ldi xokistar<sup>4</sup> vujudim, ustuxonim qolmadi,  
G'am fano qildi meni, nomu nishonim qolmadi,  
Onqadar o'rtandi jismi notavonim qolmadi,  
Hajru g'am birla fano bo'lgan kishidin dard so'rang.

Mashrabo, zulmatga g'arq bo'ldi mening obu gilim<sup>5</sup>,  
Bu sababdin tang kelibdur, boraturgon manzilim,  
Har zamon, har lahza, har soat parishondur dilim,  
Izlasam yonimda yo'q bir g'amgusori qobilim<sup>6</sup>,  
O'rtanib qolgan, ado bo'lgan kishidin dard so'rang.



---

<sup>1</sup>B e r a h n a m o — yo'lboshchisiz; <sup>2</sup>k a h r a b o — sariq tosh; aynan: somon tortar. Shu xususiyat kahraboda bor; <sup>3</sup>a f s u r d a — abgor; <sup>4</sup>x o k i s t a r — kul (olov kuli); <sup>5</sup>o b u g i l i m — suvu tuprog'im (vujudim); <sup>6</sup>q o b i l i m — yaroqli g'amxo'rim.



\* \* \*

Gul-gul yuzungni ochib kel sayri bog'a dilbar,  
Nozu karashma birla kelgil quchog'a dilbar,  
Anbar isingni har dam keltur dimog'a dilbar,  
Gulchehralar boshingdin bo'lsun sadog'a dilbar,  
Rahm ayla, siynam uzra dog' uzra dog'a dilbar.

Ey gul, mening bu jonim bo'lsun sanga tasadduq,  
Bu jismi notavonim bo'lsun sanga tasadduq.  
Yo'lungda xonumonim bo'lsun sanga tasadduq,  
Toki ruhi ravonim bo'lsun sanga tasadduq.  
Rahm ayla, siynam uzra dog' uzra dog'a dilbar.

Ishqingda, ey parivash, devonalar bo'lubman,  
Jomi muhabbatingdin mastonalar bo'lubman.  
Sabru qarorim olding, sarsonalar bo'lubman,  
Sham'i ruhingda, ey moh, parvonalar bo'lubman,  
Rahm ayla, siynam uzra dog' uzra dog'a dilbar.

Qadding «alif»ga o'xshar, qoshing chu yo nigorim,  
Kuydum g'amingda, ey yor, so'rsangchi holi zorim,  
Har dam mushavvash<sup>1</sup> aylab, olding mening qarorim,  
Hajringdadur qarong'u, ey moh,<sup>2</sup> ro'zg'orim,  
Rahm ayla, siynam uzra dog' uzra dog'a dilbar.

Boshingdin o'rgulayin, ikki qizil yuzungdin,  
Ham qaddu qomatingdin, ham qoshingu ko'zingdin,  
Ul xoli lab yarashgan avroqi orazingdin<sup>3</sup>,  
Jismimda jon taloshur har jonfizo<sup>4</sup> so'zungdin,  
Rahm ayla, siynam uzra dog' uzra dog'a dilbar.

<sup>1</sup>M u s h a v v a s h —parishon; <sup>2</sup>m o h — oy; <sup>3</sup>o r a z — yuz chehra;  
<sup>4</sup>j o n f i z o — jon bag'ishlovchi;

Holimni so'rmading hech, ey mahvashi shakarlab,  
Ey mahvashi shakarlab, ey sho'xi siym g'ab-g'ab,  
Jon kuydi tan ichinda, afsurda bo'ldi qolab,  
Kuydurma, ey nigorim, muncha meni jafolab,  
Rahm ayla, siynam uzra dog' uzra dog'a dilbar.

Olmak ko'ngulni, ey jon, hay-hay, na dilrabosan,  
Sangin<sup>1</sup> dilu jafajo', purxashmu<sup>2</sup> purjafosan,  
Xuboni olam ichra bir huri bevafozan,  
Naylayki, ey parizod, g'ayr ila oshnosan,  
Rahm ayla, siynam uzra dog' uzra dog'a dilbar.

Holing'a qil tarahhum, ey sarvi qaddi ra'no,  
Qil chashmi marhamatdin Mashrabga bir dam parvo<sup>3</sup>,  
G'amzangning o'qi birla tushti jahonga g'avg'o,  
Hur o'lsa sendin o'zga qilmam ani tamosho,  
Rahm ayla, siynam uzra dog' uzra dog'a dilbar.



---

<sup>1</sup>S a n g — tosh; <sup>2</sup>p u r x a s h m — achchig'i tez; <sup>3</sup>p a r v o — nazar.

---



## MUSADDASLAR

\* \* \*

Ne g'urbatlarni chektim, charxi bebunyod, dastingdin,  
Tamomi xonumonim o'ldi chun barbod dastingdin,  
Qafasdin bo'lmadimki, qumridek ozod dastingdim,  
Mudom motamda bo'ldum, bo'lmadim dilshod dastingdin,  
Hama obod bo'ldi, bo'lmadim obod dastingdin  
Ki, men har qayg'a borsam, dod etarman, dod dastingdin.

Ko'zumning oqi yanglig' mehribonimdin ayurdilar,  
Dilimning quvvati ruhi ravonimdin ayurdilar,  
Anisim, munisim, dilbandi jonimdin ayurdilar,  
Jahon gulzorida ul gulistonimdin ayurdilar,  
Hama obod bo'ldi, bo'lmadim obod dastingdin  
Ki, men har qayg'a borsam, dod etarman, dod dastingdin.

Chamanda bulbuli bexonumonman, oshyonim yo'q,  
Misoli chug'zdek vayronalarda ham makonim yo'q,  
Vafolig' yor deb chiqti — jasadda balki jonim yo'q,  
Azizimdin judo bo'ldum, boshimg'a soyabonim yo'q,  
Hama obod bo'ldi, bo'lmadim obod dastingdin  
Ki, men har qayg'a borsam, dod etarman, dod dastingdin.

Bu olam xalqi ichra dil parishon bo'lmasun hech kim,  
Ko'zi chun telmurub yo'llarg'a, hayron bo'lmasun hech kim,  
Bahori gulshani umri zimiston<sup>1</sup> bo'lmasun hech kim,  
Bu dunyo diydasiga<sup>1</sup> torikiston<sup>2</sup> bo'lmasun hech kim,  
Hama obod bo'ldi, bo'lmadim obod dastingdin,  
Ki, men har qayg'a borsam, dod etarman, dod dastingdin.

---

<sup>1</sup>Zimiston — qish;

Iloho, menga yetkurg'aymukin xurshidi matlabni,  
Saodat vaqtida boshimg'a chun iqboli kavkabni,<sup>3</sup>  
Iloho, sen yetur himmat yo'lig'a xasta Mashrabni,  
Ko'targaysan boshimdin ikki olamda qaro shabni<sup>4</sup>,  
Hama obod bo'ldi, bo'lmadim obod dastingdin  
Ki, men har qayg'a borsam, dod etarman, dod dastindin.



---

<sup>1</sup>Diydasiga — ko'ziga; <sup>2</sup>lorikiston — qorong'iston; <sup>3</sup>kavkab — yulduz; <sup>4</sup>shab — tun.

Ey pari, yuz ko'rsatub ming noz ila boqqonmusan?  
 Xirmaning umrung'a ishqing o'tini yoqqonmusan?  
 Mehrdek<sup>1</sup> husnungga zulfung abrini<sup>2</sup> yopqonmusan?  
 O'zga yuzga boqmasun, deb ko'zga mix qoqqonmusan?  
 Aylanib har yong'a g'amzang o'qini otqonmusan?  
 Qatl aylarg'a meni tarjih<sup>3</sup> etib toshqonmusan?

Sunbulu rayhon sochar har dam parishon kokuling,  
 Barchani bulbul qilur ul toza<sup>4</sup> ochilgan guling,  
 Mast etar ag'yorni lab jomidin gulgun muling<sup>5</sup>,  
 La'lu marjonlar to'kar ko'z maxzanidin<sup>6</sup> bulbuling,  
 Itifoting maxzanidin topmadi mahzun quling,  
 Tole'imga lutfu ehson eshigin yopqonmusan?

Shodlik davri menga durkim — maskaning mayxonadur,  
 Tunu kun ishrat mayidin ko'zlaring mastonadur,  
 La'lgun<sup>7</sup> may tobidin<sup>8</sup> yuzung aro durdonadur,  
 Jon umid aylab o'shal durlar uchun parvonadur,  
 Dardu mehnat toshidin ko'nglum mening vayronadur,  
 Notavon ko'nglumga har dam dog'lar qo'yg'onmusan?

Mendin o'ldung ne uchun, ey dilrabo, oshufta hol,  
 Barcha el ko'ngul qushung tutmoq uchun aylar xayol,  
 Lola yanglig' yuzlaringdur, qoshlaring oydek hilol,  
 Dam-badam suv o'rnig'a la'ling to'kadur jomi bol,  
 Sarv shoxin har tarafga moyil etgandek shamol,  
 Jilva aylab qayrilursan ximchai larzonmusan?  
 Xo'b yaroshur, ey nigorim, boshing uzra qarqarang,  
 Ushbu ziyatlar bila bul notavong'a bir qarang!  
 Tarki zulm et, lahzaye rahm ayla, ey shohi farang!  
 Qorasi xo'bdur, qoshingga vusma birla surma rang,

<sup>1</sup>M e h r d e k — quyoshdek; <sup>2</sup>a b r i n i — bulutini; <sup>3</sup>t a r j i h — mumtoz, ustun; <sup>4</sup>t o z a — yangi; <sup>5</sup>m u l i n g — maying; <sup>6</sup>m a x z a n i d i n — xazinasidan; <sup>7</sup>l a ' l g u n — la'lrang, qizil; <sup>8</sup>t o b i — asiri.

Turfa nozuk gul yuzungga kirpiging sanchib xadang<sup>1</sup>,  
Barcha mahvash ishq aro qul, husn aro sul-tonmusan?

Sog'ar ichgach gul ochilg'ondek qilursan xandalar,  
Jon topar qah-qah unungdin qaytadin jonkandalar<sup>2</sup>,  
Tiyri g'amzangdin yo'lingda ko'p erur afkandalar<sup>3</sup>,  
Barcha zebolar seni ko'rsa bo'lur sharmandalar,  
Layliyu Shirin kabi ko'yingda yuz ming bandalar<sup>4</sup>,  
Barcha hurni nopadid<sup>5</sup> etgan mahi tobonmusan?

Qatl uchun kiygan to'ningni gul bila tikkanmudur?  
O'lturub boq har taraf—andin sochilgan qonmudur?  
Har biri guldek yuz ochib sen kabi jononmudur?  
Tig' ursang qochmayin qolg'on qulung nodonmudur?  
Nozu g'amzang tig'i birla o'lmagan ham jonmudur?  
O'tmusan yo gulumusan yo la'lmusan, marjonmusan?

Otashin la'li mayingdin jur'aye<sup>6</sup> qildim talab,  
Va'da qilding: «Lutfu ehsondin beroyin labbalab!»<sup>7</sup>  
Boqmading, bilmam gunohim, ko'z uchi birla qarab,  
Bul ajab, mahram yo'qinda bizga bo'ldi ro'z<sup>8</sup> shab<sup>9</sup>,  
Ne sababdin quvlading men xasta qulni tashnalab,  
Aytg'ilo, tangri uchun, chinmu so'zing yolg'onmusan?

Qatl etar har kunda men bechorani kofir ko'zung,  
Qaysi shohni haddi man' etmoqqa — hokimsan o'zung,  
Kecha—ishrat birla, qon to'kmakda o'tti kunduzung,  
Lahzada yuz ming o'lukg'a jon berur har bir so'zung,  
G'unchadek og'zing ochib, Mashrab qulungni tirguzung,  
O'ldurursan, tirguzursan — Isoi davronmusan?



---

<sup>1</sup>Xadang — kamon o'qi. <sup>2</sup>Jonkandalar — jon uzganlar, marhumlar;  
<sup>3</sup>afkandalar — sho'rlıklar; <sup>4</sup>bandalar — qullar; <sup>5</sup>nopadid —  
ko'rinmaydigan, g'oyib; <sup>6</sup>jur'aye — bir qultum; <sup>7</sup>labbalab —  
limmo-lim; <sup>8</sup>ro'z — kunduz; <sup>9</sup>shab — kecha.



---

## MUSABBA'

\* \* \*

Ey g'unchai navxezi<sup>1</sup> guliston malohat,  
V-ey, toza niholi chamanoroi nazokat,  
Zulfi siyahing<sup>2</sup> fitnayu xolu xating — ofat,  
Yo'lungda tegar boshima ming sangi<sup>3</sup> malomat,  
Maqbulsan, ey dilbari xush lahja, bag'oyat,  
Vah-vah, na go'zalsan, na ajoyib, na qiyomat!  
Hay-hay, na jafo qilsa sanam — jonima rohat!

Ul xolki kunji<sup>4</sup> labi jonona tushubdur,  
Jon olmoq uchun ko'zlari mastona tushubdur,  
Hindu bachaki, mulki Sulaymona tushubdur,  
Ul chohi zanaxdoniga<sup>5</sup> bir dona tushubdur,  
Chun Yusufi Ya'qubki zindona tushubdur.  
Vah-vah, na go'zalsan, na ajoyib, na qiyomat!  
Hay-hay, na jafo qilsa sanam — jonima rohat!

Gul g'unchai nozik badanim, lola uzorim,  
Shamshod qadim, siym tanim<sup>6</sup>, chashmi<sup>7</sup> xumorim,  
Husn mulkida jonona bo'lan shohsuvorim<sup>8</sup>,  
Kel oldima jon sadqa qilay senga, nigorim,  
Ham sabru qaror qolmadi, ko'nglumda — madorim.  
Vah-vah, na go'zalsan, na ajoyib, na qiyomat!  
Hay-hay, na jafo qilsa sanam — jonima rohat!

Husnung varaqida yozilib turfa ajib xat,  
Yokim yasamishlar tabaqi la'lu zabarjad<sup>9</sup>,  
Bir shevai noz ila agar neku<sup>10</sup> agar bad<sup>11</sup>,  
Raftoring ila qomating ul to'bi xushqad,  
Ey mohi barin<sup>12</sup>, zulfi siyohingki mujarrad.  
Vah-vah, na go'zalsan, na ajoyib, na qiyomat!  
Hay-hay, na jafo qilsa sanam — jonima rohat!

---

<sup>1</sup>N a v x e z — yosh, toza, yangi o'sib kelayotgan; <sup>2</sup>s i y a h — qora; <sup>3</sup>s a n g i — toshi; <sup>4</sup>k u n j i — burchagi, cheti; <sup>5</sup>z a n a x d o n i g a — iyak chuqurchasiga (kulgichiga); <sup>6</sup>s i y m t a n i m — kumush tanim; <sup>7</sup>ch a s h m — ko'z; <sup>8</sup>sh o h s u v o r i m — chavandozim; <sup>9</sup>z a b a r j a d — qimmatbaho yashil tovlanadigan tosh; <sup>10</sup>n e k — yaxshi; <sup>11</sup>b a d — yomon; <sup>12</sup>b a r i n — yuksak, oliy darajali.

Ey mug'bacha, marg'ublug'ing haddin o'tubdur,  
Ovozai husnung hama olamni tutubdur,  
Gulzori jamolingga gulu lola bitubdur,  
Mashshotai<sup>1</sup> taqdir seni xush yasatubdur,  
Yuzungni ko'rub, odami jannat unutupdur.

Vah-vah, na go'zalsan, na ajoyib, na qiyomat!

Hay-hay, na jafu qilsa sanam — jonima rohat!

Bul turfa xiromi qilibon necha tamanno,  
Kuydum, meni yod etmading, ey mahvashim, aslo,  
La'lingga yozilgan xati sabzang — guli ra'no,  
Bir tarz nigohingga qilibsan meni shaydo,  
Qoshing qalamu sham'i jamoling chamanoro.

Vah-vah, na go'zalsan, na ajoyib, na qiyomat!

Hay-hay, na jafu qilsa sanam — jonima rohat!

Davron eli bu tarzi nigohingga tasadduq,  
Ohui Xo'tan chashmi siyohingga tasadduq,  
Jononai Chin zulfi dutohingga<sup>2</sup> tasadduq,  
Bag'dod ila Rum tarfa<sup>3</sup> kulohingga tasadduq,  
Men ham bo'layin ro'yi chu mohingga<sup>4</sup> tasadduq.

Vah-vah, na go'zalsan, na ajoyib, na qiyomat!

Hay-hay, na jafu qilsa sanam — jonima rohat!

Har dam mani bechora qilib dod ila afg'on,  
Ko'yingda yurubman necha yil besaru somon<sup>5</sup>,  
Ul sarvi qading yodina qumri kabi nolon,  
Qurboning o'lay, muncha meni qilma parishon,  
Sensan shohu xoqonu jononai davron.

Vah-vah, na go'zalsan, na ajoyib, na qiyomat!

Hay-hay, na jafu qilsa sanam — jonima rohat!

Kokullaring halqasin chun oy ko'rubman,  
Jon rishtasin har toriga barjoy ko'rubman,  
Kipriklaring o'qlarini yoy ko'rubman,  
Gisularing sunbulin barpoy ko'rubman,  
Mashrabni o'zum oshiqi xudroy<sup>6</sup> ko'rubman.

Vah-vah, na go'zalsan, na ajoyib, na qiyomat!

Hay-hay, na jafu qilsa sana — jonima rohat!



<sup>1</sup>M a s h s h o t a — qiz-kelinlarni pardozlab bezatadigan ayol; <sup>2</sup>d u t o h i n g g a — qayrilma zulfigga; <sup>3</sup>t a r f a — uchiga; <sup>4</sup>m o h i n g g a — oyday yuzingga; <sup>5</sup>b e s a r u s o m o n — dalli-devona; <sup>6</sup>x u d r o y — o'zboshimcha, qaysar.

## MUNDARIJA

### G'azallar

«Tushdi savodi muhabbat boshima».....	4
«Men nola qilay shomu sahar dod eshigingda».....	5
«Devonadurman sharn'i shararjilva sanamg'a».....	6
«Sanam yuzini ko'rsatur oshiqi muhtalosisg'a».....	7
«Sensan sevarim, xoh inon, xoh inonma».....	8
«Arzimni aytay bodi sabog'a».....	9
«Ko'nglumni berdim sen bevafo'g'a».....	11
«Ko'rsat jamoling mastonalarg'a».....	12
«Ey sabo, g'ambodadurman, bistarimni kavlama».....	13
«Netay, ey do'stlar, bo'lmay yuzi sham'ig'a parvona».....	14
«Dil ani derlarki, hargiz mojarosi bo'lmasa».....	15
«Borurman ostoniga sahar ohista-ohista».....	16
«Ey falak, qilding meni ul mehribonimdin judo».....	17
«Bulbul erdim qildi g'am oxir gulistondin judo».....	18
«Zihi rasvolig'im olamg'a soldi sho'ru shar tanho».....	19
«Ul sho'xi parivash bila gar boda ichayno».....	20
«Setor ila savti navo aylaganing xo'b».....	21
«G'am biyobonida qoldim, yig'ladim ko'p yor deb».....	22
«Doimo yoding bila yurdum chu sargardon bo'lub».....	23
«Shuhrat aylab kim alardek xudnamolarni ko'rung».....	24
«To kiydi qizil, o'zini zebo qiloyin deb».....	25
«Ofati jonim, ul sanam, qoshi qarosini ko'rung».....	26
«Hech kima ma'lum emas holi parishonim mening».....	27
«Oxirimni dardu g'amga oshno qildi bu dard».....	28
«Bir boqib menga qaro ko'z uchidin jonon qiz».....	29
«Kokuling anbar durur, jon ichida jonon qiz».....	30
«Jahonda topmadim hamdard, qoldum notavon yolg'uz».....	31
«Barchalar yondi gunohdin, menki yonmasman hanuz».....	32
«Men nechuk yurgum bu g'urbatxonada dildorsiz».....	33
«Jafo qilding bu jonimg'a, vafoni ko'rmadim hargiz».....	34
«Ko'rundi ko'z qarosiga magar xayli parizode».....	35
«Ming sho'ru fig'on birla, hay-hay, ne balo keldi».....	36
«Kecha bazmingdin yiroq ishq ahli chandon yig'la'di».....	37
«Tushti ishqing, ey pari, aqlimni hayron ayladi».....	38
«Namangon shahridin, do'stlar, mening yoronlarim keldi».....	39
«Men kimga aytay, do'stlarim, devona qildi ishq meni».....	40
«Bul g'ariblig' mehnati ko'nglumg'a ko'b kor ayladi».....	41
«Oshiq uldur to dilida saqlasa asromni».....	42
«Ma'rifat bozorining devonasi».....	43
«Oq yuzungda xolu xat ko'z ko'rmag'aydi koshki».....	44

«Nogoh ko'runub ko'zlari shahlo boqa qoldi».....	45
«Ey sanam, hajring o'tig'a diyda giryon bo'lg'usi».....	46
«Meni davron bu kun dardu alamg'a muftalo qildi».....	47
«Kel, ey dilbar, yuzung ochg'il, tasadduqdur».....	48
«Kimga aytib yig'layin nozuk adoning dardini».....	49
«Kel, ey dilbar, bayon aylay senga bir-bir judolig'ni».....	50
«Bu tani xokiyniyu ruhi ravonni na qilay».....	51
«Dilbar ko'yida «Vashshamsu» «vazzuho» o'quy».....	52
«Murodingga yetay desang qalandar bo'l, qalandar bo'l».....	53
«Yorni ko'yida men javlon qilay».....	54
«Onqadar nurga to'libman osmonga sig'madim».....	55
«Bu olamda o'zumdek siynasi afgor topmadim».....	56
«Qalandar Mashrabingman, ikki olamni tepib o'ttum».....	57
«Ishq vodisidin bir kecha men hay-halab o'ttum».....	58
«Jamoling ko'rgali keldim, ayo, ey mehribon onam».....	59
«Ishq o'tiga o'rtanib devona bo'lgan o'zginam».....	60
«O'shal kun senga, ey sho'xi sitamgar, oshno bo'ldum».....	61
«Tomosha aylamakka go'shayed in anjuman keldim».....	62
«To olami zohirg'a kelib man guzar ettim».....	63
«Yeti, daryog'a qo'shuldi obi chashmi himmatim».....	64
«Yaraydur menga hijron ilkidin faryodlar qilsam».....	65
«O'shal ro'zeki men sendin judolig' birla zor ettim».....	66
«Setorim torig'a jon rishtasidin tor eshib cholsam».....	67
«Men erdim bulbuli go'yo, fig'on birla chaman keldim».....	68
«Bazmi sham'ingdin zamona ichra bir giryon o'zum».....	69
«Angla bu so'zni, ey sanam, oshiqi muddao o'zum».....	70
«Dunyoga kelib loyiga bilmay bota qoldim».....	71
«Meni devona qildi ul pari raftor qomat ham».....	72
«Suzuk ko'zluk, sarig' sadbarg' yuzungni, dilrabo, ko'rsam».....	73
«Bataqdiri xudo birla o'shal yorimni men ko'rsam».....	74
«Shohi jahonim, ishqingda o'ldum».....	75
«Seni ko'r dum hama elni unuttum».....	76
«Ishqing o'tig'a kuyg'oli keldim».....	78
«Sening vaslingni, ey jonon, meni afgor sog'indim».....	79
«Jonon, yuzingni ko'rgoli keldim».....	80
«Nogoh ko'rubon mahvi jamoling bo'la qoldim».....	81
«Ko'r dum yuzungni devona bo'ldum».....	82
«Dunyo sorig'a bir kelibon g'amzada kettim».....	84
«Dunyoni pushti po urub Adhami benavo o'zum».....	85
«Gulshanu bog'i dahr aro bulbuli nag'magar o'zum».....	86
«Qiyomatdur, agar, jonoki, men sendin judo bo'lsam».....	87
«Zebo sanamim yo'l uza ko'rgach tura qoldim».....	88
«Ayo dilbar, sani ko'rgach, base, man muftalo bo'ldum».....	89
«Qildi menga bir jilvaye nogoh boqa qoldim».....	90

«Dunyoga kelib ranju' baloni ko'rub o'ttum».....	91
«Netgum, sanamo, ishqing o'tida vatan ettim».....	92
«Seni ishqingda, ey dilbar, ajab devonalo bo'ldum».....	93
«Sabr ila ham farog'atim qolmadi tanda toqatim».....	94
«Nigorim, gul' uzoringni ko'rolmay muftalo bo'ldum».....	95
«Dil dashtida g'am ohularig'a vatan ettim».....	96
«Dargohingga bir ojizu afgor kelibman».....	97
«Mendin salome ba so'yi jonon».....	98
«Tinmayin yurdum bu g'am dashtida hayronliq bilan».....	99
«Sanamning shavqida tinmay yurub ovvora Mashrabman».....	100
«Takallum aylasang gohi labi shakkarfishoningdin».....	101
«Ey gul badanim, gul yuzunga banda bo'loyin».....	102
«Azaldin to abad ko'nglum qutulmas ishq balosidin».....	103
«Ruhi pokim arshg'a etti men o'zum osmoniman».....	104
«Ey meni nozik nihol oromi jonim, qaydasan».....	105
«Qonimni to'kar ermish Balx shahrida Mahmudxon».....	106
«O'lduroyin dermusan yo kuyduroyin dermusan?».....	107
«Bo'lmasam Majnun, biyobondin nechuk aylay suxan?».....	108
«Ming «Analhaq!» keladur Mansur osilg'an dordin».....	109
«Intizoringdin chiqodur jonim, ey jon, qaydasan».....	110
«Yorning ko'yida o'lg'on bormukin».....	111
«Bul musofir shahrida har dam tutoshib yonaman».....	112
«Ishq sargardonidurman, yo'q menga sabru sukun».....	113
«Zulfining savdosidin ko'nglum parishondur bukun».....	114
«Na holatdur, ayo do'stlar, ajab hayrona Mashrabman».....	115
«Qarorim yo'q ko'ngulda lahzaye, sarsona Mashrabman».....	116
«Ishqing o'tidin, dilbar, har damda kuyay derman».....	117
«Jamoling sog'inib shomu sahar men zor yig'larman».....	118
«Muhabbat o'tig'a bag'rim kuyub, biryona yig'larman».....	119
«Ul dilbari ra'noni men yor tutay derman».....	120
«Jilva qilursan ming noz birlan».....	121
«Majnun o'la kezdin necha yil dashtu biyobon».....	122
«Agar oshiqlig'im aytsam, kuyub jonu jahon o'rtar».....	123
«Ajab Majnun erurman dasht ila sahrog'a sig'mamdur».....	124
«Har kishini dardi bo'lsa, diydasidin nam kelur».....	125
«Shahdu shakardin ortug'um, oromi jonim keldilar».....	126
«Mavji daryoi talotum sho'rishi mahsharcha bor».....	127
«Dilbar yuzini ko'rgan: devona kelibdur».....	128
«Zebo sanamim o'zini zebo yasatibdur».....	129
«Na hojat hajji akbar, Koshg'ar uzra mazorum bor».....	130
«Bo'yungni, ey pari, monandai sarvi raso derlar».....	131
«Sening ishqingda, ey dilbar, yurakim tah-batah qondur».....	132
«Gulgun may ichib lola uzorim keladur».....	133
«Zohid, meni ayb etma, gul yuzu dudog' o'rtar».....	134

«Parda ko'tarib ul sho'x har lahza itob aylar».....	135
«Seni Laylii ra'nodek ajoyib dilrabo derlar».....	136
«Setor demang, holi dilim so'rg'uchi tanbur».....	137
«To xil'ati zohir kiyibon zebi tanimdur».....	138
«Qoshing mehrobi, ey dilbar, meningkim qiblagohimdur».....	139
«Ishqingda meni volayu hayron yaratubdur».....	141
«To telbalig'im shuhrati olamin tutubdur».....	142
«Chiqsam ko'chalarg'a shohsuvorim keladur».....	143
«Latofat bog'i ichra qomating sarvi xiromondur».....	144
«Chun qo'lum birla oyog'im bog'lamoq hojat emas».....	145
«Yetmasa bodi sabo g'unchag'a xandon bo'lmas».....	146
«Dardim o'tig'a yoru birodar chidayolmas».....	147
«Xurshid yuzung shu'lasig'a jon chidayolmas».....	148
«Mening rozi dili zorim farovondur, bitib bo'lmas».....	149
«Malaksan yo bashar, yo huru g'ilmonsan, bilib bo'lmas».....	150
«Ishq mazhabig'a taqviyu toat chidayolmas».....	151
«Sharh aylasam ishq daftarini jon chidayolmas».....	152
«Naylayin, dildordin begona bo'ldum oqibat».....	153
«Onadin bo'ldum, jahonda bo'lmadim shod oqibat».....	154
«Qildi bu charxi falak rasvoi davron oqibat».....	155
«Ey sabo, borsang duo davlatli sultonimga ayt».....	156
«Namangon shahridin ketsam, meni yo'qlar kishim bormu».....	158
«Ne savdolar bosha solding, bu savdolar tuganmazmu».....	159
«Tiriklikda judo bo'lg'on kishi yorini ko'rgaymu».....	160
«Mening jonimni kuydurmoq uchun oromijon gulrux».....	161
«Tasadduqing' bo'layin, ey pari, jamoling och».....	162
«Meni avvora bo'lg'onga firoy o'ti davo ermish».....	163
«Bir boqishingga jumlai jonona tasadduq».....	164
«Lomakonni shahrida oshiqni shaydo qildi ishq».....	165

### Mustazodlar

«Ey moh, netay, ishqing o'ti ayladi rasvo».....	166
«Nogoh ko'rubon lo'chada ul sarvi xiromon».....	167
«Vaslingini topay deb, sanamo, fikru g'amim bor».....	168
«Sen shohi muluk saltanating olama to'lg'on».....	170
«Bul xasta vujudimni mening o'rtadi butkul».....	171
«Ko'rdum yana bir mohliqo ofati jone».....	172
«Har dam meni kuydurguchi ul ishvanamodur».....	174
«Shirin suxane, mohi bashar, hur liqoye».....	175
«Ko'rdumki bukun parivashu dilbari ra'no».....	177
«Mujgoni xadanging yurakim qildi makone».....	179
«Ko'z uchi bilan dilbari ra'no menga boqti».....	181
«Ishqingda kuyub kul bo'lubman, xabaring yo'q».....	182

«Ishqing o'tida kuydumu yondim, xabaring yo'q».....	183
«Nogoh ko'runub, jilva qilib o'tti parizod».....	184

### Murabba'lar

«Hamdu sanolar aytay xudoga».....	185
«Avval aytayin hamdi l xudoyim».....	186
«Bandang erurman, vallohu billoh».....	188

### Muxammaslar

«Ishqingda kuymas oshiq, devona bo'lmag'uncha».....	190
«Zihi rasvolig'im olam'ga soldi sho'ru shar tanho».....	192
«Bu kun, ey do'stlar, men o'lturub qon yig'lasam arzir».....	193
«Yorning ko'yiga men bormoq edim».....	195
«Meningdek intizoru yo'lda hayron bo'lmasun hech kim».....	196
«Ko'rgali husni jamoling men giriftor o'lmusham».....	198
«Meni olamda Majnuni darbadar qildi yu ketti».....	199
«Ishq ichra qadam qo'ydimu to tarki sar ettim».....	202
«Ey musulmonlar, netay mer: yord in ayrilmisham».....	204
«Borib ayt ing. azizim, ko'zlarimg'a to'tiyo kelsun!».....	205
«Tokay meni bechorag'a bu dardu alamdur».....	208
«Sanamo, yuzung bihishtin gul ochib bahor qilding».....	210
«Va'da qildi, bir kelay, deb ko'zga uyqu kelmadi».....	212
«Ey sanam, gulgul yonibsan, may ichib, raxshonmusan».....	215
«Xonumonidin judo bo'lgan kishidin dard so'rang».....	217
«Gul-gul yuzungni ochib kel sayri bog'a dilbar».....	219

### Musaddaslar

«Ne g'urbatlarni chektim, charxi bebunyod, dastingdin».....	221
«Ey pari, yuz ko'rsatub ming noz ila boqqonmusan?».....	223

### Musabba'

«Ey g'unchai navxezi guliston malohat».....	225
---	-----

Adadiy-badiiy nashr

**Boborahim Mashrab**

**DILIM DARYOI NURDUR**

*Tanlangan she'rlar*

Nashr uchun mas'ullar: *Mizrob Bo'ronov, Nazira Jo'rayeva*

Muharrir *Hikoyat Mahmudova*

Musavvir *Anatoliy Bobrov*

Badiiy muharrir *Rustam Zufarov*

Texnik muharrir *Tatyana Smirnova*

Musahhah *Fotima Ortiqova*

Kompyuterda sahifalovchi *Zuhra Ahmedova*

IB N 4238

Bosishga 24.12.04 y.da ruxsat etildi. Bichimi 84x108<sup>1</sup>/<sub>32</sub>. Tip Tayms garniturası. Ofset bosma. 12,18 shartli bosma toboq. 11,2 nashr toboq'i. Jami 10000 nusxa. 311 raqamli buyurtma. 76-2004 raqamli shartnoma. Bahosi shartnoma asosida.

O'zbekiston Matbuot va axborot agentligining G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi. 700129. Toshkent. Navoiy ko'chasi, 30 // 700128. Toshkent. Usmon Yusupov ko'chasi, 86.